

Öz. 2
336
7-93

SÜQ'URTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

G. Jumayeva, R. Djalilov, R. Rashidov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

O'zbi.d
336
7-93

SUG'URTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

*Oliy o'quv yurtlarining 5230600-«Moliya»,
5230900-«Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavriat
ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent

2019

UDK: 368.01(075)

KBK: 65.271

Taqrizchilar:

Z.I.Ro'ziyev – dots.

X.Z.Ziyatov – dots.

Mualliflar jamoasi:

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna

Djalilov Rahmonqul Hamidovich

Rashidov Raximjom Iskandarovich

G.J.Jumayeva, R.X.Djalilov, R.I.Rashidov. Sug'urta nazariyasi va ama-liyoti. VNESHINVESTPROM nashriyoti – T.: 2019. 268 b.

Mazkur o'quv qo'llanma 5230600-“Moliya”, 5230900-“Buxgalteriya hisobi va audit” ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlar, ishlab chiqarish mutaxassislari hamda professor-o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanmada 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlashda sug'urta munosabatlarini tashkil etishning ob'yektiv zarurligi, o'rni, ahamiyati hamda uning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritilgan. O'quv qo'llanmada mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish hamda iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qabul qilinayotgan islohotlarni inobatga olgan holda sug'urta nazariyasi va amaliyotining ilmiy-uslubiy asoslari, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari bayon qilingan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmada sugurta munosabatlarini tashkil etish va undan foydalanish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari, Sug'urta sohasidagi mavjud o'quv adabiyotlar, ilmiy monografiyalar, maqolalar, ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to'plamlari, statistik ma'lumotlar to'plami, jurnallar va gazetalar hamda internet ma'lumotlaridan foydalanilgan.

O'quv qo'llanma davlat ta'lim standarti va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablariga muvofiq sugurta sohasidagi so'nggi o'zgartirishlar, yangiliklar asosida tayyorlangan bo'lib, 5230600-“Moliya”, 5230900-“Buxgalteriya hisobi va audit” ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Данное учебное пособие предназначено для студентов направления 5230600-“финансы”, 5230900-“Бухгалтерский учет и аудит”, магистрантов, специалистов производства и профессорско-преподавательского состава.

В данном учебном пособии освещена объективная необходимость, роль, значение и теоретические основы и практические аспекты организации ирригационных отношений в обеспечении выполнения приоритетных задач, определенных в стратегии действий, принятой по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах. В учебном пособии изложены научно-методические основы теории и практики страхования, вопросы формирования практических навыков с учетом принимаемых реформ по повышению развития страны на новый уровень и либерализации экономики.

This manual is intended for students of the direction 5230600-“Finance”, 5230900-“Accounting and audit”, undergraduates, production specialists and teaching staff.

This tutorial highlights the objective need, role, importance and theoretical foundations and practical aspects of the organization of irrigation relations in ensuring the implementation of the priorities identified in the strategy adopted by the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021. The textbook outlines the scientific and methodological foundations of the theory and practice of insurance, the formation of practical skills in view of the reforms to improve the development of the country to a new level and the liberalization of the economy.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Sug'urta nazariyasi fanining predmeti, obyekt, maqsadi va vazifalari	9
1.1 Sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishining shart-sharoitlari	9
1.2. Dastlabki sug'urta jamiyatlarining vujudga kelishi.....	11
1.3. Sug'urtaning mohiyati yuzasidan g'arb olimlarining qarashlari.....	16
1.4. Sug'urtaning iqtisodiyotdagi ahamiyati	18
2-bob. Sug'urtaning rivojlanish bosqichlari	26
2.1. Ilk sug'urta jamiyatlari va sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishidagi shart-sharoitlari.....	26
2.2. Jahon iqtisodiyotida dastlabki sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi.....	28
3-bob. O'zbekistonda sug'urtaning shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari.....	32
3.1. O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan sug'urta sohasida ro'y bergan o'zgarishlar	32
3.2. Sug'urta sohasida olib borilayotgan islohotlar.....	37
4-bob. Sug'urta munosabatlarida qo'llaniladigan ibora va tushunchalar	44
4.1. Sug'urtaning tashkiliy qirralarini ifodalovchi atamalar.....	44
4.2. Sug'urta fondining shakllanishi bilan bog'liq atamalar...	48
4.3. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'langan atamalar.....	52
4.4. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalar	54
5-bob. Sug'urta munosabatlarida tavakkalchilikning mavjudligi	59
5.1. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida.....	59
5.2. Sug'urta tavakkalchiliklardan ko'riladigan iqtisodiy zararlarni kamaytirish va bartaraf etishning muhim vositasi..	61

5.3. Tavakalchiliklarning turlari va ularni boshqarishda sug'urtaning roli	63
5.4. Risklarni boshqarish va sug'urta	68
6-bob. Sug'urta fondlarini tashkil etish va ularning shakllanishi	76
6.1 Sug'urta fondlarini tashkil etish manbalari	76
6.2. Sug'urta fondlaridagi mablag'larning ishlatilishi.....	80
6.3. Sug'urta fondlarining turlari	82
7-bob. Sug'urtani klassifikatsiyalash	88
7.1. Klassifikatsiya tushunchasi va uning sug'urta sohasidagi ahamiyati.....	99
8-bob. Sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonlarini tashkil etish	103
8.1 Sug'urta biznesi tushunchasi va uning mohiyati.....	103
8.2. Sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonlarini tashkil etish	107
8.3. Sug'urtalovchilar moliyasini tashkil qilish va undan foydalanish tartibi	115
8.4. Sug'urtalovchilarning moliyaviy natijalarini shakllanish manbalari.....	119
8.5. Daromadlarni taqsimlash va sug'urtalovchilarning xarajatlari	124
8.6. Sug'urta tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari	126
Amaliy mashg'ulot uchun masala va topshiriqlar	143
Topshiriqlar	143
Glossariy	148
Ilovalar	174
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	265

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish hamda liberallashtirish jarayonlarida barcha moliyaviy muassasalar singari sug'urta tashkilotlarining o'rni va ahamiyati katta. Chunki, sug'urta tashkilotlarida ko'rsatilayotgan sifatli hamda innovatsion sug'urta xizmatlari yuridik va jismoniy shaxslarning *ing nafaqat mol-mulklarini, balki jismoniy shaxslarning hayoti va salomatligini tasoddiy xavf-xatarlar, baxtsiz hodisalardan asrab qolish bilan birgalikda, daromadlarini turli moliyaviy xatarlardan asrab qolish, ularni ko'paytirib berishda ham o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.*

Ma'lumki, iqtisodiyot avvalo insoniyat hayotining barcha jabhalardagi rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotini ifodalaydi. Bunda sug'urta bozorini rivojlantirish hamda sug'urta infratuzilmasini xalqaro talablar darajasida tashkil etish bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan iqtisodiyotdagi mavjud muammolarni hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, iqtisodiyot sohasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirganda, avvalo keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekanini qayd etish lozim¹:

– ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.uza.uz

- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl sektorni jadal rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash;
- “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;
- valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro‘yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

Ushbu maqsadlarga erishishda sug‘urta bozori va uning infratuzilmasini rivojlantirish uchun tizimda faoliyat ko‘rsata oladigan raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash barcha muammolar yechimida o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatadi. Chunki, moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan sug‘urtaning milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini va barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni muhim ahamiyatga ega. Masalan, milliy iqtisodiyotimizda 2021 yildan tibbiyot sug‘urtasini joriy qilinishi, sohada ulkan istiqbolli rejalar borligini anglatadi. Bugungi kunda sug‘urta munosabatlarini rivojlantirish asosida sug‘urta bozorining ko‘lamini kengaytirish, uzoq qishloq joylarida sug‘urta tashkilotlari filial va bo‘linmalarining ochilishi, sug‘urta bozoriga yangi xizmatlar taklif etish, sug‘urta qonunchiligini takomillashtirish dolzarb masalalar bo‘lib qolmoqda.

Sug‘urta tizimini rivojlantirish uchun sug‘urta sohasini yaxshi biluvchi malakali kadrlarni tayyorlash ham bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Mavjud nazariy manbalar tahlilidan ko‘rinadiki¹, aynan nomutaxassislik yo‘nalishidagi iqtisodiyot sohalarida o‘qitilayotgan “Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti” fani bo‘yicha darslik va adabiyotlar mavjud emas. Mazkur

¹ Shennayev X.M. va boshq. Sug‘urta ishi. O‘quv qo‘llanma. TMI. T.: “Iqtisod-moliya”, 2014. 248 b.

o'quv qo'llanma aynan 5230600-"Moliya", 5230900-"Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishi rejalashtirilgan "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti" fan dasturi doirasida tayyorlandi. Ushbu o'quv qo'llanma nomutaxassislik yo'nalishlarida o'qitilishi ko'zda tutilgan "Sug'urta nazariyasi va amaliyoti" fanini adabiyot bilan ta'minlash imkonini berishi bilan birgalikda sug'urta ishining nafaqat nazariy asoslari, balki amaliy jihatlarini o'zlashtirish orqali amaliy ko'nikmalarni ham shakllantirish imkonini beradi. Ushbu o'quv qo'llanmadan barcha iqtisodiyot ta'lim sohasi talabalari, magistrantlar, ishlab chiqarish mutaxassislari hamda fan o'qituvchilari keng foydalanishlari mumkin.

1-BOB. SUG'URTA NAZARIYASI FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI

O'quv maqsadi: sug'urta va sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishi, mavjud shart-sharoitlar, sug'urtaning mohiyatiga berilgan ta'riflar hamda g'arb olimlarining qarashlari, sug'urtaning iqtisodiyotdagi ahamiyati va fanining predmeti, obyekti, maqsadi va vazifalari bo'yicha nazariy – uslubiy asoslarini o'rgatishdan iborat.

Tayanch iboralar: sug'urta, zakot, hashar, munosabat, sug'urta jamiyatlari, sug'urta predmeti, sug'urta obyekti.

1.1 Sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishining shart-sharoitlari.

Sug'urtaning ilk ko'rinishi eramizdan oldingi ikki ming yillikda yashagan Bobil podshohi Hammurapi qonunlarida mavjud bo'lgan. Unga ko'ra savdo karvonlarining birortasini yukiga tabiiy hodisalar yoki qaroqchilar hujumi, o'g'riliklar natijasida zarar yetganda, ko'rilgan zararni o'rtada to'lab berishni nazarda tutuvchi kelishuv imzolinishi belgilab qo'yilgan¹. Keyinchalik, eramizning ilk davrlarida avval Gretsiyada, keyin qadimgi Rimda, Hindistonda va Misrda turli maqsadlarda tashkil etilgan shu kabi sug'urta jamiyatlari amal qilgan. Bunday jamiyatlardan biri sifatida qadimgi Rimda tashkil etilgan – “Collage tenuiorum” to'g'risida ma'lumotlar bor.

¹ Гомелля В.Б., Рубин Ю.Б., Солдаткин В.И. Страховой портфель. Москва СОМИНТЕК, 1994. 7 стр.

Bu jamiyatlar diniy, o'rtuqlik maqsadlaridan tashqari, dafn marosimlari kabi kutilmagan hodisalarda yordam berish maqsadini ham nazarda tutgan jamiyatlar edi. Bu jamiyat a'zolari kirish badali hamda vaqti-vaqti bilan doimiy to'lab boriladigan oylik badallarni to'lab borganlar. Vafot etgan jamiyat a'zosining oilasiga dafn marosimi xarajatlari hamda yordam puli sifatida to'lovlar amalga oshirilgan. Keyinchalik, to'plangan mablag'lardan vafot etgan jamiyat a'zosining yetim qolgan bolalari uchun ma'lum yoshga yetgunga qadar yordam pullari to'lab borish ham yo'lga qo'yilgan.

Qadimgi sharqda yirik shoxli qoramol va karvonsavdo bilan shug'ullanuvchi ko'chmanchilar o'rtasida tuzilgan o'zaro yordam jamiyatlarida, turli sabablar bilan mollar o'lganda yoki savdo karvonidagi savdogarning moliga zarar yetkazilganda ushbu jamiyat a'zosiga ko'rgan zararli a'zolar tomonidan to'lab berilgan.

Rim imperiyasida shunday usulda o'zaro sug'urta harbiylar o'rtasida tashkil etilgan. XI-XII-asrlarga kelib, qadimgi Rimda amal qilgan shunday sug'urta jamiyatlari tajribalaridan kelib chiqib, Germaniyada savdo gildiyalari tashkil etilgan, keyinchalik ular sexlar sifatida amal qilgan. Bunday tashkilotlar keyinchalik sug'urtaning jamoat tashkilotlari sifatida shakllanishi uchun zamin yaratdi. Savdogarlarning faqat yo'ldagi xatarlarini sug'urtalagan savdo gildiyalari doimiy xarakterdagi boshqa xatarlarni ham sug'urtalaydigan bo'ldi. Bu tashkilot o'z a'zolariga bir-biriga yordam berish, o'zaro qo'llab-quvvatlash majburiyatlarini yukladi.

Uylarni va boshqa qurilmalarni o'zaro sug'urta yo'li bilan yong'indan sug'urtalash qadimgi sug'urta turlaridan biri hisoblanadi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bunday sug'urta jamiyatlari XII-asrda Islandiyada dehqonlar o'rtasida tashkil etilganligini ko'rish mumkin. Keyinchalik ushbu sug'urta turi yevropaning ko'plab mamlakatlarida qo'llaniladigan bo'ldi. XVIII-asrga kelib esa ushbu sug'urta turi o'zaro sug'urtaning majburiy

shakli sifatida Germaniyaning Brandenburg, Braunschveyge va boshqa shaharlarida qo'llanila boshlandi.

1.2. Dastlabki sug'urta jamiyatlarining vujudga kelishi.

XII-XV-asrlarda Florensiya, Venetsiya, Genuyalik savdogarlar birinchi bo'lib dengiz transporti bo'yicha o'zaro sug'urtani yo'lga qo'yganlar. XIV-asrda ne-mis savdogarlari dengiz sug'urtasi bo'yicha Ganza ittifoqini tuzishgan. Bu yirik sug'urta ittifoqi edi¹.

1310 yilda Bryugge shahrida "Sug'urta palatasi" tashkil etilgan bo'lib, uning maqsadi savdogarlar va hunarmandlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish va turli sug'urta hodisalari kamroq yuz bergan yillarda olingan daromadni a'zolar o'rtasida taqsimlashdan iborat bo'lgan.

O'zaro yordam to'g'risidagi kelishuvlar quruqlik va dengiz orqali savdo yuklarini tashishda ko'p hollarda bir martalik kelishuvlardan iborat bo'lgan. Dengizda kemalar bilan bo'ladigan hodisalardan ko'rilgan zararlarni hamda kema ekipajining hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq hodisalarni sug'urtalashni nazarda tutuvchi kelishuvlar o'z kemasiga ega bo'lgan savdogarlar va savdo yuklariga xizmat ko'rsatuvchi kema egalari o'rtasida fors ko'rfazida dastlab tuzilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud².

Keyinchalik dengizda yuk tashish sohasida kema egasi va savdogar o'rtasida mohiyati sug'urta shartnomasi kabi bo'lgan shartnomalar tuzilgan. Unga ko'ra kema bilan yuz bergan hodisa natijasida yukka zarar yetsa yoki yo'qotilsa shartnomada kelishilgan mablag'ni kema egasi o'zi a'zo bo'lgan o'zaro sug'urtalash jamiyati mablag'lari hisobidan savdogarga to'lab

¹ Пинкин Ю.В. Справочник страховщика. Ростов на-Дону Феникс 2007 стр. 92

² Гомелля В.Б., Рубин Ю.Б., Солдаткин В.И. Страховой портфель Москва СОМИНТЕК 1994 8 стр.

bergan. Keyinchalik bunday shartnomalar tuzish Genuya shahrida majburiylik xususiyatini olgan va bu sug'urta shartnomalari maklerlar vositachiligida tuzilgan.

O'sha davrlarda faoliyat ko'rsatgan bunday jamiyatlar ko'p hollarda bir martalik kelishuvlar yoki doimiylik xarakteridagi kelishuvlar bo'lsada, badallar asosan hodisa yuz bergandan keyin zararni qoplash uchun a'zolar tomonidan zarar ko'rgan shaxsga to'plab berilgan. O'zaro sug'urtadagi ushbu kamchilik o'rta asrlarga kelib, sug'urta fondi oldindan shakllantiriladigan tijorat sug'urtasining paydo bo'lishiga olib keldi. Keyinchalik o'zaro sug'urta jamiyatlari ham takomillashib, zararni qoplashni nazarda tutuvchi to'lovlar doimiylik xususiyatini olgan va oldindan sug'urta fondini shakllantirib boriladigan bo'lgan. Bunday o'zaro sug'urta jamiyati sifatida 1650 yilda Fransiyada "Sug'urta kamerasi" deb nomlangan, yong'indan sug'urtalovchi jamiyatning tashkil etilganligini aytib o'tish mumkin. 1666 yilda Angliyaning London shahrida yuz bergan yirik yong'in "Hand in Hand", "Friendly Society fire office" kabi shunday jamiyatlar tashkil etilishiga olib keldi.

Odamlar o'z faoliyatlari bilan bog'liq xatarlarning oldini olish va hodisa yuz berganda zararni qoplash maqsadida birlashganlar. Yuqorida keltirilgan turli ko'rinishdagi jamiyatlar a'zolik badaliga asoslangan, o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining ilk ko'rinishlari edi¹.

Sug'urtaning (ko'p hollarda hayot va sog'liq sug'urtasining) ilk ko'rinishlari a'zolarining oldindan to'lanadigan a'zolik badallari hisobiga tashkil etilib, bunday jamiyatlar Angliyada do'stlik jamiyatlari yoki o'zaro yordam jamiyati (friendly society), AQShda birodarlik jamiyati (fraternal society) deb ataladi. AQSh qonunchiligida bunday jamiyatlar o'zaro yordam maqsadida tashkil etiladigan ixtiyoriy notijorat uyushma deb e'tirof etiladi.

¹ Алексеев А.А. Страхование Ростов-на-Дону Феникс 2008

Angliyada o'zaro sug'urta yordamida hayotni sug'urtalashning yangi davri kapitalistik tuzumning paydo bo'lish davrlariga to'g'ri keldi. 1762 yilda ushbu mamlakatda "Equitable" o'zaro sug'urtalash jamiyatining tashkil etilishi, keyin esa uning Yevropa va Amerikada tashkil etilishi va rivojlanishi yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qiluvchi, sug'urtaning maxsus shakli sifatida e'tirof etilishiga olib keldi.

XIX-asr boshida Goto (Germaniya) da Ernst Arnold tomonidan sug'urta banki (Gathauer Lebensversicherungs Bank) tashkil etiladi. Ushbu bank o'zaro sug'urta prinsipi asosida tashkil etilgan. Uning orqasidan Germaniyada faqat vafot etishdan emas, balki ma'lum yoshga yetishdan sug'urtalovchi "Deutscher Versicherung zu Lucheck" o'zaro sug'urta jamiyati tashkil etiladi.

XVII-asrning ikkinchi yarmida Angliya va Fransiyada paydo bo'la boshlagan tijoratga asoslangan sug'urta XIX-asrning o'rtalariga kelib o'zaro sug'urtani sezilarli darajada siqib chiqardi. Ammo XIX-asrning oxiri va XX-asrning boshlariga kelib bu holatning aksi yuz berdi va natijada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari faoliyati rivojlandi.

Yevropa mamlakatlari o'zaro sug'urtaning rivojlanishini doimiy ravishda rag'batlantirib keldi, ularga yuridik maqom berildi va soliq imtiyozlari berilib, aholi qatlamlarini ushbu jamiyatlarga a'zo bo'lishga da'vat qildi. Ularga homiylik yordami ko'rsatganlarni faxriy a'zo etib qabul qilindi.

Birinchi o'zaro sug'urtaga asoslangan sug'urta puliga 1752 yilda Amerikada Benjamin Franklin tomonidan asos solindi.

Etimologiyada sug'urtalashning ma'nosi rus tilida so'z bilan bog'liq qo'rquv «straxovaniye» (sug'urta, xavfsizlik tarmog'i) atamasi ba'zan qo'llab-quvvatlash, biror narsada omadga erishish kafolati va boshqalarni anglatadi, ammo hozirgi vaqtda u jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy (manfaat) manfaatlarini himoya qilish vositasi sifatida tobora ko'proq foydalanilmoqda.

Dastlabki sug'urta shakllari qadim zamonlarda paydo bo'lgan. Hatto quldorlik jamiyatida ham sug'urta shartnomasining xususiyatlarini ko'rishingiz mumkin bo'lgan bitimlar tuzildi. Ular ko'chmas mulk, savdo, kredit bitimlari, shuningdek, dengiz yuklari bilan bog'liq. Ushbu bitimlarning asosiy ma'nosi ushbu bitimga qiziqqan shaxslar o'rtasida dengiz tashish paytida kemalar va yuklarga zarar etkazish xavfini taqsimlash edi. Misol uchun, eramizgacha bo'lgan 916 yilda Rodos orolida bunday holatda zararni taqsimlash tizimi nazarda tutilgan farmon qabul qilindi. Unda qo'llanilgan tamoyillar bugungi kungacha saqlanib qolgan. Eng qadimgi sug'urta qoidalari Talmud kitoblaridan birida keltirilgan: agar eshaklarning haydovchilaridan biri hayvonni yo'qotgan bo'lsa, bu dogmatik qoidalar to'plami boshqa haydovchilarga boshqa eshakni almashtirish uchun uni topshirishni buyurgan, ammo hech qanday pul emas. Keyin sug'urtalashning asosiy printsipi qo'yildi: xavfdan himoya qilish, boyitish uchun xizmat qilmasligi kerak. Va sug'urtalashning yangi shakllari o'zaro majburiyatlar bilan ta'minlangan jamoaviy o'zaro yordam edi.

Shaharlarning o'sishi va yirik aholi punktlari paydo bo'lishi bilan yong'in va boshqa tabiiy ofatlardan mol-mulkka zarar etkazish yoki zarar etkazish xavfi ortdi. Shuning uchun odamlar xavf-xatarning oqibatlarini, shu jumladan, iqtisodiy choralarni oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha birgalikdagi harakatlar uchun birlashishga intilishlari aniq.

Shu munosabat bilan 1310 yilda Bruges shahrida (Germaniya) sug'urta palatasi tashkil etilib, savdogarlar va hunarmandlarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha operatsiyalar o'tkazildi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida yuk tashish va xalqaro savdoning jadal o'sishi kuzatilmoqda. Yangi bozorlarning paydo bo'lishi zarar (yo'qotish) xavfini oshiradi, shuning uchun mulkiy manfaatlarni himoya qilish zarurati ortadi. Savdogarlar yoki kema egalarning alohida guruhlari tomonidan mol-mulkni o'zaro sug'urta qilish asos-

ida qurilgan sug'urta tashkilotlarining o'xshashligi mavjud. Er savdo karvonini yoki dengizni tashish, qo'shma qurilish yoki ishlab chiqarishni jo'natishda odamlar ushbu qo'shma korxonada ishtirokchilaridan birining mol-mulki nobud bo'lgan yoki zarar ko'rgan taqdirda, zarar har bir kishi o'rtasida mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bu o'zaro sug'urta tamoyili (o'zaro hamjihatlik) edi.

Mulkni tadbirkorlik faoliyati obyektini sifatida sug'urtalashdan tashqari, yong'in sug'urtasi ham rivojlanmoqda. Uning eng oddiy shakli mol-mulki yoqib yuborilgan yoki zarar ko'rganlarga yordam berish uchun maxsus mablag' yig'ish edi. Shunday qilib, deyarli butun shahar markazini vayron qilgan London 1666 yong'inidan so'ng, uylar va boshqa inshootlarni sug'urtalash uchun "olov siyosati" va 1667da xristian (Oslo) - Norvegiya markasi kassasi tashkil etildi. Evropada bir necha yillar davomida sug'urta kompaniyalari paydo bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'zaro sug'urtalashda bunday Hamdo'stlik ishtirokchilari ushbu turdagi faoliyatdan foyda olishni maqsad qilmaganlar: ular faqat mumkin bo'lgan zararni kamaytirishga e'tibor qaratdilar. Vaqt o'tishi bilan (pul muomalasini rivojlantirish bilan) ushbu tashkilotlar tadbirkorlik tamoyillari asosida professional tijorat sug'urta kompaniyalariga aylantirildi va bunday operatsiyalardan foyda oldi. Ularning daromadlari sug'urta to'lovining maxsus taqdim etilgan qismidan va ishni tugatmaslik imkoniyatidan iborat edi. Masalan, qadimgi Rimda Diana va Antoni sug'urta jamiyati faoliyat yuritdi, u erda shahar (savdogar) aristokratiyasi (patritsiev) va oddiy odamlar (plebeyev) — kirish haqini to'lashi mumkin bo'lgan har bir kishi. Jamiyat nafaqat o'z a'zolarining bu badalini ko'mibgina qolmay, balki pulning bir qismini merosxo'rlarga topshirdi. Va Rim legionerlari davlat bizning davlatimiz harbiy xizmatchilarni sug'urta qilganidek sug'urta qildi. Iqtisodiyotning rivojlanishi bilan, mulk manfaatlarini kengaytirish soni o'sdi va sug'urta kompaniyalari aylanma kapitalini oshdi, iqtisodiyotning boshqa

sohalariga investitsiyalar o'sdi. 60-larning boshiga. G'arbda 100 turdagi mulk va shaxsiy sug'urta turlari mavjud edi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotning ehtiyojlariga to'liq javob beradigan g'oya, sug'urtalashning inson faoliyatining barcha sohalariga tez tarqalishini rag'batlantirdi. Shakllar va usullar vaqti-vaqti bilan faqat vaqt ehtiyojlariga qarab o'zgartirildi. Masalan, 1706 yilda birinchi hayotni sug'urtalash jamiyati tashkil etildi va XVIII-XIX asrlarda hayvonlarni sug'urtalash, o'g'irlik, mol-iyaviy yo'qotishlar, baxtsiz hodisalar va boshqa sug'urta turlari kabi yangi xizmatlar mavjud.

1.3. Sug'urtaning mohiyati yuzasidan g'arb olimlarining qarashlari.

O'zaro sug'urtaning kelib chiqish tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari, tijoratga asoslangan sug'urtadan farqi va umumiylik xususiyatlari hamda afzalliklari to'g'risida MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shunday ilmiy izlanishlarning natijasi sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:

- o'zaro sug'urtaning sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini yaratishning qulay va raqobatbardosh usuli ekanligi asoslab berilgan, hamda hozirgi zamon iqtisodiyotining alohida tarmoqlarida uni samarali qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan (Logvinova I.L.)¹;

- sug'urta to'g'risidagi fan bo'yicha nemis olimlarining fikriga ko'ra o'zaro sug'urta tashkilotlarining birlamchi fondi: - o'zaro sug'urta jamiyatini tashkil etish bo'yicha tashkiliy xarajatlarni qoplash fondi hisoblanadi; - o'zaro sug'urta

¹ Логвинова И.Л. Взаимное страхование как метод создания страховых продуктов в Российской экономике. Научное издание (монография) Московская финансово-промышленная академия. М.: Анкил 2010. 21с.

jamiyatining xo‘jalik faoliyati birlamchi bosqichida har qanday zararlarni qoplash uchun kafolat kapitali vazifasini o‘taydi va keyingi bosqichlarda ushbu xarajatlar shakllantirilgan zararlar zaxirasi hisobidan qoplanadi; - o‘zaro sug‘urta jamiyati tashkil etilgandan keyin xo‘jalik faoliyati jarayonida yuzaga keladigan joriy xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladigan ishlab chiqarish kapitali hisoblanadi (Kryuger O.I.)¹;

- o‘zaro sug‘urta jamiyati o‘z a‘zolariga arzon va sifatli sug‘urta xizmatlarini taqdim etishi sug‘urta tarifi brutto-stavkasining qisqartirilgan tarkibini qo‘llash hisobiga erishiladi, ya‘ni: $\text{Brutto-stavka} = \text{Netto stavka}$ (Safuanov R., Kashipova I., Ryabchikov A.)²;

- sug‘urta huquqining manbalari, sug‘urta tashkiloti mijozlarining huquqlarini himoya qilish, sug‘urta shartnomasi, sug‘urta ishini tashkil qilish, mulkni sug‘urta qilish, javobgarlik va qayta sug‘urta qilish masalalari tahlil qilingan (Fogelson Yu.B.)³;

- birinchi marta sovet adabiyotida sug‘urta jamiyatlarining siyosiy iqtisod, moliyaviy, tashkiliy, huquqiy va buxgalteriyaga oid jihatlari kompleks tadqiq etilgan (Grishin G.V.)⁴;

- o‘zaro sug‘urtaning ushbu jamiyat a‘zolarining (yuridik va jismoniy shaxslarning) olingan majburiyatlar bo‘yicha o‘zaro teng javobgarligiga asoslangan holda o‘z mulklari va boshqa mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ixtiyoriy-

¹ Крюгер О.И. Т.1: Основы страхования // Страховое дело (пер. в нем. О.И.Крюгер и Т.А.Федоровой). М.: Экономистъ, 2004.-Т.1- с.123.

² Сафуанов Р., Кашипова И., Рябчиков А. О некоторых направлениях экономического анализа и оценки эффективности деятельности обществ взаимного страхования. // Страховое дело.-2009.-№7

³ Фогельсон Ю.Б. Страховое право: теоретические основы и практика применения. Москва Норма ИНФРА-М 2012.

⁴ Гришин А.В. Правовая природа страхования и организация страховой деятельности. (монография), Орел: ОРЮИ МВД РФ 2009 с.27

lik asosida mablag'larini birlashtirishi o'zaro sug'urtaning tub mohiyati ekanligi ochib berilgan (Safuanov R.M.)¹.

1.4. Sug'urtaning iqtisodiyotdagi ahamiyati.

Bugungi kunda o'zaro sug'urta xalqaro darajaga ko'tarildi. O'zaro sug'urta barcha industrial rivojlangan mamlakatlarda muhim o'ringa ega.

O'zaro sug'urta jamiyatlari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlari dunyoning yirik sug'urta bozorlarida 42 foizdan 70 foizgachani tashkil etmoqda. Hozirgi zamon chet el sug'urta tizimlarida (Yevropa, Amerika, Yaponiyada) bir qancha yo'nalishlar bo'yicha o'zaro sug'urta yetakchilik qilmoqda (ayniqsa hayot sug'urtasi va nafaqa sug'urtasida). Dunyo sug'urta bozorining 20,5 foizini tashkil etuvchi Yaponiya sug'urta bozorida hayot sug'urtasining 90 foizi o'zaro sug'urta jamiyatlari tomonidan amalga oshirilmoqda².

Sug'urta faoliyati iqtisodiy infratuzilmaning ajralmas qismi sifatida bir tomondan, ijtimoiy kafolatni ta'minlash, ikkinchi tomondan, shartnomaviy majburiyat va tariflar mexanizmi orqali turli sug'urta risklaridan ogoh etish negizida iqtisodiyot sub'ektlari manfaatlarining himoyasini ham o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta faoliyati jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish, ularning risklar yuz berishi oqibatida ko'rishi ehtimol bo'lgan zararlarini qoplashning zaruriy vositasi sifatida paydo bo'ldi hamda rivojlandi. Shunday anglanilgan zarurat - aniq sug'urta manfaatlarini negizida sug'urta munosabatlari yuzaga keldi.

¹ Сафуанов Р.М. Взаимное страхование Российской Федерации: экономико-организационные аспекты и анализ становления. Научное издание (монография) Уфа, 2011. с. 30.

² Пинкин Ю.В. Справочник страховщика. Ростов на-Дону Феникс 2007 стр.101.

Sug'urta munosabatlari, ularning tashkiliy shakllari qandayligidan qat'i nazar, sug'urta fondini yaratish va undan foydalanish jarayonidir. Ta'kidlash lozimki, sug'urta munosabatlari - murakkab va keng qamrovli moliyaviy-pullik iqtisodiy munosabatlar bo'lib, ular yuzaga kelishi uchun o'zaro bog'liq shart-sharoit majmuasi mavjudligi ham muhimdir.

O'zbekistonda tadbirkorlikning rivoj topishi jarayonida turli risklarning yuz berishi ehtimoli mavjudligi, shuningdek, ijtimoiy hayotning o'zida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklar sub'ektlarning sug'urta faoliyatiga, xususan, risklar transferiga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirdi.

Sug'urta – bu ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan maqsadli sug'urta fondlarini uning qatnashchilari o'rtasida badallar hisobidan shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisi.

O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunining 3-moddasida sug'urtaga quyidagicha ta'rif berilgan:

«Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi»

Sug'urta faoliyati bozor munosabatlarining eng muhim unsuriga aylandi. «Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi»¹. «Shu narsa aniqki, bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar... sug'urta tizimisiz samar-

¹ O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 3-modda.

ali ishlash, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanish, kredit olish imkoniyatiga ega emas».

Shu o'rinda, ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da uzluksizlikni ta'minlash imkoniyatini yaratish maqsadiga yo'naltirilgan, mulkchilik shakllariga ko'ra, maxsus qayta taqsimlash munosabatlari tizimi mavjudligi iqtisodiyot sub'ektlari ravnaqiga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda ularning mulkka egalik qilish, undan foydalanish hamda daromad olishlari kabi manfaatlari yuzaga chiqadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda sug'urta faoliyatida talab darajasidagi risk transferi shakllanishi va rivojlanishi hamda uni ilmiy asosda o'rganish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot sub'ektlarining erkinliklari kengayib borayotgan, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)ning yangi turlari o'zlashtirilishi sug'urta faoliyatida risk transferining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni orttirmoqda.

Sug'urtaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini to'liqroq ochib berish uchun ilmiy adabiyotlarda bu masalaga bo'lgan yondashuvlarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ularda «sug'urta-xizmat ko'rsatish industriyasi» ekanligi qayd etilgan, shunga asoslanib, keyingi yillarda xalqaro iqtisodiy atamashunoslikda «xizmatlar iqtisodiyoti nazariyasi» qaror topayotganligini ta'kidlash mumkin.

Sug'urta faoliyatida o'z mohiyati nuqtai nazaridan, aynan «xizmat» tushunchasi fundamental hisoblanadi. Sug'urtachi tomonidan taklif etilayotgan «xizmat» o'zida dastlab moddiylikni aks ettirmaydi, ya'ni u o'z mijoziga faqat «va'dani sotadi». Shu nuqtai nazardan xalqaro savdoda unga «ko'rinmaydigan faoliyat»¹ deb ham tasnif beriladi. Sug'urtalanuvchiga shartnoma

¹ Qarang: Insurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p.1 b. 4.

tuzilganligini tasdiqlovchi dalil-hujjat sifatida «polis»¹ beriladi xolos. Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchiga sug'urta voqeasiga ko'ra, ko'rishi ehtimol bo'lgan zararining ekvivalent qiymatidagi pul to'lovi (ayrim hollarda mol-mulk ko'rinishida) ta'minlanishi nazarda tutiladi. Shartnomaning bajarilishi unda qayd etilgan ma'lum davr oralig'ida amalga oshiriladi.

Sug'urtachining sa'y-harakati o'z mijozlarini sug'urta polisini sotib olishlari orqali foydali kelishuvni amalga oshirganliklariga ishontirishga yo'naltirilgan bo'lishi muhimdir.

Mamlakatimizda bosqichma - bosqich bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi, iqtisodiyot sub'ektlarining yuksak darajadagi iqtisodiy mustaqilligi, erkinligi darajasi ortib borayotgan jarayonda doimo risklar mavjud bo'lishi kuzatiladi. Ular manfaatlariga zarar keltirishi mumkin bo'lgan va doimiy takrorlanib turadigan risklarni qayta taqsimlash, ya'ni o'ziga xos bo'lgan maxsus xizmat bilan sug'urta shug'ullanadi.

«Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda, ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi»³.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri – bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun havotirlanishining asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi.

Ko'rilgan zararni qoplashning ancha oddiy shakli natural sug'urta bo'lgan. Don, yem-xashak va boshqa bir turdagi oson

¹ Qarang: Yefimov S.L. Ensiklopedicheskiy slovar. Ekonomika i straxovaniye. M.: Serix -PEL, 1996. I-X, s. 347.

³ O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 3-modda.

taqsimlanadigan mahsulotlar hisobidan alohida talofat ko'rgan dehqon xo'jaliklariga moddiy yordam ko'rsatilgan. Bunday sug'urta, albatta, bir qancha chegaralangan bo'lib, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan o'z o'rnini pul shaklidagi sug'urtaga berdi.

Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rnini bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi.

Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari bilan bevosita bog'langan. Shunday ekan ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatgan tabiiy ofatlar bozor iqtisodiyoti yo'nalishlarini chetlab o'ta olmaydi. Sug'urta ko'p tarmoqli xo'jaliklarinig mol-mulkini saqlashda va tiklashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Inson va tabiiy ofatlar o'rtasidagi qarama-karshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish va lokalizatsiya qilish, hamda yetkazilgan zararni suzsiz qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab kolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yigindisi ijtimoiy ishlab chiqarishni sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini tashkil etadi.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Sug'urtaning mohiyati nimadan iborat?
2. Qanday munosabatlar sug'urta munosabatlari deyiladi?
3. Sug'urtaning xususiyatlarini qanday belgilar ochib beradi?
4. Sug'urta qanday funksiyalarni bajaradi?
5. Sug'urta munosabatlari paydo bo'lishini tushintirib bering?

Mustaqil o'zlashtirish uchun test savollari

1. Sug'urtalovchilar uyushmasining funksiyasi nimadan iborat?

- A. sug'urtalovchilar faoliyati ustidan nazorat qilish.
- B. sug'urta tashkilotlarining manfaatini himoya etish.
- C. alohida sug'urta tashkilotlariga soliq imtiyozlarini berish.
- D. yangi sug'urta turlarini ishlab chiqish.

2. Quyidagilardan qaysi biri sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatini ta'minlaydi?

- A. qayta sug'urta qilish.

- B. zararlarni qoplash.
- C. sug'urta zahiralarini joylashtirish.
- D. majburiyatlarni qabul qilish.

3. Sug'urta tashkilotlari qachon yuridik shaxs maqomini oladi?

- A. Moliya Vazirligidan litsenziya olganlaridan so'ng.
- B. Adliya Vazirligida davlat ro'yxatidan o'tganlaridan so'ng.
- C. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishidan so'ng.
- D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

4. Sug'urtalovchi – bu:

- A. sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxs.
- B. belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan va sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun Moliya vazirligidan litsenziya olgan yuridik shaxs.
- C. Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan har qanday yuridik shaxs.
- D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

5. Sug'urta mukofoti aniqlanadi:

- A. obyektning bozor bahosiga nisbatan.
- B. obyektning balans qiymatiga nisbatan.
- C. obyektning sug'urta summasiga nisbatan.
- D. obyektning haqiqiy qiymatiga nisbatan.

6. Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs kim hisoblanadi?

- A. sug'urtalovchi
- B. sug'urtalanuvchi
- C. sug'urta brokeri
- D. sug'urta manfaatdori

7. Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni kim amalga oshiradi?

- A. sug'urta brokeri
- B. sug'urta tashkiloti
- C. sug'urtalovchi va mijoz
- D. jismoniy shaxslar

8. Sug'urtaning qanday funksiyalari mavjud?

- A. xavf-xatar, ogohlantirish, investitsiya, omonat, axborot
- B. taqsimlash, qayta taqsimlash, nazorat
- C. ogohlantirish, omonat, taqsimlash, nazorat
- D. investitsiya, kreditlash, jamg'arish

2-BOB. SUG'URTANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

O'quv maqsadi: sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishidagi shart-sharoitlar, jahon iqtisodiyotida dastlabki sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi, jahon bozorining rivojlanish bosqichlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish va amaliy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

Tayanch iboralar: jamiyat, munosabatlari, sug'urta shakllari, dengiz kreditlari, sug'urta tashkilotlari.

2.1. Ilk sug'urta jamiyatlari va sug'urta munosabatlarining paydo bo'lishidagi shart-sharoitlari.

Sug'urta tarixi zamonaviy sug'urta biznesining xavf-xatarlardan, ayniqsa, yuk, mol-mulk, o'lim, avtohalokat va tibbiy davolanishdan iborat rivojlanishidan dalolat beradi.

Pul iqtisodiyotida xavfni taqsimlash yoki tarqatishning birinchi usullari miloddan avvalgi 3-va 2-ming yilliklarda Xitoy va Bobil savdogarlari tomonidan qo'llanilgan¹. Xitoylik savdogarlar savdo yuklarini daryo bo'ylab tashiganda bu yullarni bir necha kemalarda taqsimlab tashishgan. Shunda yuklarga yetadigan zarar miqdori minimal bo'lgan, chunki bu kema har qanday yuklarning yo'qotilishi zararini kamaytiradi.

Bobilliklar mashhur miloddan avvalgi 1750 yillarda yozilgan Hammurapi qonunlarida qayd etilgan tizimni ishlab chiqqanlar. Bu tizim O'rta yer dengizidagi savdogarlar tomonidan qo'llanil-

¹ Shennayev X.M. va boshq. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya", 2014.

gan. Agar savdogar o'z savdo ishlarini tashkil etishda, yukini to'ldirish, ko'paytirish uchun qarz olgan bo'lsa, qarz beruvchining qarzini qoplash kafolati evaziga dengizda yo'qotish yoki yo'qotish sharti bilan qarzni bekor qilish evaziga qarz beruvchiga qo'shimcha pul (foiz) to'laydi.

Angliya 18-asrning o'rtalarida Tijoratchilar va kema egalari o'zlarining mulklarini katta miqdorda sug'urtalashgan.

Sug'urtaning dastlabki shakllari odamlar o'z qishloqlarida, ular ko'p yig'ilishadigan joylarda amalga oshirganlar. Biroq vaqt o'tishi bilan ular yaqin atrofdagi qishloqlarda sotishdi. Biz insoniyat jamiyatlaridagi ikki xil iqtisodni bilamiz: tabiiy va monetar bo'lmagan iqtisod (almashinuv va savdo-sotiqni markazlashtirilmagan yoki standartlashtirilmagan moliyaviy vositalar to'plamidan foydalangan holda) va pul iqtisodlari (bozorlar, valyuta, moliyaviy vositalar va boshqalar bilan). Birinchi holatda sug'urta qilish o'zaro yordam shartnomalarini oladi. Agar bir oilaning uyi vayron bo'lsa, qo'shnilar uni qayta tiklashga yordam berishadi.

Dengiz kreditlari o'rta asrlarda an'anaviy dengizni sug'urtalashdan oldingi davrda keng tarqalgan edi, unda investor sayohat qilgan savdogarga pul bergan, va savdogar kema qaytib ketgan taqdirda qaytarib berishga majburiyatini olganishgan. Shu bilan bir vaqtda kredit va dengiz sug'urtalari ta'minlandi. Dengiz kreditlari uchun foiz stavkasi yuqori xavflarni qoplash uchun yuqori bo'lgan. Dengiz kreditlarini sotib olgan tijoratchilar, qarzdorlarga qarzni taqsimlashdan ko'ra, dengiz xavfi javobgarliklari uchun yuqori foizli to'lovlarni to'lashlari kerak edi. Kapitalistik shartnomalar bo'yicha kapitalistlar tadbirkorga korxonada sheriklari sifatida savdoni amalga oshirish uchun mablag' ajratdilar, foyda olish bilan birga, ham dengiz, ham tijorat xavfi kapitalistikka tegishli. O'n to'rtinchi asrda italiyalik savdogarlar kambiy shartnomalarini taklif qildilar, bu erda qarz oluvchilar kreditorlar (savdogar bankirlar) dan valyutalarni sotib olishlari kerak edi. Xarajatlar naqadar katta bo'lmasin, ular hech qanday

dengiz xavfini qoplamadilar. Hozirgi dengiz sug'urtalari, ya'ni sug'urtalanuvchi yoki qarzdor yerlarda qolgan sug'urta kreditlarini ixtiro qilgan dengiz sug'urtasi xavfidan himoyalaniş uchun sug'urta qilingan tovarlarni yolg'iz holda jo'natishadi va qarzga berilmaydi kemanding xavfsiz kelishi, tovarlarning xavfsiz kelishi bilan bog'liq".

2.2.Jahon iqtisodiyotida dastlabki sug'urta tashkilotlarining vujudga kelishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida sug'urtaning mazmuni takomillashib, uning yangi turlari paydo Xususan, Qadimgi Rimda kasbiy (savdogarlar, hunarmandlar, harbiylar) va diniy belgilarga ko'ra o'z ustavlariga ega bo'lgan kollegiya, ittifoqlar bo'lgan Kollegiya yoki ittifoqa'zolari sug'urta badallarini to'lashgan hamda Ustavda qayd etilgan shartlarda ko'rilgan zararni qoplash uchun qoplamalar olish huquqiga ega bo'lgan. Qadimgi Rimda birinchi bizning eramizdan 133 yil oldin Lanuviylar kollegiyasi tashkil topgan va faoliyat yuritgan.

Lanuviylar Ustaviga muvofiq, unga a'zo bo'ladigan shaxslar 100 sistern miqdorida kirish badalini to'lashgan. Oylik badal summasi - 5 assani tashkil etgan. Mabodo, kollegiya a'zosi vafot etsa, uning merosxo'riga 300 sisterni ajratilgan. Agar, kollegiya a'zosi o'zini-o'zi o'ldirsa yoki varot etish arafasida oylik badallar to'lash muddati 6-10 oy cho'zilgan bo'lsa, bunday holatda uning merosxo'rlariga sug'urta summasi to'lanmagan.

Qadimgi Rimda notijorat sug'urtaning rivojlanganligiga yana bir misol keltirish mumkin. Harbiy kollegiyaga a'zo bo'lgan shaxslar kassaga 750 dinariy (1 dinariy 4 sistern) to'lashgan. Bu badal bir marotaba to'liq to'lanmasdan, oyma-oy to'lanişiga ruxsat etilgan. To'langan badal evaziga, kollegiya a'zosi xizmat yuzasidan ko'tarilsa, unga 500 dinariy; boshqa legionga o'tkazilganda 500 dinariy; vafot etsa, uning merosxo'riga 500 dinariy to'langan.

X-XIII asrlarda sug'urta gildiy va sexlar tomonidan amalga oshirila boshladi. Masalan, X asrda Angliyada gildiya a'zolariga tegishli o'g'irlangan hayvonlarni qoplash uchun anglosaksoniya Gildiyasi tashkil etilgan. XI asrda Daniyada gildiya a'zolari, ulardan qaysi biri kema avariyasiga uchrasa yoki asirga tushsa, unga umumiy kassa hisobidan zarar qoplangan yoki asirdan qutqarish uchun sotib olingan.

Keyinchalik gildiya sug'urtasi himoya qiluvchi va kasbiy gildiyalariga bo'lingan. Himoya qiluvchi gildiyalar o'z a'zolarining mol-mulkinini turli xavf-xatarlardan himoya qilishgan.

Hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarga sexlarga birlashishgan. Sexda baxtsiz hodisalar ro'y berganda, qarilik tufayli mehnat qobiliyatini yo'qotganda va vafot etganda yordam ko'rsatgan. Sex halok bo'lgan a'zosining oilasini boqish majburiyatini olgan.

Tijorat sug'urtasi paydo bo'lishining birinchi bosqichida sug'urta xizmati oldi-sotdi obyektiga aylandi; ikkinchidan, sug'urta faoliyati shakllanayotgan bozor xo'jaligining muhim tarmog'iga aylandi; uchinchidan, sug'urta bitimlari shartnoma asosida tuziladigan bo'ldi.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Sug'urtaning mohiyati nimadan iborat?
2. Qanday munosabatlar sug'urta munosabatlari deyiladi?
3. Sug'urtaning xususiyatlarini qanday belgilar ochib beradi?
4. Sug'urta qanday funksiyalarni bajaradi?

Mustaqil ishlash uchun test savollari

1. Iqtisodiy munosabatlar tizimida sug'urta qanday funksiyalarni bajaradi?

- A. Jamg'arish
- B. Kredit berish
- C. Risk
- D. Ijtimoiy

2. Sug'urtaning dastlabki shakli qanday bo'lgan?

- A. Kreditlash
- B. Jamg'arish
- C. O'zaro yordam
- D. Hamkorlik

3. Sug'urtachilarning bevosita faoliyati nima?

- A. Sug'urtalash va vositachilik faoliyati
- B. Sug'urtalash va investitsiya
- C. Sug'urtalash va ishlab chiqarish faoliyati
- D. Sug'urtalash va bank faoliyati

4. Quyidagi sug'urta turlarining qaysilari majburiy sug'urtaga kiradi?

- A. Hayot sug'urtasi
- B. Qurilishlar
- C. Meditsina
- D. Havo transporti passajirlari

5. O'zbekistonda sug'urta faoliyatini qanday tashkilot nazorat qiladi.

- A. Adliya vazirligi
- B. Davlat mulk qo'mitasi
- C. Davlat soliq qo'mitasi
- D. Moliya vazirligi xuzuridagi inspeksiya

6. Sug'urta faoliyati bilan shug'ullanishiga ruxsat beruvchi litsenziya qanday tashkilot beradi.

- A. Adliya vazirligi
- B. Davlat mulk qo'mitasi
- C. Moliya vazirligi xuzuridagi inspeksiya
- D. Davlat soliq qo'mitasi

7. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari kimlar:

- A. sug'urta kompaniyalar
- B. sug'urta va qayta sug'urta brokerlari
- C. sug'urta agentlari
- D. noto'g'ri javob yo'q

8. Ichki sug'urta bozori qaysi bozor.

- A. Halqaro bozor
- B. Tashqi bozor
- C. Milliy bozor
- D. Mintaqaviy bozor

9. Sug'urta bozori bo'lishi uchun nima mavjud bo'lishi kerak.

- A. Bitta sug'urta tashkiloti faoliyat ko'rsatishi
- B. Davlat sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatishi kerak.
- C. Turli mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatishi kerak.
- D. Faqat xususiy kompaniyalar

10. Sug'urta adjasteri nima vazifani bajaradi.

- A. Sug'urtalash
- B. aktuar xisoblarni amalga oshiradi.
- C. Sug'urta vositachiligini amalga oshiradi
- D. Sug'urtalovchi uchun sug'urta xodisasi bo'yicha ekspert xulosasi berish.

3-BOB. O'ZBEKISTONDA SUG'URTANING SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

O'quv maqsadi: O'zbekistonda sug'urtaning shakllanish tarixi, Mustaqil O'zbekistonda sug'urtaning huquqiy asoslarining yaratilishi, sug'urta fondi nazariyasi va uning shakllanish manbalari, shuningdek O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanish bosqichlari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish va amaliy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

Tayanch iboralar: sug'urta fondi, sug'urta huquqi, sug'urta badali, sug'urta tizimi

3.1.O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan sug'urta sohasida ro'y bergan o'zgarishlar.

1991-yilning noyabr oyida «Mol-mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida» qonunning qabul qilinishi bilan O'zbekiston Respublikasida keng miqyosda davlatga tegishli bo'lgan korxonalarni ijaraga topshirish, ularni aksionerlik jamiyatlariga aylantirish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy islohotlar kuchli ijtimoiy siyosatni uyg'unlashtirish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususiyashtirishning birinchi bosqichida, ya'ni 1992-1993-yillarda, davlatga qarashli kichik korxonalar va uy-joy fondi eng kam narhlarda, asosan, korxonaning xodimlariga sotildi. Bu davrda 54000 korxonalar xususiyashtirildi, 18000 dan ortiq oilaviy korxonalar va 26000 ta aksionerlik jamiyati tashkil etildi. Shuningdek, mazkur bosqichda 700 dan ortiq davlat

qishloq xo'jaligi korxonalari jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi.

Ma'lumki, ilgari hamma korxonalar davlatning ixtiyorida bo'lganligi tufayli, ularni har xil noxush hodisalardan sug'urta qilishga ehtiyoj bo'lmagan. Sababi, ushbu korxonalariga sug'urta hodisalari natijasida zarar yetkazilsa, bu zararlar davlat mablag'lari hisobidan bimalol qoplanaverar edi. Ammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mol-mulklarni davlat ixtiyoridan chiqarish va xususiylashtirish natijasida nodavlat sektorida o'n minglab korxonalarni paydo bo'lishi, o'z-o'zidan, sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli ravishda oshirdi. Negaki, ilgarigi tajribadan farqli o'laroq, nodavlat sektoridagi korxonalar stixiyali hodisalar tufayli zarar ko'rganda, bu zararlar davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanmaydi.

Yuqorida bayon etilganlarga qo'shimcha ravishda ta'kidlash lozimki, amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar sug'urta tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Davlat sug'urta tashkilotlariga raqobatbardosh xususiy sektorda mustaqil sug'urta kompaniyalari vujudga kela boshladi. Bu shubhasiz, ularning faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonun qabul qilishni talab etdi. 1993-yilning 6 mayida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (hozirgi Oliy Majlis) "Sug'urta to'g'risida" qonun qabul qildi. Ushbu qonun sug'urtani rivojlantirishning, sug'urta bozorini shakllantirishning huquqiy asoslarini, respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sug'urtaning mavqei va o'rnini belgilab berdi, fuqarolar va yuridik shaxslarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablari to'liqroq qo'ndirilishini kafolatladi, sug'urta munosabatlari barcha ishtirokchilarining manfaatlari himoya qilinishi va majburiyatlariga rioya etilishini ta'minladi. Shunisi diqqatga sazovarki, mazkur qonunda davlat sug'urtasining monopoliyasiga barham berildi. Boshqacha so'z bilan ifodalaganda, davlat sug'urta tashkilotlari va nodavlat sug'urta tashkilotlari uchun teng sharoitlar yaratildi.

1992-1994-yillarda iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida monopoliyaga barham berilish va xususiyashtirish jarayoni kuchayishiga qaramasdan, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta muassasalarining ustunligi saqlanib qoldi. Mamlakatning shahar va qishloq joylaridagi asosiy sug'urta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi va uning joylardagi bo'linmalari tomonidan amalga oshirildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1992-yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan jami 2415,1 mln. rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan. Bu ko'rsatkich 1991-yilda yig'ib olingan sug'urta badallari-dan uch marta ko'pdir. Agar, ushbu davrda sug'urta badallari tarkibini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, umumiy hajmda shaxsiy sug'urtaning ulushi kam ekanligini ko'ramiz. Xususan, 1991-yilda sug'urta badallarining umumiy hajmida shaxsiy sug'urtaning ulushi 38,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1992-yilda bu ko'rsatkich – 16,2 foizni tashkil etdi. Buning asosiy sababi, pulning qadrsizlanishi va o'sha paytda ijtimoiy- iqtisodiy hayotda ro'y bergan tangliklar bilan bog'liqdir. Shaxsiy sug'urta turi bo'yicha 1990-yilda 6915,9 ming shartnomalar tuzilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1992-yilda 2624,0 mingni tashkil etdi yoki shartnomalar soni 2,6 martaga kamaydi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, yuridik shaxslarning mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilish iqtisodiy nuqtai-nazardan samarali hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy islohotlarning mohiyati ham ko'proq korxonalarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq. Bunday chora-tadbirlardan biri korxonalarni mol-mulkini ixtiyoriy sug'urta qilishdir. 1992-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, davlat sug'urta organlari tomonidan yig'ib olingan jami sug'urta badallari hajmida mol-mulk sug'urtasining ulushi keskin kamayib ketdi.

1992-1994 va undan keyingi yillarda O'zbekiston Respub-

likasida majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq operatsiyalarni o'tkazish faqat davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshirildi. Bunday sug'urta turlariga qishloq xo'jalik mol-mulkini sug'urtasi, fuqarolarni mol-mulkini sug'urtasi va yo'lovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sug'urta qilishni o'z ichiga olgan edi. Shu yerda ta'kidlash zarurki, 1991-yilning 1 yanvaridan sobiq ittifoq hududida qishloq xo'jaligi korxonalarini mol-mulkini majburiy sug'urta qilish bekor qilingan edi. Ammo, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblangani uchun, bu tarmoqqa qarashli mol-mulkini sug'urta qilish ishlari uzluksiz davom ettirildi. 1993-yilning oxirida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq, qishloq xo'jaligi korxonalarini mol-mulkini majburiy sug'urta qilish joriy etildi.

1992-yil boshlarida O'zbekistonda nodavlat sektorida o'nga yaqin sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatdi. Ular, davlat sug'urta tashkilotlaridan farqli o'laroq, amaldagi sug'urta qilish qoidalarini ancha takomillashtirdilar. Jumladan, sug'urta badali stavkasini kamaytirgan holda sug'urta javobgarligi hajmini kengaytirdilar. 1992-yil davomida mamlakatda «Umid» qo'shma sug'urta kompaniyasi, «Inobat», «Ishonch», «Temir yo'ldi» kabi bir qator nodavlat sug'urta tashkilotlari turli xil sug'urta operatsiyalarini amalga oshirdilar.

1993-1994-yillar davomida sug'urta sohasida monopoliyadan chiqarilish jarayoni bir muncha tezlashdi. 1994-yil oxirlarida mamlakat nodavlat sektorida 60 dan ortiq sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsata boshladi. 1993-yilda davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan jami 26892,8 mln. rubl miqdorida sug'urta badallari yig'ib olingan va uning qariyb 81,3 foizi majburiy sug'urta turlaridan kelib tushgan. Aniqroq qilib ta'kidlaydigan bo'lsak, ushbu kelib tushgan majburiy sug'urta badallarining 79,4 foizi yoki 21,4 mlrd. rubli qishloq xo'jalik korxonalarining mol-mulkini sug'urta qilishdan kelib tushgan. Mol-mulklarni ixtiyoriy sug'urta qilish va shaxsiy sug'urta tur-

lari bo'yicha kelib tushgan badallar umumiy sug'urta tushumlarida tegishli ravishda 7,3 va 9,4 foizlarni tashkil etdi.

Ma'lumotlarga qaraganda, 1993-yilda davlat sug'urta muassasalari 12,8 mlrd. rublni bevosita sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan zararlarni qoplashga sarfladi. 1994-yilning 1 iyulida Moliya Vazirligi huzuridagi davlat sug'urta Bosh boshqarmasi fuqarolar tomorqalaridagi qishloq xo'jaligi ekinlari va ko'p yillik dov-daraxtlarni ixtiyoriy sug'urta qilish qoidalarini tasdiqladi. Bu qoidalarga ko'ra, kartoshka, sabzovat, poliz ekinlari, ko'chatlar, tomorqada o'stirilayotgan mevali, rezavor hamda boshqa ko'p yillik daraxt, buta – o'simliklar ixtiyoriy sug'urtaga olindi. Sug'urta badallarining stavkalari qishloq xo'jaligi ekinlari turlariga qarab belgilandi. Masalan, bir yillik va ko'p yillik ekilgan o'tlar uchun sug'urta badalining stavkasi sug'urta summasiga nisbatan 7 foiz miqdorida belgilandi.

1993-1994-yillarda nodavlat sug'urta tashkilotlari ichida eng ko'p sug'urta operatsiyalarini amalga oshirgan hamda eng dastlabki nodavlat sektoridagi sug'urta kompaniyalaridan biri – «ARK sug'urta guruhi»dir. Bu kompaniya ilk marta 1991-yilning 21 fevralida «ASTROVAZ» nomi bilan rossiyalik hamkorlar yordamida tashkil etildi. 1992-yilning yanvar oyida Rossiyalik hamkorlar ta'sischi safidan chiqarildi. Shu yilning 24 iyunida «ASTROVAZ» yopiq turdagi aksionerlik jamiyatiga aylantirildi. 1993-yilning mart oyidan boshlab bu tashkilot «ARK sug'urta guruhi» deb atala boshlandi. U, asosan, O'zbekiston hududida akkreditatsiya qilingan chet davlatlar vakolatxonalari, elchixonalarining mol-mulkini sug'urtalash bilan shug'ullangan.

«ARK sug'urta guruhi» bilan bir qatorda 1992-1994-yillarda «Umid» osiyo sug'urta kompaniyasi ham nisbatan faol sug'urta qilish ishlarini amalga oshirdilar. Bu kompaniyaning asosiy ta'sisчилari O'zbekiston Respublikasi hom-ashyo birjasi va Pokiston Islom Respublikasidan bo'lgan hamkorlardir. Ushbu kompaniya dastlab, eksport-import yuklarini, transport vositalarini sug'urtalashga ixtisoslashdi. Keyinchalik «Umid»

osiyo sug'urta kompaniyasi tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida qarz oluvchilar tomonidan qaytarib bera olmaslik tavakkalchiligini sug'urta qila boshladi. Hozirgi paytda «Umid» sug'urta kompaniyasi o'z faoliyatini to'xtatgan.

Yuqorida bayon etilganlar shundan dalolat beradiki, O'zbekiston sug'urta bozorida davlat sug'urta tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy, aksionerlik va boshqa mulk shaklidagi sug'urta kompaniyalari ham raqobat asosida faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

3.2. Sug'urta sohasida olib borilayotgan islohotlar.

Umuman, sug'urtaning insoniyat hayotidagi va iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati beqiyos. Buni e'tiborga olib, mamlakatimizda bozor infratuzilmasining ushbu bo'g'inini rivojlantirishga katta e'tibor berilyapti.

Birgina 2002-yilda sug'urta sohasini rivojlantirish yuzasidan davlat miqyosida bir qator chora-tadbirlarning belgilanganligi fikrimizning tasdig'idir. Xususan, 2002-yilning 31 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining e'lon qilinishi sug'urta tizimini taraqqiy ettirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Mazkur Farmonga muvofiq, mulk shaklidan qat'iy nazar barcha sug'urta tashkilotlari 2002-yilning 1 fevralidan boshlab uch yil muddatga daromad (foyda) solig'i to'lashdan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002-yil 27 noyabrda qabul qilgan qarori sohani rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston hukumati tomonidan sug'urta sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, sug'urta bozorini bosqichma-bosqich isloh qilish tamoyili amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishi davrida sug'urtalashning huquqiy bazasiga va sug'urta sohasida bozor tuzilmasini

rivojlantirishga poydevor qo'yildi, misol uchun sug'urtalashda tomonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va respublikada sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning tamoyillarini belgilovchi xalqaro andozalarga mos keluvchi hamda talablarga javob beruvchi O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni 2002-yil 5 aprelda qabul qilindi. Aytish kerakki, yangi qonun yurtimizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy sohalarda o'tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizda olib borilayotgan erkinlashtirishni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu qonunning qabul qilinishi sug'urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini himoyalashga muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Sug'urta sohasini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati normalari xalqaro standartlarga muvofiqlashtirildi. Jumladan, rivojlangan chet mamlakatlardagidek bizda ham sug'urta xizmatlari bozori ikkiga ajratildi: hayotni sug'urta qilish bilan bog'liq xizmatlar bozori va umumiy sug'urta xizmatlari bozori. Hayotni sug'urta qilishga ixtisoslashgan tashkilotlar umumiy sug'urta turlarini o'tkazish, umumiy sug'urta turlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar esa hayotni sug'urtalash huquqiga ega bo'lmaydi. To'g'ri, bizda hayotni sug'urta qilish, ayniqsa, uzoq muddatli sug'urta turlarini rivojlantirishda ba'zi muammolar mavjud. Bu sug'urta turini amalga oshirish uchun fuqarolarda sug'urta tashkilotlariga ishonch bo'lishi bilan bir qatorda yetarli miqdorda mablag' ham bo'lishi zarur. Faqat hayot sug'urtasi bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda emas, balki korxonalar va tashkilotlarning mol-mulki hamda boshqa ixtiyoriy sug'urta turlarini o'tkazishda ham talay muammolar mavjud. Bu muammolarni hal etish sug'urta tashkilotlari va ularning salohiyatli mijozlari bo'lmish ko'pining sonli aholi, yuridik shaxslarning o'zaro hamkorligiga bog'liq. Jamiyatda aholi va korxonalar hamda tashkilot rahbarlarining sug'urtaga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish lozim. Bu, o'z

navbatida, sug'urta tashkilotlari tomonidan faol tushuntirish, targ'ibot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Bugun yurtimizda xizmat ko'rsatish tarmog'i jadal suratlar bilan rivojlanayotgan bo'lib, bunga sug'urta kompaniyalarining faoliyat doirasi ham tobora kengayib borayotgani yorqin misol bo'la oladi. Hozirda mazkur bozorda yangi sug'urta ishtirokchilarining yuzaga kelayotgani mavjud sug'urta turlarini yanada ko'paytirish hamda shu orqali keng toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarni sifatli sug'urta xizmatlari bilan ta'minlash imkonini bermoqda.

Mamlakatimiz birinchi Prezidentining 2007-yil 10 aprel-dagi PQ-618-sonli «Sug'urta bozorini isloh qilish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori muhim omil bo'ldi. Umuman aytganda, bugungi kunda mamlakatimizda sug'urta xizmatlari bozorini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarning sug'urta bozorida faol ishtirok etishini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, bozordagi sog'lom raqobat muhitini ham shakllanishiga olib kelmoqda.

Sug'urta tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish sug'urta bozorida turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Bu borada qabul qilingan huquqiy hujjatlar sug'urta tizimining jamiyatdagi o'rnini yuksaltirish, jahon andozalariga mos, sifatli xizmat ko'rsatish hamda sug'urta bozori infratuzilmasini takomillashtirish imkonini berayotir.

Ayni vaqtda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan o'ttizdan ortiq ixtisoslashgan sug'urta kompaniyalari tomonidan mijozlarga ikki yuzdan ortiq turda xizmat ko'rsatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 9 noyabr kuni sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi islohotlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi

ustuvor vazifalarni belgilashga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda, jumladan, tibbiy sug'urta masalasiga ham to'xtalib o'tilgan.

«Bugungi kunda barcha rivojlangan davlatlarda majburiy tibbiy sug'urta tizimi joriy etilgan. Bu orqali byudjjet xarajatlarini kamaytirish, tibbiy xizmat sifatini oshirishga erishilgan», — deb yozadi Prezident matbuot xizmati¹.

Yig'ilishda 2021 yildan boshlab O'zbekistonda ham majburiy tibbiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, Janubiy Koreya, Singapur, Germaniya kabi davlatlardan xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda, tegishli qonun va qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlangan.

O'zbekistonda «Tibbiy sug'urta to'g'risida»gi qonun loyihasi ishlab chiqilishi ma'lum qilingandi. 2018 yilning sentabrda O'zbekiston bosh vaziri o'rinbosari Aziz Abduhakimov Janubiy Koreya O'zbekistonga majburiy tibbiy sug'urta tizimiga o'tishda ko'maklashishi haqida ma'lumot bergandi. U o'z intervyusida majburiy tibbiy sug'urta sohasida jahon tajribasini O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish zarurligi haqida gapirgandi.

Mamlakatimiz sug'urta sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-872-sonli Qarorining qabul qilinishini aytishimiz mumkin. Unga asosan, sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya

¹ 09.11.2018. <https://kun.uz/uz/98005180>

vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining taklifiga binoan 2010-yilning 1 yanvaridan boshlab sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlarini oshirish belgilandi.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. "Sug'urta" tushunchasiga ta'rif bering?
2. Sug'urta munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Birlamchi va ikkilamchi qayta sug'urtalashning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyati qanday me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi?

Mustaqil o'zlashtirish uchun test savollari

1. O'zbekiston sug'urta bozorida nechta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatadi.

- A. 15 ta
- B. 35 ta
- C. 27 ta
- D. 52 ta

2. Majburiy sug'urta turlari qaysi organ tomonidan belgilanadi.

- A. Sug'urta kompaniyasi
- B. Adliya vazirligi
- C. Vazirlar maxkamasi
- D. Moliya vazirligi

3. Kafolat sug'urta kompaniyasi qanday mulok shaklida tashkil etilgan.

- A. Davlat kompaniyasi
- B. Hususiy kompaniya
- C. Davlat aksionerlik kompaniyasi
- D. Qo'shma kompaniya

4. O'zbekistonda qishloq xo'jalik sug'urtasini qaysi kompaniya amalga oshiradi.

- A. O'zbekinvest
- B. Kafolat DASK
- C. O'zagrosug'urta
- D. Universal sug'urta SK

5. Qayta sug'urtalash brokeri nima ish bajaradi.

- A. Sug'urta shartnomasining muddati tugagach sug'urta shartnomasini yangilaydi.
- B. Sug'urtachi va qayta sug'urtachi o'rtasidagi qayta sug'urta shartnomasini tuzishda vositachilik vazifasini bajaradi.
- C. Aktuar xisoblarni amalga oshiradi.
- D. Sug'urta tashkilotini rasmiylashtiradi.

6. Sug'urta tarif stavkasi nima?

- A. Sug'urta mukofotini belgilash vositasi
- B. Sug'urta summasini belgilash vositasi
- C. Sug'urta xodimiga to'lanadigan maosh miqdori
- D. Shartnoma summasini belgilash vositasi

7. Netto stavkaning xajmi hayot sug'urtasida nimalarga asoslanadi?

- A. Sug'urtalanuvchining yoshi
- B. Sug'urta mukofotini to'lash tartibidan
- C. Naf oluvchining yoshidan
- D. Sug'urta ta'minotining to'lanish tartibidan

8. Javobgarlik sug'urtasida sug'urta kompaniyasini oluvchi kim

- A. Sug'urtalanuvchi
- B. Zarar ko'ruvchi
- C. Sug'urtalangan uchinchi shaxs
- D. Sug'urtalovchi

9. Javobgarlik limiti nima?

- A. Sug'urtalash summasining chegarasi
- B. Sug'urta qoplamasi xajmining chegarasi
- C. Kafolatlangan sug'urta summasi
- D. Uchinchi shaxsga yetkazilgan zarar

10. Mahsulot sifati uchun javobgarlikni sug'urtalash kimning foydasiga amalga oshiriladi?

- A. Sug'urtalovchi
- B. Istemolchi
- C. Sug'urtalanuvchi
- D. Zarar ko'ruvchi

4-BOB. SUG'URTA MUNOSABATLARIDA QO'LLANILADIGAN IBORA VA TUSHUNCHALAR

O'quv maqsadi: Sug'urta munosabatlarida qo'llaniladigan ibora va tushunchalarning nazariy, uslubiy asoslarini va amaliyotda ulardan foydalaning amaliy jihatlarini o'rgatish.

Tayanch iboralar: shartnomasi, polis, sug'urta obyekt, sug'urta sub'ekti, tarif, va sug'urta mukofoti, sug'urta zaxiralari, sug'urta qoplamasi, sug'urta javobgarligi, tibbiy sug'urta, mulkiy sug'urta.

4.1. Sug'urtaning tashkiliy qirralarini ifodalovchi atamalar

Sug'urtani amalga oshirish jarayonida sug'urta ishtirokchilarining turlicha sug'urtaviy manfaatlarini namoyon bo'lishi, sug'urtaga tegishli obektlarning turlichaligi, sug'urta hodisalarining keng ko'lamliligi va boshqa omillar bilan bog'liq bo'lgan murakkab spetsifik munosabatlar yig'indisi yuzaga keladi. Shu munosabat bilan u yoki bu konkret sug'urta munosabatlarini maxsus terminologiya yordamida aks ettirish zaruriyati tabiiydir.

Sug'urta terminologiyasi yordamida sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilar o'rtasida bir tilda suhbat olib borish, sug'urta shartlarini tushunish, unda ishtirok etayotgan tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniqlash, sheriklar bilan amaliy munosabatlarni olib borish, reklama va boshqa sug'urta ishlarini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

- Sug'urtaning tashkiliy atamalariga quyidagilar kiradi.
- *Sug'urtalovchi*

- *Sug'urtalanuvchi*
- *Sug'urtaning obekti*
- *Sug'urta himoyasi*
- *Sug'urta manfaatdorligi*
- *Sug'urta javobgarligi*
- *Qayta sug'urta qilish*
- *O'zaro sug'urta qilish*
- *Sug'urta vakillari*
- *Sug'urta guvoohnomasi*
- *Sug'urta qoplamasini oluvchi*

Quyidagi har bir atamaga alohida-alohida qisqacha tushuntirish berib o'tamiz.

Sug'urtalovchi-Sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot. Tabiiy ofat yoki boshqa ko'zda tutilmagan sabablar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta qonunchiligi yoki sug'urta shartnomasi asosidagi shartlarni ko'zda tutib qoplashni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlar. Bugungi kunda mamlakatimizda 20 tadan ortiq turli mulkchilik shakllaridagi sug'urta tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Sug'urtalanuvchi-O'ziga tegishli mol-mulkni sug'urta qildirgan korxonalar, xo'jalik tashkiloti yoki o'z hayotini sug'urtalovchi fuqarolar sug'urtalanuvchi hisoblanadilar. Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta tashkiloti ro'yxatidan o'tganlar yoki ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnoma tuzib, sug'urta badalini to'laganlar sug'urtalanuvchilar qatoriga kiradi.

Sug'urtaning obekti va predmetlari-Mulk sug'urtasida obekt sifatida moddiy boyliklar mol-mulk ko'zda tutilsa, shaxsiy sug'urtada fuqarolarni hayoti sog'ligi va mehnat qobiliyati ko'zda tutiladi. Sug'urta predmeti - ana shu obektlarni tarkibiy qismlaridir, masalan, qishloq xo'jaligi sug'urta obekti bo'lsa, ekinlar hosili, chorva mollarining soni, mol-mulk xillari, binolar, inshootlar, transport vositalari sug'urta predmeti hisoblanadi. Uy-joyda saqlanuvchi mol-mulk obekt bo'lsa, uy-ro'zg'or

buyumlari, mebellar, gilamlar, televizorlar bu sug'urtaning predmeti hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta predmetiga ma'lum yo'shga yetish, mehnat qobiliyatini yo'qotish va vafot etish hodisalarini misol bo'la oladi.

Sug'urta himoyasi-Sug'urta himoyasi favqulotda, ko'zda to'qilmagan ofatlardan himoya qilishni muhim shartlaridan hisoblanadi. Qadim zamonlardan shaharlar tashkil etilganda hujumlardan himoya qilish uchun devorlar qurilgan va sug'urta himoyasi ham bo'lgan. Bu moddiy jihatdan sug'urta fondidir. Sug'urta himoyasi faqat fond emas, balki yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog'langan taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu munosabatlar Respublika, shahar, tuman miqyosidagi obektlarga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan himoyalashni ko'zda tutadi. Bunday himoyalash aholiga tegishli mulklarni har xil sug'urta hodisalaridan asrashga yordam beradi. Bunday himoyalash sug'urtaning oldini olish funksiyasida o'z ifodasini topadi.

Sug'urta manfaatdorligi-Sug'urta masalalari bilan shug'ullanish unga nisbatan manfaatdorlikdan boshlanadi. Ishlab chiqarishni xavf-xatardan holi emasligi sababli sug'urtalash masalalariga qiziqish boshlanadi, chunki sug'urta obekti zararlanganidan sug'urtalanuvchiga zarar summasi beriladi. Bu summa sug'urta qoplamasi deb ataladi. Sug'urtalanuvchi zarar ko'rganda uni qoplash uchun sug'urtalovchidan sug'urta summasini olishdan manfaatdor bo'ladi.

Sug'urta javobgarligi-Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining qonunda yoki shartnomada ko'zda tutilgan javobgarligi, o'z zimmasiga olgan majburiyatlari, vazifalari. Agar ko'rsatilgan hodisalaridan biri sodir bo'lsa, u holda sug'urta organlari o'z zimmasiga olgan majburiyat asosida sug'urta qoplamasi to'laydi. Masalan, hayotni aralash sug'urtasida 3 xil sug'urta javobgarligi belgilangan. Shulardan biri shartnomada ko'zda tutilgan yoshga yetish; ikkinchisi, baxtsiz hodisalardan birining sodir bo'lishi natijasida sog'ligini yo'qotishi; uchin-

chisi, vafot etish hodisasidir. Bu hodisalaridan biri sodir bo'lsa, sug'urta tashkiloti sug'urta qoplamasini to'lash uchun javobgar hisoblanadi, shuni aytish kerakki, davlat sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'zda tutilgan javobgarlik xususiy sug'urta tashkilotlarida ko'zda tutilgan javobgarlikdan farq qiladi. Bundan tashqari har bir sug'urta tashkiloti sug'urtaning har bir xili bo'yicha o'z javobgarligini o'zi belgilaydi.

Qayta sug'urta qilish-Sug'urtalovchi shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ga o'tkazishi yoki qayta sug'urta qilish.

Sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchining roziligi bilan asosiy shartnomani o'zgartirmasdan turib sug'urta shartnomalari asosida o'zining javobgarligi, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan boshqa sug'urta tashkilotlariga topshirib, qayta sug'urta qildirishidir. Sug'urta hodisasi yuz berganda qayta sug'urtalagan tashkilot shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatlar doirasida javobgar bo'ladi.

Birgalikda sug'urta qilish-Birgalikda sug'urta qilishda ikki yoki undan ortiq sug'urta tashkiloti ma'lum obektni sug'urtalash yuzasidan bitta sug'urta shartnomasi tuzadi. Bunda shartnomada har bir sug'urtalovchining huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartlar bo'lishi kerak.

Sug'urta vakillari-Sug'urta vakillari sug'urta xodimlari bo'lib, o'zlariga berilgan vakolatlariga muvofiq sug'urtalovchi nomidan va uning topshirig'i asosida ishlovchi jismoniy yoki yuridik shaxslardir.

Sug'urta guvohnomasi (polisi)-Sug'urta munosabatlari tashkil etilganligiga guvohlik beruvchi hujjat. Ixtiyoriy sug'urtada bunday hujjat birinchi badal to'langandan keyin beriladi. Sug'urta guvohnomasi (polisi)da xo'jaliklarning nomlari, sug'urtalangan shaxsning nomi, familiyasi, sug'urta summasi yoki qoplamasi, sug'urta tarifi, sug'urta badali va boshqa ma'lumotlar ko'zda tutiladi.

Sug'urta qoplamasini oluvchi-Sug'urta qoidalari yoki shartnomalarda ko'zda tutilgan sug'urta hodisalari sodir bo'lganda yoki boshqa sabablar tufayli sug'urta tashkilotlaridan ma'lum miqdorda qoplama (mablag') oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar. Yuridik shaxslar uchun bu mablag'lar ularning hisoblariga o'tkaziladi.

4.2. Sug'urta fondining shakllanishi bilan bog'liq atamalar.

Sug'urta fondi asosan sug'urta badallari hisobidan shakllanadi. Sug'urtalanish uchun sug'urta badali to'lanishi kerak. Sug'urta badali milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash asosida ajralib chiqib, maxsus sug'urta fondi tarkibiga kiradi. Yuridik shaxslar, fuqarolar o'z daromadlarining bir qismini sug'urta to'lovi sifatida sug'urta tashkilotlari ixtiyoriga o'tkazadilar.

Sug'urta fondining sug'urta badallari hisobidan shakllanishi o'ziga xos jarayon, u badal miqdorini aniqlash bilan bog'langan qator tushunchalarga egadir. Bu tushunchalarga quyidagilar kiradi.

- Sug'urtaviy baholash
- Sug'urta ta'minoti
- Sug'urta summasi
- Sug'urta tarifi
- Sug'urta muddati
- Sug'urta yoshi
- Sug'urta boqimandasi
- Sug'urta to'lovi

Sug'urtaviy baholash-Sug'urtaviy baholash mol-mulk sug'urtasida qo'llaniladi. Sug'urtaviy baholash asosida sug'urta obektlarining qiymati aniqlanadi. Bu asosida sug'urta badallari hisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

– besh yillik yoki uch yillik hosil. Bu ko'rsatkich ekinlarga nisbatan qo'llaniladi. O'rtacha hosil belgilangandan keyin u nat-

ishtirok etsa va yuz millionlab obektlar sug'urtalansa, u holda minimal badallar hisobiga maksimal zararlarni qoplash imkoni paydo bo'ladi.

Sug'urta zararlarni qoplashni hududiy birlik va ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bunda yil davomida sug'urtalanuvchi xo'jaliklar o'rtasida sug'urta fondini hududlar bo'yicha samarali qayta taqsimlash uchun yetarlicha katta hudud va anchagina sug'urtalashga tegishli obektlar talab qilinadi. Faqatgina mazkur shartga rioya qilish bilangina katta hududlarni qamrab oluvchi tabiiy ofatlar yetkazgan zararlarni qoplash imkoni bo'ladi.

Zararni sug'urta yordamida qoplash ma'lum vaqt davomida *amalga oshiriladi, chunki ixtiyoriy sug'urta doimo muddat bilan chegaralanadi.*

5.2. Sug'urta tavakkalchiliklardan ko'riladigan iqtisodiy zararlarni kamaytirish va bartaraf etishning muhim vositasi.

Risk-deganda tabiiy-iqlimiy, iqtisodiy va ijtimoiy hodisalar xususiyatidan kelib chiquvchi yo'qotishlar xavfi ehtimoli tushuniladi. Keng ko'lamlı tushuncha sifatida riskni tarixiy, huquqiy, iqtisodiy yoki moliyaviy kategoriya sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Riskning quyidagi ta'rifi alaqancha kengroq hisoblanadi: **risk** – subekt tomonidan ko'plab (birdan ortiq) natijalarni qamrab oluvchi, konkret natijaning noaniqligi va hech bo'lmaganda natijalardan biri xavfli bo'lgan alternativalar mavjudligi holatida qabul qilinadigan qaror tavsifi.

Hodisa – tabiiy yoki ijtimoiy-texnik jarayonlar, tashqi subektlarning maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlari yig'indisi yoki subektning o'zini xatti-harakati.

Sub'ekt uchun xavf-hatarlar – amalga oshishi subektga *zarar (ziyon)* yetkazishi mumkin bo'lgan hodisalar; subektning

yo'q qilinishida yoki subektning evolyutsiya imkoniyatlarini cheklanishida, yoki subekt *manfaatlariga* ziyon yetkazilishida namoyon bo'ladi.

Zarar – har qanday moddiy yoki ma'naviy talofat, ziyon.

Manfaat – naf, foyda.

Shunday qilib, risk alohida holat sifatida risk-menejment nuqtai-nazaridan kelib chiqib ikkita xususiyatga ega – noaniqlik (ehtimollik) va xavf-hatarning amalga oshishi natijasida yuzaga keluvchi zararlilik.

Iqtisodiy nazariyada "risk"ni ma'lum ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni amalga oshirish natijasida korxonada tomonidan daromadlarning bir qismini yo'qotish yoki qo'shimcha xarajatlar qilish ehtimoli (xavfi) sifatida tushunish qabul qilingan.

Risk omili va uning natijasida ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zarurati sug'urtaga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Risk sug'urta mafaatlari va munosabatlarini yuzaga kelish asosi hisoblanadi.

Sug'urtada risk qator jihatlari bo'yicha ifodalanadi:

– *aniq bir hodisa yoki hodisalar yig'indisi* (voqea yoki voqealar yig'indisi), qaysiki ularning sodir bo'lishi bilan ilgari shakllantirilgan sug'urta fondidan to'lovlar amalga oshirilishida;

– *aniq bir sug'urtalangan obekt bilan bog'liqlikda*, har qanday risk namoyon bo'lish obektiga ega;

– sug'urtaga qabul qilingan obektning *shikastlanish (zarar ko'rish) ehtimolligi* sifatida.

Risk sug'urtada obekt hisoblanadi va uni tasodifiy voqealar va hodisalar natijasida amalga oshishi *sug'urta hodisasini* yuzaga kelishini bildiradi.

Texnologiyalarning yangilanishi, ularning yuqori darajada xavfsizligi, favqulotda holatlarning matematik modellashuvi tasodifiylikni chegaralaydi.

5.3. Tavakalchiliklarning turlari va ularni boshqarishda sug'urtaning roli.

Risklarning turkumlanishi deganda oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ularni ma'lum belgilari bo'yicha alohida guruhlarga ajratish tushuniladi. Risklarni turkumlashning quyidagi *mezonlari* mavjud:

- risklar xavf soluvchi obektlar sinflari;
- riskni yuzaga kelish sabablari;
- risklarga ta'sir etish imkoniyati.

Risk obektlarining kompleks sinflari:

- ishchi kuchi;
- mol-mulk;
- sarmoya;
- axborot.

Yuzaga kelish sabablari bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi:

- tabiiy hodisalardan kelib chiquvchi - suv toshqini, do'l, yer qimirlashi, epidemiya va sh.k.;
- ijtimoiy-jamoat muhitdan kelib chiquvchi - aldov, jinoyat, ko'zda tutilmagan ziyon yetkazish;
- texnikaviy muhitdan kelib chiquvchi - texnikaviy vositaning ishdan chiqishi;
- xo'jalik jarayonlari va iqtisodiyotning holati bilan bevosita bog'liq bo'lgan - inflyatsiya, bozor kon'yunkturasi, bank foizi, valyuta kurslari va b.

Riskka ta'sir etish imkoniyati bo'yicha:

- *ekzogen (tashqi) risklar*, ularga ta'sir etish qaror qabul qiluvchi shaxs ta'siri ostiga tushmaydi va risklarni amalga oshishi natijasida yuzaga keluvchi zararlarni, oqibatlarini kamayishi bilan cheklanadi;

- *endogen (ichki) risklar*, qaror qabul qiluvchi shaxs ta'sir doirasida bo'ladi, qaysiki ular uchun risklarni yuzaga kelish ehtimolligi kamayadi va ayrim hollarda butunlay bo'lmaydi.

Iqtisodiy muhitlar uchun xos bo'lgan risklarning tasnifiy tizimi o'z tarkibiga guruhlar, toyifalar, turlar, kichik turlar va xillarni oladi. Ularning chizmalari ko'rinishi 1-rasmda aks ettirilgan.

Ehtimolli natijasi (riskli hodisa) bo'yicha risklar quyidagilarga bo'linadi:

Haqiqiy risklar – salbiy yoki nolli natijani olish ehtimolligi: tabiiy, ekologik, siyosiy, transport va tijorat risklarining bir qismi (mulkiy, ishlab chiqarish, savdo).

Spekulyativ risklar – ham ijobiy, ham salbiy natijani olish ehtimolligi: moliyaviy risklar.

Risklarni yuzaga kelishining asosiy sabablaridan kelib chiqib, ular quyidagilarga bo'linadi:

- *tabiiy;*
- *ekologik;*
- *siyosiy;*
- *transport;*
- *tijorat.*

Tarkibiy belgisi bo'yicha tijorat risklari quyidagilarga bo'linadi:

– mulkiy, mulklarni o'g'irlik, sovuqqonlik, texnik va texnologik tizimlarda ortiqcha quvvat va b. sababli yo'qotish ehtimolligi;

– ishlab chiqarish, turli sabablar bilan ishlab chiqarishdagi to'xtalishlar natijasida zarar ko'rish ehtimolligi;

– savdo, to'lovlarning kechikishi, tovarlarni transportirovka qilish jarayonida to'lovlarni rad qilish, tovarlarni yetkazib bermaslik va b. sababli zarar ko'rish ehtimolligi.

Moliyaviy risklar, pul mablag'larini yo'qotish ehtimolligi bilan bog'liq. Moliyaviy risklar ikki turga bo'linadi: pulning xarid quvvati bilan bog'liq bo'lgan risklar va sarmoyalarni qo'yish bilan bog'liq bo'lgan risklar (investitsion risklar).

Pulning xarid quvvati bilan bog'liq bo'lgan risklar quyidagi xillardan iborat:

- inflyatsion;

2. Sug'urta fondini sarflanishi bilan bog'liq atamalarga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- A. sug'urta akti
- B. sug'urta obyekt
- C. sug'urta franshizasi
- D. sug'urta brokeri

3. Sug'urta xodisasi nima?

- A. sug'urta xodisasi-sodir bo'lgan voqea
- B. sug'urta xodisasi-bu shartnoma
- C. sug'urta xodisasi-sug'urta pulidir
- D. sug'urta xodisasi-bu qoplama

4. Sug'urta doirasi nima?

- A. sug'urta obyekt va sub'ekti o'rtasidagi bog'liqlik
- B. sug'urta tashkiloti ustidan nazorat
- C. sug'urta turlari bo'yicha taqsimot
- D. sug'urtalanadigan obyektlarning miqdori

5. Sug'urta bahosi nima?

- A. sug'urta qilinayotgan obyekt qiymatining puldagi ifodasi
- B. sug'urta qiluvchining javobgarligining cheklangan hajmi
- C. sug'urtada mulkning puldagi ifodasi
- D. sug'urta tashkiloti to'laydigan pul

6. Sug'urta PULini tashkil qilishdan maqsad:

- A. sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- B. sug'urta operatsiyalarini alohida sug'urtalanuvchilar uchun chegaralab qo'yish, masalan chet elliklar uchun;
- C. nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun;
- D. hududiy sug'urta bozorini kengaytirish maqsadida.

7. Quyida ko'rsatilganlarning qaysisi sug'urta agenti hisoblanadi:

A. sug'urta shartnomasini tuzgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

B. sug'urtalanuvchi nomidan yoki sug'urtalovchining topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzuvchi har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

C. sug'urtalovchining topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzuvchi har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

D. sug'urtalanuvchi topshirig'iga binoan o'z nomidan sug'urta shartnomasini tuzuvchi har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs.

8. Aktuar hisoblar qanday kuzatish va hisoblardan tashkil topadi?

A. Ehtimollar nazariyasi

B. Matematik statistikasi qo'llash

C. Demografik tadqiqotlar

D. Ehtimollar nazariyasi, matematik statistikasi qo'llash va demografik tadqiqotlar.

9. Sug'urta rezervlari – bu:

A. Ishlab topilgan netto-mukofotning bir qismi

B. Sug'urtachining budjet oldidagi qarzlarini qoplashga yo'naltirilgan mablag'ning qismi.

C. Sug'urta qoplamasi uchun yo'naltirilgan sug'urta vzosining bir qismi

D. sug'urta mukofoti

10. Aktuar hisoblar nimani aniqlashga yo'naltirilgan?

A. Sug'urta fondining hajmini

B. Sug'urta hodisalarining tezligini

C. tarif stavkasini

D. sug'urta tavakkalchilik darajasini.

5-BOB. SUG'URTA MUNOSABATLARIDA TAVAKKALCHILIKNING MAVJUDLIGI

O'quv maqsadi: Tavakkalchilik etishning muhim vositasi, tavakkalchilik-larning turlari va ularni boshqarishda sug'urtaning roli haqida nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch iboralar: sug'urtaviy himoyalash, risk, vaqt, iqtisodiy zarar, risk turlari, xavf-hatarlar, manfaat, ekzogen risklar, spekulyativ risklar, moliyaviy risklar, endogen risklar.

5.1. Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida.

Sug'urta – ishlab chiqarish munosabatlarining zaruriy elementidir. U ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi moddiy zararlarni qoplash bilan bog'liqdir. Normal takror ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti uning uzluksizligi va to'xtovsizligi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning doimiy yangilanib borishi insonlarning barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, shu jumladan rivojlangan jamiyatda ham mavjud ehtiyojlarini qondirish uchun zarurdir.

Agarda ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tabiiy ofatlar yoki boshqa favqulodda hodisalarning (yong'inlar, portlashlar, epidemiyalar va b.) salbiy oqibatlarini ta'sirida to'xtasa yoki buzilsa, u holda jamiyat avvalo turli oldini olish tadbirlarini amalga oshirishga, mabodo ular ko'zlangan natijani bermasa, u holda yetkazilgan moddiy zararni qoplashga, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishning normal sharoitlarini qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Inson va tabiiy ofatlar o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri, birinchi navbatda, tabiiy va boshqa ofatlarning salbiy oqibatlarini oldini olish, bartaraf qilish hamda yetkazilgan zararni so'zsiz qoplash bo'yicha insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bu obektiv munosabatlar insonlarning erishgan hayot darajasini saqlab qolishga bo'lgan real va mavjud ehtiyojini aks ettiradi. Mazkur munosabatlarni alohida xususiyatlar ajratib turadi va ularning yig'indisi ijtimoiy ishlab chiqarishni **sug'urtaviy himoyalash iqtisodiy kategoriyasini** tashkil etadi.

Sug'urta iqtisodiy kategoriya sifatida moliya kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo, moliya to'laligicha daromadlarni taqsimlash bilan bog'liq bo'lsa, sug'urta esa faqatgina qayta taqsimlash munosabatlarinigina qamrab oladi.

Sug'urtaning xususiyatlarini ochib beruvchi belgilarini quyidagicha keltirishimiz mumkin:

Sug'urtada to'satdan, oldindan ko'zda tutilmagan va yengib bo'lmaydigan holatlar, ya'ni sug'urta holatlari ehtimoli mavjudligi bilan asoslanuvchi qayta taqsimlash pul munosabatlari yuzaga keladi.

Sug'urtada ko'rilgan zararni sug'urta ishtirokchilari, ya'ni sug'urtalanuvchilar o'rtasida qoplash amalga oshiriladi. Zararni bunday qoplash usuli zarar ko'ruvchi xo'jaliklar soni doimo sug'urta ishtirokchilari sonidan kam bo'lish ehtimoliligiga asoslanadi, ayniqsa ishtirokchilar soni yetarlicha katta bo'lganda.

Zararni bunday qoplashni tashkil qilish uchun maqsadga yo'naltirilgan sug'urta fondi tashkil qilinadi. Bu fond sug'urta ishtirokchilarining badallari hisobidan shakllantiriladi. Sug'urta fondining mablag'lari faqatgina uni tashkil qilganlar o'rtasida ishlatiladi, sug'urta badalining hajmi esa har bir qatnashchining zararni qoplashdagi ulushini bildiradi. Shuning uchun, sug'urta qatnashchilarining doirasi qanchalik keng bo'lsa, sug'urta badalining hajmi shunchalik oz va sug'urta ham samarali bo'ladi. Agarda sug'urtada millionlab sug'urtalanuvchilar

isalarga mulk sug'urtasida tabiiy ofatlar, yong'in, falokat, portlash va boshqalar. Shaxsiy sug'urtada ma'lum yoshga yetish, baxtsiz hodisalarning sodir bo'lishi, vafot hodisalari kiradi. Baxtsiz hodisasi deganda sug'urtalanganning sog'ligiga va hayotiga zarar keltiruvchi favqulotda hodisalar ko'zda tutiladi. Sug'urta hodisasi natijasida ko'rilgan zarar belgilangan miqdorda sug'urta fondi hisobidan qoplanadi.

Sug'urta dalolatnomasi-Sug'urta hodisasining sodir bo'lganligini va uning sabablarini tasdiqlab beruvchi rasmiy hujjat. Mulk sug'urtasida dalolatnoma asosida zarar miqdori va unga to'lanadigan qoplama miqdori aniqlanadi. Hujjat qoplama olishga asos bo'ladi. Shaxsiy sug'urtada dalolatnoma baxtsiz hodisani tasdiqlash, uning sug'urtalanuvchining bu hodisa xizmat vazifalarini bajarishda yoki yo'lda bo'lganida sodir bo'lganini aniqlashga, korxonaga hisobidan sug'urta qilinganda yoki yo'lovchilar majburiy sug'urtasi shartnoma yo'li bilan qoplama olishga asos bo'ladi. Sug'urtaning boshqa xillari bo'yicha dalolatnoma talab qilinmaydi, tibbiyot muassasasining ma'lumotnomasi kifoya qiladi.

Sug'urtada zarar-Sug'urtada zarar deganda, sug'urta bahosida ishdan chiqqan yoki bir qismi zararlangan mulk bahosi tushuniladi. Yetkazilgan zararining to'la yoki bir qismi sug'urtalanuvchiga to'lanishi sug'urta qoplama deb ataladi. Shaxsiy sug'urtada shikastlangan shaxsga to'lanadigan pul mablag'lari sug'urta miqdori (summasi) deb ataladi.

Sug'urta rentasi-Qo'shimcha pensiyani sug'urtalash asosida sug'urtalanuvchiga oy yoki yil davomida to'lanadigan muntazam daromad. Qo'shimcha pensiya agar sug'urta badallarini o'z vaqtida to'lab borilgan bo'lsa, pensiya yoshiga chiqqan oydan boshlab to'lanadi.

Sug'urta qoplama-Sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi tufayli yetkazilgan zarar miqdorini qoplash uchun ajratilgan mablag'.

4.4. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalar.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tadbirlarini kengaytirish, xorijiy mamlakatlar bilan sug'urta hamkorligini mustahkamlash va ularning tajribalaridan samarali foydalanishni taqazo qiladi. Bu tadbirni amalga oshirishning dastlabki shartlaridan biri- xalqaro sug'urta atamalarini o'rganish va ularning mazmuni bilan yaqindan tanishishdir. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan xalqaro atamalarning soni kun sayin ortib bormoqda. Lekin ularning ko'plari o'zbek tilida o'z ekvivalentlariga ega emaslar. Shu munosabat bilan xorijiy atama tanlashda birinchi navbatda hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan va qo'llanishi kutilgan atamaga izoh berishga harakat qilamiz.

Abandon-Sug'urtalovchidan to'liq sug'urta summasini olish maqsadida sug'urtalanuvchining mulkiga nisbatan voz kechish. Bu ibora ko'p xolatlarda dengizda suzib yuruvchi kemalarni yo'qolib qolishida yohud ularni qaroqchilar tomonidan qo'lga tushirishida ishlatiladi.

Anderrayter-Sug'urta kompaniyasining mas'ul bir vakolatiga ega va tegishli riskni o'z zimmasiga oladigan shaxs. Sug'urta kompaniyasini portfeli uchun javob beradi. Sug'urta shartlarini va tarif stavkalarini, hamda risk darajalarini aniqlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Sug'urta kompaniyalarining anderrayter siyosati-Ma'lum bir sug'urta turlari bo'yicha risklarni sug'urtalash mumkinligi yoki mumkin emasligi haqida qaror qabul qilish bilan bog'liq, sug'urta kompaniyasi tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Adendum. Sug'urta shartnomalariga tomonlarning kelishuviga asosan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritish.

Yashil karta- Xalqaro darajada tan olingan avtomobil haydovchilarning uchinchi shaxs oldidagi mas'uliyatni majburiy sug'urtalanganligi xaqidagi sug'urta polisi, «Yashil karta» tizimiga a'zo mamlakatlar kelishuviga asosan, avtomobil hay-

dovchisi mazkur hududlarda qaytadan uchinchi shaxs oldidagi mas'uliyatni sug'urtalamasdan yurishi mumkin.

Sug'urta brokeri-Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida vositachini vazifasini bajaruvchi yuridik shaxs. O'zining statusi bo'yicha broker sug'urtalanuvchining manfaatlari himoya qiladi, uning vakili bo'ladi va uning obektlarini moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan kompaniyalarda sug'urtalanishni ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda, ko'rsatilgan xizmatlar uchun broker, sug'urtalanuvchidan emas, balki sug'urtalovchidan tegishli komissiya summasini oladi.

Pul-Yirik va xavfli risklarni birgalikda sug'urtalash uchun bir nechta sug'urta kompaniyalarini birlashuvi. Riskni qabul qilib oluvchi kompaniya, pulga a'zo sug'urtalovchilar nomidan yagona polis beradi.

Shomaj-Sug'urta hodisalarini ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishning to'xtashi tufayli yuzaga keladigan foyda va boshqa moliyaviy yo'qotishlarni sug'urtalash.

Lloyd-O'zining moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqqan holda sug'urta risklarini o'z zimmasiga oluvchi xususiy shaxslarning birlashmasi, shtab-kvartirasi Londonda. Lloyd korporatsiyasi sug'urtalash ishini sug'urtalanuvchi va anderrayter o'rtasida vositachi bo'lgan brokerlar amalga oshiradi. Hozirgi paytda «Lloyd» ga 30 mingdan ortiq obunachi a'zo.

Dengiz sug'urtasida avariya-Kemaga yoki kema dagi yukka keltirilgan zarar. Dengiz sug'urtasida «avariya» tushunchasi deganda avariya fakti tushunilmaydi, balki dengizda yukni tashuvchi tomonlarga keltirilgan zararlar tushuniladi. Avariya umumiy va xususiy bo'lishi mumkin. Umumiy avariya kema va yuk o'rtasida taqsimlanadi. Xususiy avariya esa avariya harakatlari ma'lum bir tomonga tushadi, ya'ni avariya bo'lishga kim sababchi bo'lsa.

Autsayderlar-Sug'urta assotsiatsiyalari yoki monopolistik guruhlariga a'zo bo'lmagan sug'urta kompaniyalari, brokerlik firmalari.

Syurveyr-Sug'urtalovchi yoki sug'urtalanuvchi iltimosiga binoan sug'urta obektini tekshiruvchi, ko'ruvchi va u haqda xulosa beruvchi ekspert.

Sug'urta bonusi-Sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga sug'urta hodisasini oldini olganligi uchun sug'urta to'lovi (mukofoti)dan chegirma yoki pulning bir qismini qaytarish.

Kargo-Dengiz, havo, yer yuzi transportida tashilayotgan yuk yoki mulkni sug'urtalash.

Kasko-Transport vositasini o'zini sug'urtasi.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Sug'urtada maxsus atamalardan foydalanishning zarurligi nimada?

2. Sug'urtada foydalaniladigan atamalarni qanday turkumlash mumkin?

3. Sug'urtaning tashkiliy qirralarini ifodalovchi atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?

4. Sug'urta fondining shakllanishi bilan bog'liq atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?

5. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'langan atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?

6. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalardan qaysilarini bilasiz?

Mustaqil o'zlashtirish uchun test savollari

1. **Sug'urta fondini shakllantirish bilan bog'liq atamalarga quyidagilarning qaysi biri kiradi?**

A. sug'urtada baholash

B. sug'urta dalolatnomasi

C. sug'urta franshizasi

D. sug'urta munosabatlari

ura o'lehovidan pulga aylantiriladi.

– qiymati (Chorva mollariga nisbatan qo'laniladi).

– bahosida (eskirgan miqdorini chiqarib tashlab) binolar, mashinalar, transport vositalari.

– bahosida fuqarolarning turar joylari. Kadastr organlari tomonidan aniqlanadi.

– bahosi sug'urta tashkilotlari tomonidan qishloq va shahar joylarda hisoblangan imorat bahosi.

Sug'urta ta'minoti–Sug'urta ta'minoti – bu sug'urta hodisasi sodir bo'lganda mavjud belgilangan tartib asosida zararlarni hisoblash va bu asosda qoplama miqdorini belgilash usulidir. Amalda sug'urta ta'minotining 3 tizimi mavjud:

1. Sug'urta ta'minotining nisbiy (proporsional) tizimi.

2. Birinchi xavf tizimi.

3. Chegaralangan sug'urta ta'minoti.

Nisbiy tizimda sug'urtalanuvchi ko'rgan zararining hammasi emas, balki bir qismi, ya'ni sug'urta qilingan qismi to'lanadi, ya'ni zararining sug'urta bahosiga nisbatan nisbiy qismi belgilanadi. Masalan, savdo tashkiloti do'konidagi tovarlar 5000,0 ming so'mlik. Ulardan faqat 4000,0 ming so'mlik tovarlar (ya'ni 80 foiz) sug'urtalangan. Yong'in natijasida 2000,0 ming so'mlik mol yonib ketgan. Sug'urta ta'minoti 2000,0 ming so'mning 80 foizi, ya'ni 1600,0 ming so'mga teng. Qolgan 20 foizini savdo tashkilotining o'zi qoplaydi.

Birinchi xavf tizimida sug'urtalovchi kishi o'z mol-mulkining hammasini yoki bir qismini sug'urta qilishi mumkin. Ayrim hollarda zarar miqdori sug'urtalangan summasidan ortiq bo'lishi mumkin. Ana shu ortgan qismiga sug'urta ta'minoti berilmaydi, Masalan, uy-ro'zg'or buyumlarining qiymati 500000 so'm Mazkur anjomlarning 300000 so'mi sug'urtalangan. Lekin yong'in natijasida 400000 so'm zarar yetgan. Sug'urta ta'minoti 300000 so'mni tashkil qiladi va uni birinchi xavf deb ataladi. Qolgan 100000 so'mlik qismi sug'urta yo'li bilan qoplanmaydi. Uni ikkinchi xavf deb ataladi. Agar anjomlar 100 foiz miqdorida

sug'urtalanganda yetkazilgan zararlarining hammasiga 400000 so'm miqdorida qoplama berilar edi.

Chegaralangan sug'urta taminotida zararni hisoblash uchun mo'ljallangan hosil bilan haqiqiy olingan hosil o'rtasida farq topiladi. Olinishi mumkin bo'lgan hosil uch yillik o'rtacha hosil sifatida belgilanadi: Masalan, 3-yillik o'rtacha hosil 30 sentner. Haqiqiy hosil 25 sentner. Har gektarga ko'rilgan zarar 5 sentner, bir gektar bo'yicha zararni yuqoridagi ekinlarning umumiy maydoniga ko'paytirilsa, zararining natura miqdori kelib chiqadi. Sug'urta ta'minoti yo'li bilan ko'rilgan zararlar chegaralangan miqdorda qoplanadi:

Sug'urta summasi-bu sug'urta obektlarining qancha miqdorda (summaga) sug'urta qilinganidir. Majburiy sug'urtada sug'urta summasi sug'urta obektining hajmi va sug'urta tarifi asosida hisoblanadi. Yo'lovchilar ixtiyoriy sug'urtasida bu summa sug'urta tashkiloti tomonidan belgilanib, chipta bahosi tarkibiga kiritiladi.

Mulk sug'urtasida bu atama sug'urta ta'minotining pullik ifodasi hisoblanadi.

Sug'urta tarifi-Sug'urta summasi miqdoriga qarab hisoblanadigan badalning stavkasidir. Tarif miqdori asosan foiz yoki summa miqdorida belgilanadi. Maxsus adabiyotda bu stavka brutto tarif deb ataladi, u 2 qismga bo'linadi: 1. Netto tarif. 2. Yuklama. Netto tarifi asosida hisoblangan badal summasi zararlarini qoplashga sarflanadi. Yuklama hisobidan sug'urta bo'yicha boshqarish xarajatlariga mablag' ajratiladi. Sug'urta tarifi asosida sug'urta to'lovlari hisoblanadi, sug'urta to'lovlari bir yo'la yoki bo'lib to'lanishi mumkin.

Sug'urta muddati-Sug'urta obektlarining qancha vaqtga sug'urta qilingani. Ixtiyoriy mulkiy va shaxsiy sug'urtada sug'urta muddati - qancha vaqtga sug'urta qilingani shartnomada ko'rsatiladi, shunga qarab sug'urta to'lovlari hisoblanadi. Lekin sug'urta muddatidan uning amal qila boshlash muddatining boshlanishi tushunchalarini farq qilish kerak. Sug'urta

muddati sug'urta to'lovining birinchi badali to'langan davrdan boshlanadi.

Sug'urta Yoshi-Sug'urta yoshi deganda sug'urtalanuvchi fuqarolar yoki chorva mollarining yoshi (biologik kattaligi) ko'zda tutiladi. Har bir shaxsiy sug'urta obekti bo'yicha, masalan, fuqarolarning qaysi yoshidan boshlab qaysi yoshgacha sug'urta qilinishi, chorva mollarining qaysi yoshdan sug'urtalash boshlanishi ko'zda tutiladi. Qo'shimcha pensiya tayinlash bo'yicha sug'urta badallari har bir yosh bo'yicha ko'rsatiladi. Maktab o'quvchilarini sug'urtalashda ularni yoshlari emas, balki sug'urtalangan yili ko'zda tutiladi.

Sug'urta boqimandasi-Sug'urta badallarining to'lash muddatlari majburiy sug'urta bo'yicha yo'riqnomada, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatiladi. Agar badal belgilangan to'lov muddatida to'lanmasa, u holda to'lov boqimandaga aylanadi. Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lanmagan to'lov shartnomani bekor qilinishiga asos bo'ladi. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha to'lov muddatlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. To'langan kundan boshlab boqimanda tugatilgan hisoblanadi. Sug'urta tashkiloti hisob raqamiga bank muassasasi tomonidan mablag' o'tkazilgan kun boqimanda tugatilib, uning miqdori to'langan kun hisoblanadi, har bir o'z vaqtida to'lanmagan to'lov boqimandaga aylangandan keyin har bir kun uchun jarima hisoblanadi.

Sug'urta to'lovi-Sug'urta tarifi asosida hisoblangan sug'urta badali. Sug'urta to'lovi sug'urtalangan mol-mulkning xususiyati va egaligiga qarab bir yoki bir necha obekt bo'yicha hisoblanishi mumkin. Jamoa xo'jaliklarida sug'urta to'lovlari hosil, chorva mollari, imoratlar va boshqa mol-mulklar bo'yicha hisoblanib, ularning jami sug'urta to'lovining umumiy miqdorini tashkil qiladi. Agar bir hovlidagi turar joylarda bir necha kishi egalik qilsa, obektlarni hajmiga qarab sug'urta to'lovi taqsimlanadi. Sug'urta tashkilotlarining muhim vazifalaridan biri hisoblangan sug'urta to'lovlarini o'z vaqtida to'lanishini ta'min-

lash, ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urtalanganlarni muddatidan oldin ogohlantirilishidir.

4.3. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'langan atamalar.

Respublikamiz hududida har yili majburiy va ixtiyoriy sug'urta badallari hisobiga ulkan sug'urta fondlari shakllanadi. Bu fondlarning sarflanishi dastlab xavf-xatarga bog'liq. Agar sug'urta hodisalari ro'y bermasa, zararni qoplashga sarflanadigan mablag'lar kam miqdorni tashkil qiladi, agar yirik miqyoslarda sug'urta hodisalari sodir bo'lsa, yetkazilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta fondidan mablag' sarflashga to'g'ri keladi. Demak sug'urta fondi mablag'larini sarflash uchun ularni nimalar uchun foydalanish, mablag' ajratish uchun qanday hujjatlarni rasmiylashtirish, sug'urta hodisalarini ko'p yoki kamligiga qarab sug'urta samaradorligi haqida fikr yuritish uchun dastlab quyidagi atamalarni mazmuni bilan tanish bo'lish kerak:

- Sug'urta xavf-xatari
- Sug'urta hodisasi
- Sug'urta dalolatnomasi
- Sug'urta zarari
- Sug'urta rentasi
- Sug'urta qoplamasi

Sug'urta xavf-xatari-Xavf-xatar so'zidan bir qancha mazmun va ma'no kasb etadi. Bularning hammasi xavf-xatar va unga nisbatan javobgarlikni ifoda qiladi. Shu munosabat bilan uni xavf-xatarlarning to'plami, deb tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Bu tushuncha sug'urtalangan mulk, sug'urta hodisasi, sug'urta xavfi va boshqa tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Sug'urta hodisasi-Sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasi sodir bo'lishi. Bunday hod-

– deflyatsion;

– valyuta;

– likvidlik.

– Investitsion risklar quyidagilardan iborat:

– boy berilgan naf riski – bu qandaydir *amalni* (misol uchun, sug'urtalash, xedjirlash, investitsiya va sh.k.) bajarilmasligi natijasida bilvosita moliyaviy zarar (foйда ololmaslik)ga olib keluvchi risk;


– daromadlarni pasayish riski portfelli investitsiyalar, omonatlar va kreditlar bo'yicha foizlar va dividendlar hajmining kamayishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Daromadlilikni pasayish riski quyidagi xillardan iborat:

– foiz risklari – tijorat banklari, kredit muassasalari, investitsion institutlar tomonidan jalb qilingan mablag'lari bo'yicha to'layotgan foizlarining taqdim etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalaridan ko'tarilib ketishi natijasidagi yo'qotishlar xavfi.

– kredit riski – qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzini va tegishli foizlarni to'lanmaslik xavfi. Shuningdek kredit risklariga qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqargan emitentning ular bo'yicha foizlarni yoki asosiy qarz summasini to'lay olmaslik holatiga kelib qolish riski ham kiradi. Bevosita moliyaviy risklar quyidagi xillarga bo'linishi mumkin: birja riski, selektiv risk, bankrotlik riski hamda kredit riski.

Sug'urtada barcha risklar ikki guruhga bo'linadi: sug'urtaviy va nosug'urtaviy (sug'urta shartnomasiga kiritilmagan). **Sug'urtaviy risk** – bu sug'urta hodisasini ro'y berish ehtimolliги va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararning miqdoriy hajmi nuqtai nazaridan baholanishi mumkin.



1-rasm. Risklarning tasnifiy tizimi

Sug'urta riskining asosiy mezonlari:

– risk tasodifiy xarakter kasb etishi kerak, bunda sug'urta shartnomasida ishtirok etayotgan barcha tomonlarga sug'urta hodisasining ro'y berish aniq vaqti va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararning hajmi oldindan ma'lum emas;

– mazkur riskning namoyon bo'lish tasodifiyligini bir turdagi obektlar jamlamasi bilan solishtirish mumkin, ya'ni statistik kuzatuvlar olib borish kerak;

– riskni amalga oshishida aks etuvchi sug'urta hodisasining ro'y berishi sug'urtalanuvchi yoki boshqa manfaatdor shaxsning xohish-irodasi bilan bog'liq bo'lmasligi kerak;

– sug'urta hodisasining ro'y berishi davr va makonda ma'lum emas;

– riskni amalga oshish oqibatlarini pul ifodasida obektiv o'lchash va baholash imkoni mavjud.

Nosug'urtaviy risklar – bu risklar obektiv mavjud bo'ladi, ammo sug'urtalovchi mas'uliyati hajmiga qo'shib, ya'ni sug'urtaga qabul qilib bo'lmaydi.

Xavf-xatar manbalaridan kelib chiqib risklarni quyidagilarga bo'lish mumkin: tabiiy ofatlar (er qimirlashi, sel, do'l va b.) bilan bog'liq bo'lgan va insonning ongli xatti-harakati (o'g'irlik, talonchilik va boshqa g'ayri huquqiy xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek yuqorida sanab o'tilganlarning aralash risklari (misol uchun, mutaxassis-epidemiologning maqsadli harakati bilan yuzaga keluvchi epidemiyalar).

Sug'urtalovchining mas'uliyati hajmi bo'yicha risklar yakka tartibdagi (masalan, tasviriy san'at asarlarini tashish va ko'rgazmasi) va universal (masalan, muntazam uchrovchi mulkiy risk – o'g'irlik) turlarga bo'linadi.

Risklar natijasidagi yo'qotishlar turlariga quyidagilar kiradi: moddiy, moliyaviy, mehnat, vaqtli, obro'li (ishonch), ekologik yoki sog'likka ziyon etkazilishi.

5.4. Risklarni boshqarish va sug'urta.

Risklarni boshqarish o'zining mohiyati bo'yicha har qanday iqtisodiy tizim (jarayon)ning zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. Risk hajmi olinadigan daromad bilan bevosita proporsionaldir. Bundan ko'rinib turibdiki, har qanday xo'jalik yurituvchi subektning, tizimning faoliyatini samaradorligi to'latilgicha risklarni boshqarish jarayonini qanchalik samarali tashkil qilinganligiga bog'liq.

Riskni boshqarish (risk-menejment) – ko'p bosqichli jarayon bo'lib, uning maqsadi noqulay holatlar yuzaga kelganda obektning ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarini kamaytirish yoki kompensatsiyalash hisoblanadi.

Riskni boshqarishning quyidagi **asosiy bosqichlari** mavjud (2-rasm):

- risk obektining tahlili;
- riskni aniqlash;
- riskni baholash;
- riskka ta'sir etish usullarini aniqlash;
- qaror qabul qilish;
- riskka bevosita ta'sir o'tkazish;
- boshqarish jarayoni natijalarini nazorat va tahrir qilish.

Risk tahlili – boshlang'ich bosqich bo'lib, uning maqsadi obektning hozirgi vaqtdagi tarkibi, xususiyatlari haqida, kelajakda uning holatini o'zgarishi haqida zarur axborotlarni olish hisoblanadi.

Riskni aniqlash bosqichi obektning mavjud risklarini tavsifini, ya'ni ularning sifat jihatlari va ta'rifini nazarda tutadi.



2-rasm. Riskni boshqarish jarayonining umumiy sxemasi

Baholash – bu aniqlangan risklarning miqdoriy tavsiflarini aniqlash: ehtimolliigi va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar hajmi. Mazkur bosqichda noqulay holatlarning rivojlanish ssenariylari jamlamasi shakllanadi; zarar ko‘rish ehtimolliigini taqsimlash funksiyalari quriladi.

Aniqlash va baholash o‘zaro uzviy bog‘liq hisoblanadi va har doim ham ularni alohida mustaqil qismlarga ajratish imkoni bo‘lmaydi. Undan tashqari, riskni boshqarish jarayoni qarama-qarshi yo‘nalishda borishi ham mumkin: baholashdan aniqlashga, misol uchun, zarar ko‘rib bo‘lingadan keyin uning sabablarini aniqlashda.


Riskka ta‘sir etish usullarini tanlash bosqichida kelajakda ko‘rilishi muki bo‘lgan zararlarni minimallashtirish rejalash-

tiriladi. Buning uchun uni kamaytirishning turli uslub va usullari qo'llaniladi. Riskka ta'sir etish usullarini tanlash ularning samaradorligini solishtirish orqali, shu jumladan turli usullarning kompleks kombinatsiyalarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim

Riskka bevosita ta'sir etish bosqichi to'rtta asosiy usulardan tashkil topadi: istisno qilish, pasaytirish, saqlash va riskni o'tkazish (3-rasm).

Riskni istisno qilish deganda mazkur risk bilan bog'liq bo'lgan har qanday xatti-harakatlar va chora-tadbirlarni rad qilish tushuniladi.

Riskni pasaytirish - ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni yoki noqulay holatlarni ro'y berish ehtimolligini kamaytirishni bildiradi. Bu yo'nalishda oldini olish tadbirlari amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar deganda binolar va inshootlarning xavfsizlikni kuchaytiruvchi turli xildagi choralar, nazorat va ogohlantiruvchi tizimlarni, yong'inga qarshi qurilmalarni o'rnatish, ekstrimal holatlarda harakatlanish bo'yicha xodimlarni o'qitish va sh.k. tushuniladi.



3-rasm. Riskka ta'sir etish usullarining asosiy usullari

Iqtisodiy muhit risklarini pasaytirish uchun turli xildagi usullardan foydalaniladi:

– diversifikatsiya – mablag'larni (kapitalni) qo'yilmalarning turli obektlari bo'yicha, foydalanishning turli yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash jarayoni;

– qo'shimcha axborotlarga ega bo'lish;

– limitlashtirish – xarajatlar, sotuv, kredit va sh.k. limitini (chegarasini) o'rnatish.

Risklarni saqlash zararlarni kompensatsiyalashga yo'naltirilgan har qanday ta'sirlardan voz kechish yoki noqulay holatlar ro'y berganda zararlarni qoplashga mo'ljallangan maxsus rezerv fondlarini tashkil qilish (o'z-o'zini sug'urtalash). Riskka ta'sir etishning oxirgi usuli o'z-o'zini sug'urtalash nomini olgan. Risk saqlanishi holatida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarga yana zararlarni kompensatsiyalash va ishlab chiqarishni tiklash uchun kredit va qarzlarni olish, davlat dotatsiyalarini olish va b. kiradi.

Risklarni o'tkazish bo'yicha choralarga mavjud daraja saqlangan holda u uchun javobgarlikni uchinchi shaxslarga o'tkazish tushuniladi. Ularga ma'lum to'lov asosida riskni sug'urta kompaniyasiga o'tkazishni nazarda tutuvchi **sug'urtalash**, shuningdek turli xildagi moliyaviy kafolatlar, kafilliklar va b. kiradi. Riskni o'tkazish, shuningdek ko'zda tutilmagan holatlar ro'y berganda o'z javobgarligini kamaytiruvchi yoki riskni kontragentga o'tkazuvchi maxsus kelishuvlarni hujjatlar (shartnomalar, savdo bitimlari va b.) matniga kiritib qo'yish bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Aniq bir risklarga ta'sir qilishning optimal usullari tanlanidan so'ng korxonaning barcha risklari jamlanmasini boshqarish strategiyasini shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Bu bosqich **qaror qabul qilish** hisoblanib, unda talab qilinadigan moliyaviy va mehnat resurslari aniqlanadi, menejerlar o'rtasida vazifalarni aniqlash va taqsimlash amalga oshiriladi, tegishli xizmatlar bozori tahlil qilinadi, mutaxassislar bilan maslahatlar o'tkaziladi.

Risk-menejmentning yakunlovchi bosqichi olingan natijalarni hisobga olgan holda va yangi axborotlarning paydo bo'lishi bilan tanlangan strategiyani amalga oshirish natijalarini nazorat va tahrir qilish hisoblanadi. Nazorat menejmentlardan ko'rilgan zararlari, uni kamaytirish bo'yicha qo'llangan choralar, ularning amaliy samaralari haqida axborot olishdan iborat. Olingan natijalar tahlili va ishlovi muntazab o'tkazilib turilishi lozim.

Riskni boshqarish ko'plab rahbarlarda, avvalo, odatiy sug'urtalash bilan bog'lanadi. Haqiqatdan ham, **sug'urta** azaldan riskka ta'sir etishning dunyoda keng tarqalgan usullaridan hisoblanadi va hozirgi kunda ham shundayligicha qolmoqda. Bugungi kunda AQSh, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan yirik mamlakatlarda yillik sug'urta mukofotlarining to'lovlari yalpi ichki mahsulotining 7-9%ini tashkil qilmoqda. Horiqda inson faoliyatining deyarli barcha sohalari sug'urta bilan qamrab olingan: tibbiy sug'urta, hayot sug'urtasi, mulkiy sug'urta, yuklarni sug'urtalash, foyda sug'urtasi, bankrotlik sug'urtasi, fuqarolik javobgarligining har xil turlari. Hech bo'lmaganda sug'urtaning bitta turi amal qilmaydigan soha topilmaydi, undan tashqari sug'urtaning ko'plab turlari turli mamlakatlarda majburiy hisoblanadi.

Biroq, bozor iqtisodiyotiga yangi o'tgan mamlakatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham sug'urta bo'yicha holat quvonarli emas. *Bu shu bilan izohlanadiki, hali hanuz iqtisodiyotni markazlashgan holda boshqarish orqali noqulay holatlar ro'y berganda korxonalarni qo'llab-quvvatlash va aholiga yordam ko'rsatish uchun sarflanishga mo'ljallangan davlat rezervlarini shakllantirilishi tushunchasining mavjudligidir.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qo'llab-quvvatlashlari hajmi ko'm martaga qisqaradi. Korxonalarning o'zlari qiyinchilik holatlarida ko'riladigan zararlarni bartaraf etish mexanizmlarini yaratish "g'amini yeyishlari" kerak. Bu yerda sug'urta eng qulay va bozor nuqtai nazaridan mukammal bo'lgan mexanizmlardan hisoblanadi.

Mavzuni takrorlash uchun nazorat savollari

1. Sug'urtada risk tushunchasini izohlang.
2. Sug'urtadagi maxsus risklarni ayting va sharhlang.
3. Risklarning turkumlanishi deganda nima tushuniladi va ular qanday mezonlar bo'yicha turkumlanadi?
4. Riskni boshqarishning mazmuni nimadan iborat?
5. Riskni boshqarishda menejmentning roli va o'rnini tushuntiring.
6. Riskni boshqarish usullarini tushuntiring.
7. Riskni boshqarishda sug'urtaning ahamiyatini tushuntiring.

Mustaqil o'zlashtirish uchun test savollari

1. Amalda bo'lgan sug'urta shartnomasiga quyidagi qaysi holatlarda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin?

- A. o'zgartirishlar kiritilishi mumkin emas.
- B. sug'urta obyektining qiymati o'zgarganda.
- C. «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunda belgilangan tartibda.
- D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

2. Sug'urta shartnomasi o'z kuchini yo'qotadi:

- A. sug'urtalanuvchining tashabbusi bilan.
- B. sug'urtalovchining tashabbusi bilan.
- C. sug'urtalovchi sug'urtalanuvchi oldida to'liq o'z majburiyatini bajargandan so'ng.
- D. sug'urta shartnomasi hokimiyat qarori bilan o'z kuchini yo'qotadi.

3. Sug'urta hodisasi ro'y berishi tufayli ko'rilgan zarar qaysi hujjat asosida sug'urtalanuvchiga qoplanadi?

- A. sug'urta polisi asosida.
- B. sug'urta shartnomasi asosida.
- C. sug'urta dalolatnomasi asosida.
- D. sug'urta summasi asosida.

4. Qaysi holatlarda sug'urta shartnomasi bekor etilishi mumkin?

A. Sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalovchiga noto'g'ri ma'lumotlar berilgan taqdirda.

B. Sug'urta shartnomasida orfografik xatolar bo'lganda.

C. sug'urtalovchi ustav kapitali miqdorini oshirganda.

D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

5. Sug'urtalovchi shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini butunlay yoki qisman boshqa sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ga o'tkazishi nima deb ataladi?

A. qayta sug'urta qilish

B. sug'urta javobgarligi

C. birgalikda sug'urta qilish

D. to'g'ri javob keltirilmagan

6. Ikki yoki undan ortiq sug'urta tashkiloti ma'lum obyektни sug'urtalash yuzasidan bitta sug'urta shartnomasi tuzishga.... deyiladi.

A. birgalikda sug'urta qilish

B. qayta sug'urta qilish

C. sug'urta javobgarligi

D. to'g'ri javob keltirilmagan

7. Sug'urta munosabatlari tashkil etilganligiga guvohlik beruvchi hujjat nima deb ataladi.

A. sug'urta polisi

B. qayta sug'urta qilish

C. sug'urta javobgarligi

D. to'g'ri javob keltirilmagan

8. Sug'urta dalolatnomasi nima?

A. Sug'urta hodisasining sodir bo'lganligini va uning sabablarini tasdiqlab beruvchi rasmiy hujjat

- B. Sug'urta obyektlarining qancha vaqtga sug'urta qilingani
- C. Sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasi sodir bo'lishi
- D. to'g'ri javob keltirilmagan

9. Sug'urtada zarar deganda nimani tushunasiz?

- A. Sug'urta bahosida ishdan chiqqan yoki bir qismi zararlangan mulk bahosi
- B. Sug'urta hodisasining sodir bo'lganligini va uning sabablarini tasdiqlab beruvchi rasmiy hujjat
- C. Sug'urta xavf-xatarida ko'zda tutilgan favqulotda tasodiflardan birortasi sodir bo'lishi
- D. to'g'ri javob keltirilmagan

6-BOB. SUG'URTA FONDLARINI TASHKIL ETISH VA ULARNING SHAKLLANISHI

O'quv maqsadi: sug'urta fondlarini tashkil etish manbalari, ularni tashkil etish va foydalanish bilan bog'liq atamalar, fond mablag'larining ishlatilishi va sug'urta fondlarining turlarining nazariy va uslubiy asoslari hamda ularning amaliy jihatlarini o'rgatishdan iborat.

Tayanch iboralar: sug'urta himoyasi, sug'urta manfaatdorligi, sug'urta javobgarligi, qayta sug'urta qilish, o'zaro sug'urta qilish, sug'urta vakillari, sug'urta guvohnomasi, sug'urta qoplamasini oluvchi, sug'urtaviy baholash, sug'urta ta'minoti, sug'urta summasi, sug'urta tarifi, sug'urta muddati, sug'urta yoshi, sug'urta boqimandasi, sug'urta to'lovi, sug'urta xavf-xatari, sug'urta hodisasi, sug'urta dalolatnomasi, sug'urta zarari, sug'urta rentasi, sug'urta qoplamasi

6.1 Sug'urta fondlarini tashkil etish manbalari.

Sug'urta munosabatlarini o'rnatishda sug'urta fondlarini tashkil etish birlamchi zaruriyat hisoblanadi. Chunki, sug'urta-lovchining moliyasi sug'urta himoyasi bo'yicha xizmat ko'rsatish faoliyatini ta'minlaydi. Shu sababli sug'urtalovchi sug'urta fondi mablag'larini shakllantiradi va tashkil etilgan fond mablag'larini sug'urtalanuvchilar zararlarini qoplash, sug'urta ishini tashkil qilish bo'yicha xarajatlarini moliyalashtirishga sarflaydi. Bundan tashqari, bozor sharoitida, sug'urtalovchi sug'urta fondining bir qismi va o'z mablag'lari hisobidan investitsion faoliyat bilan ham shug'ullanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotining pul aylanishi xalq xo'jaligining boshqa

sohalari korxonalariga nisbatan ancha murakkabdir. Sug'urta tashkilotining pul aylanmasi ikki mustaqil pul oqimini o'z ichiga oladi: sug'urta himoyasini ta'minlovchi pul aylanmasi va sug'urta ishini tashkil qilish bilan bog'liq pul aylanmasi. Bunda sug'urta himoyasini ta'minlovchi pul aylanmasi ikki bosqichni bosib o'tadi: birinchi bosqichda sug'urta fondi shakllanadi va taqsimlanadi, ikkinchi bosqichda sug'urta fondi mablag'lari foyda olish maqsadida investitsiya qilinadi.

Sug'urta fondi sug'urta tarifi bo'yicha aniqlanadigan va manbasi sug'urtalanuvchilar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari hisoblanadi.

Kutilayotgan va haqiqatdagi zarar o'rtasidagi bo'lishi mumkin bo'lgan nomutanosiblik, avvalo, tarif tuzilishiga ma'lum talablarni qo'yadi: uning asosiy qismi (netto-stavka)ga haqiqiy zararni kutilganidan bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimolli farqini aks ettiruvchi tavakkal ustamasi qo'shiladi.

Sug'urtalovchi o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarib, olgan to'lovlarini tarifda ko'zda tutilgan turli maqsadli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlaydilar.

Sug'urtalovchi tomonidan tashkil qilingan sug'urta fondi o'zining majburiyatlarini bajarishga yetarli bo'lish ehtimoli qanchalik yuqori bo'lsa, sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Mablag'lar aylanishining tavakkal xarakteridagi sharoitlarda sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga ehtiyoj zararni qoplashni kengaytirishga asoslangan qayta sug'urtalash usulini vujudga keltirdi.

Bozor sharoitida sug'urta tashkilotlarining faoliyati o'z xarajatlarini qoplashnigina emas, balki foyda olishni ham ko'zda tutadi. Sug'urta tashkiloti sug'urta operatsiyalaridan katta foyda olishga intilmasligi lozim, aks holda bu bilan sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ekvivalentlik prinsipi buzilgan bo'ladi. Sug'urta tashkilotlarida «foyda» iborasi shartli qo'llaniladi, sug'urta tashkilotlari milliy daromad

yaratmaydilar, balki faqatgina uni qayta taqsimlashda ishtirok etadilar. Sug'urta operatsiyalaridan olingan **foyda** deganda shunday ijobiy moliyaviy natija tushuniladiki, unda sug'urta himoyasini ta'minlash bo'yicha daromadlar xarajatlardan ortiq bo'ladi.

Sug'urta tashkiloti uchun foyda olishning asosiy manbai bo'lib investitsion faoliyat hisoblanib, u sug'urta fondi mablag'larining bir qismini tijorat maqsadlarida foydalanish orqali amalga oshiriladi. Sug'urta faoliyatining maqsadi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatish, investitsion faoliyatning maqsadi esa, foyda olish bo'lishiga qaramasdan ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Bir tomondan, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbai sug'urta fondi hisoblansa, ikkinchi tomondan, investitsiya faoliyatidan olingan foyda sug'urta operatsiyalarini, zarar bilan ishlovchi sug'urta turlariga dotatsiyalar, kadrlar tayyorlash, yangi sug'urta turlarini ishlab chiqish va boshqalarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari ham alohida xo'jalik subektlari hisoblanar ekanlar, ular ham o'z xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan maxsus sug'urta va boshqa fondlarni shakllantiradilar, jumladan **nizom va amortizatsiya fondlari**. Aksionerlik sug'urta kompaniyalari nizom fondining egalari hisoblanadilar (ta'sischi tomonidan berilgan mulk, jumladan aksiyalarni sotishdan olingan daromadlar). Mamlakatimizda qabul qilingan tartib bo'yicha sug'urta tashkilotlari nizom fondining 20 % idan kam bo'lmagan **rezerv fondini** yillik sof foydaning 5 % idan kam bo'lmagan miqdordagi ajratmalar qilish orqali shakllantirishlari lozim.

Sug'urta tashkilotlari tizimi faoliyatida quyidagi fondlardan foydalaniladi:

- nizom fondi;
- amortizatsiya fondi;
- joriy tushumlar fondi;
- sug'urta turlari bo'yicha zahira fondlari tizimi;

– sug‘urtaning uzoq muddatli turlari bo‘yicha rezerv fondlari;

– oldini olish tadbirlarini moliyalashtirish fondi;

– mehnatga haq to‘lash fondi;

– iqtisodiy rag‘batlantirish fondlari (sug‘urtani rivojlantirish fondi va ijtimoiy-madaniy tadbirlar fondi).

Zahira fondlarni shakllantirishga zarurat sug‘urtaning xususiyatli belgilaridan biri bo‘lgan zararni vaqtlar bo‘yicha qoplash bilan asoslanadi. Sug‘urta hodisalarining to‘satdan ro‘y berishi sug‘urtalovchining mablag‘larini noqulay davrlarda zarar ko‘rgan xo‘jaliklarga yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun qulay davrlarda jamg‘arishni talab etadi.

Zahira fondlarini shakllantirishdan maqsad sug‘urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligining ta‘minoti hisoblanadi, shakllantirish manbai esa – barcha to‘lovlar tushumlar bo‘yicha netto-stavkaning ishlatilmagan qismi hisoblanadi, vaholanki sug‘urta qoplamalari va sug‘urta summalarini to‘lashga qoplamalar sug‘urta xizmatining bahosi – tarif - aynan netto-stavka mo‘ljallangan. Joriy qulay yilda bevosita maqsad yo‘nalishida sarflanmagan to‘lovlarning netto-stavka qoldiqlari yildan-yilga sug‘urtalovchining sug‘urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini bajarishga joriy to‘lov tushumlari yetmaydigan noqulay yil kelguncha jamg‘arilib boradi.

Zahira fondlarining zaruriy hajmi sug‘urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning obektiv talablari bilan asoslanadi. Bundan kelib chiqib, qayta sug‘urtalash sug‘urta portfelini moliyaviy barqarorligini oshirish va tavakkalchiliklarni tenglashtirish imkonini beradi, uni qo‘llash zahira fondlari hajmini sezilarli kamaytirish imkonini beradi. Qayta sug‘urtalash qanchalik kuchli rivojlangan bo‘lsa, sug‘urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligini shunchalik kam zahira fondlari bilan ta‘minlash mumkin.

Sug‘urtaning uzoq muddatli turlari bo‘yicha zahira fondlari muhim xarakter kasb etadi. Sug‘urtaning uzoq muddatli

turlarida badallarning asosiy qismi sug'urta shartnomasi muddati tugagandan so'ng to'lanish uchun uzoq davr davomida jamg'arilib boradi. Shu sababli sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha zahira fondlarini badal (to'lov) rezervlari deyiladi. Badal rezervlarining asosiy shakllanish manbalari netto-stavkanning jamg'arma elementi hamda investitsiya faoliyatidan olingan foyda hisoblanadi.

Uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha badallar rezervi sug'urtalovchining investitsion faoliyatini moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Bu ularni uzoq muddat va katta hajmda saqlanishi bilan asoslanadi. Badallar rezervi mablag'laridan tijorat maqsadlarida keng foydalanish sug'urtalovchiga kelasi davr daromadlarini, tarif stavkasini kalkulyatsiya qilishda hisobga olish yo'li bilan sug'urta badallarini pasaytirish imkonini beradi.

6.2. Sug'urta fondlaridagi mablag'larning ishlatilishi.

Sug'urta fondlaridagi mablag'larning ishlatilishi **deganda sug'urtalovchining amalda sarflayotgan xarajatlari** tushuniladi. Chunki, **sug'urtalovchining amalda sarflayotgan xarajatlari** sug'urta fondini taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xarajatlar tarkibi va strukturasi ikki o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlar: sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni qoplash va sug'urta tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish aniqlab beradi. Shundan kelib chiqib, sug'urta ishida xarajatlarni quyidagicha turkumlash qabul qilingan: sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lash xarajatlari; zahira va rezerv fondlariga ajratmalar; oldini olish tadbirlariga ajratmalar; ish yuritish xarajatlari. Bu xarajatlar birgalikda sug'urta operatsiyalarining tannarxini bildiradi.

O'z salmog'i va ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi ahamiyati bo'yicha sug'urtalovchi xarajatlarining asosiy moddasini sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lash xarajatlari

tashkil qiladi. To'lov paytida sug'urtalovchining sug'urtalanuvchi oldida shartnoma tuzish paytida olgan yoki qonun asosidagi (majburiy sug'urta bo'yicha) majburiyatlarini bajarilishi ro'y beradi.

Zahira fondlari yoki badal rezervlariga ajratmalar sug'urta ishida kelasi davr xarajatlarining o'ziga xos bir variantini bildiradi. Ular sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarining me'yoriy va haqiqatdagi kattaliklari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Sug'urtalanuvchi xarajatlarining boshqa elementlari singari **oldini olish tadbirlariga ajratmalar** ham tarif stakasi tuzilishida me'yorlashtirilgan. Davlat sug'urta boshqarmasi amal qilgan davrlarda oldini olish tadbirlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan mablag'lar budjetga yo'naltirilgan. Endi bu mablag'lar sug'urta tashkilotlarining o'zlarida bo'lmokda.

Sug'urta ishida **ish yuritish xarajatlari** muhim rol o'ynaydi. Ular sug'urtalovchilar faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, brutto-stavkaning yuklamasiga kiritiladi va sug'urta operatsiyalari tannarxining muhim elementi hisoblanadi. O'z tarkibiga mehnatga haq to'lash xarajatlari, xo'jalik va idora xarajatlari, xizmat safarlari va ba'zi boshqa xarajatlarni oladi.

Jahon amaliyotida ish yuritish xarajatlari *akvizitsion, inkassa, bartaraf (likvidatsiya) qilish va boshqaruv xarajatlariga* bo'linadi.

Akvizitsion xarajatlar yangi sug'urta shartnomalarini tuzish maqsadida amalga oshiriladi. Ularga akvizitsion komissiya, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va boshqa xarajatlar kiradi. Akvizitsion xarajatlar yangi sug'urta turlari joriy qilinib qo'llanilayotganda tez o'sib boradi.

Inkassa xarajatlari – bu sug'urta tashkiloti xodimlarining sug'urta to'lovlari yig'ganlik va sug'urtalanuvchilarga xizmat ko'rsatganliklari uchun mehnatiga haq to'lash xarajatlari. Inkassa xarajatlari brutto-stavkadan komission tamoyillarda foizlar bo'yicha hisoblanadi.

Bartaraf (likvidatsiya) qilish xarajatlari odatda bevosita xarajat hisoblanadi va sug'urta hodisasi ro'y bergandan so'ng amalga oshiriladi. Boshqa bevosita xarajatlar singari ular konkret sug'urta turiga tegishli bo'ladi. Bunday xarajatlar tarkibiga mazkur holat bilan bog'liq bartaraf qiluvchi va ekspertni sug'urta hodisasi ro'y bergan joyga borish-kelish yo'l xarajatlari, ekspertlarni rag'batlantirish xarajatlari, sud xarajatlari va boshqalar kiradi.

Boshqaruv xarajatlari o'z tarkibiga sug'urta tashkilotining ma'muriy-boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlari, ma'muriy-xo'jalik xarajatlari va sug'urtani rivojlantirish xarajatlarini oladi.

6.3. Sug'urta fondlarining turlari.

Sug'urta fondlarining turlarini tavsiflashda sug'urta munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, sug'urta fondlari sug'urta zahiralari asosida shakllanadi. Shu sababli sug'urta fondlari turlarini sug'urta zahiralari turlari bo'yicha tasniflash mumkin:

– o'z belgilangan muddatiga ko'ra, sug'urta xizmatini ko'rsatish uchun olingan sug'urta mukofotlari - zaxira sifatida. Shartnoma shartlari bo'yicha u sug'urtachi hisobiga o'tkazilgan bo'lsada, unga muvofiq ravishdagi xizmat hali ko'rsatilmagan bo'lib, bu summaning bir qismi «hali ishlab topilmagan» hisoblanadi. Sug'urta mukofoti «ishlab topilgani»dan so'ng, uning bir qismi ogoh etish zaxirasiga o'tkaziladi, ular belgilangan tartibda daromad(foйда) solig'iga tortiladi.

– zararlarni qoplash zaxiralari. Uning hajmi potensial to'lovlar hamda 3 foiz atrofidagi tadbirlarni olib borish uchun ajratilgan xarajatlar summasidan iborat bo'ladi. Sug'urta holatiga ko'ra, sug'urtalanuvchining arizasiga binoan, sug'urtachi zaxiradan qoplama summasini to'lash uchun tayyorlaydi, ammo ko'rilgan zarar sabablarini aniqlashtirish natijasida sug'urta-

lanuvchining aybi bilan sug'urta hodisasi yuz bergan bo'lsa, qoplama to'lanmasligi ham mumkin.

– ogoh etuvchi tadbirlar uchun zaxira. Bu zaxira maqsadli bo'lib, uni xarajat qilish maxsus vakolatli Davlat organi tomonidan ishlab chiqilgan nizomga ko'ra amalga oshiriladi. Mazkur tadbirlar sug'urtalanuvchi bilan kelishilgan holda olib boriladi. Bu tadbir sug'urtalanuvchi tomonidan bajariladi, sug'urtachi esa uni moliyalashtiradi xolos.

Zaxiralarning yana boshqa turlari ham mavjuddir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urtalash, o'zaro sug'urtalash va qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirishda, boshqa iqtisodiy faoliyatdan farqli ravishda, sug'urta xizmati o'ziga xoslikka egadir¹.

Har bir shartnoma bo'yicha sug'urta xizmati tannarxini aniqlash imkoniyati cheklangan. Negaki, sug'urta tashkiloti o'z faoliyatining moliyaviy natijalarini har bir shartnomaga ko'ra emas, balki jami sug'urta turlari bo'yicha amalda bo'lgan barcha shartnomalarning umumiy summasiga asoslanib aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka binonan, sug'urta tashkilotlari tomonidan bir vaqtning o'zida hayot sug'urtasi va umumiy sug'urtani amalga oshirishlari, xuddi xalqaro amaliyotda bo'lgani kabi, man etilgan². Sug'urta shartnomasi shartlarida qayd etilgan sug'urta hodisasi yuz berishi oqibatida ko'rilgan zarar qoplanishi shart. Buning uchun sug'urta tashkiloti maqsadli zaxira mablag'laridan foydalanadi.

Yuqorida bayon etilgan sug'urtaning nazariy-uslubiy asoslaridan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, sug'urtachining asosiy maqsadi aynan zaxira mablag'laridan samarali foydalinishi orqali daromad olishga qaratilgandir.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 914, 929, 930, 939, 941, 959, 960-moddalar. T.: Adolat, 1996 y. 408-433 betlar.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati»gi Qonuni, 15-modda.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda sug'urtaning tub ma'noda tadbirkorlik faoliyatiga aylanishi uchun quyidagi ma'lum shartlar bajarilishi talab etiladi:

– birinchidan, sug'urta faoliyati bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan tashkilot sug'urta xizmatini ko'rsatishi hamda raqobatli muhitda muvaffaqiyatli ishlashi uchun o'z moliyaviy barqarorligini mustahkamlashi, filiallar tarmog'ini kengaytirishi;

– ikkinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urta zaxirasini shakllantirish jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishi, ayni vaqtda ular tomonidan sug'urta xizmatiga talabning ham yuqori bo'lishiga erishishi;

– uchinchidan, turli mulkchilik shaklidagi iqtisodiyot sub'ektlar, xususan, davlat (budjet mablag'larini jalb etmagan holda) ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) jarayonida yuz berishi ehtimol bo'lgan risklar bo'yicha, kutilmagan zarar va yo'qotishlarni qoplash mexanizmi sifatida sug'urta faoliyati rivojlanishidan manfaatdor bo'lishi kabilar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, sug'urtaga bo'lgan talabga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholining tabiiy ehtiyojlari sifatida qaramaslik lozim. Bizga ma'lumki, tabiiy ehtiyojlar to'g'ridan-to'g'ri anglaniladi hamda har bir sub'ekt ularni o'zi uchun namoyon etib, bunday ehtiyojlarini qoniqtirishga harakat qiladi.

Sug'urta va uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish shuni ko'rsatmoqdaki, boshqa sub'ektlar bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda, ularning ishtirokchilari ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish) jarayonidagi iqtisodiy-huquqiy va boshqa qator majburiyatlarni o'z zimmalariga oladi. Bu mas'uliyat esa, sub'ektning o'z mulki yoki mulkchilikdagi hissasi bo'yicha ko'rishi ehtimol bo'lgan risk mavjudligidan kelib chiqib, ularning sug'urta faoliyatiga bo'lgan talabini yuzaga keltiradi. Shuningdek, iqtisodiy, texnologik, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning murakkablashuvi zahirida qo'shimcha risklar ham namoyon bo'ladi.

Sug'urta risklarining hududlarga ko'ra, kengligi, davriyligi va xilma-xilligi, shuningdek, ularni oldini olish hamda qoplash sarf-xarajatlarining o'sib borayotganligi ham sug'urtaning ahamiyatini yanada oshirib, unga bo'lgan talabni orttiradi. Aynan shunday talabning mavjudligi sug'urta faoliyati natijasi foydali bo'lishi va uning istiqboldagi rivoji uchun zaruriy shart-sharoitni yuzaga keltiradi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Sug'urta fondlari deganda nimani tushunasiz?
2. Sug'urta fondlarini shakllantirishdan maqsad nimaga qaratilgan?
3. Sug'urtada maxsus atamalardan foydalanishning zarurligi nimada?
4. Sug'urtada foydalaniladigan atamalarni qanday turkumlash mumkin?
5. Sug'urta fondlarini shakllantirish bilan bog'liq qanday atamalarni bilasiz?
6. Sug'urta fondlarining mablag'lari qaysi yo'nalishlarda foydalaniladi?
7. Sug'urta fondlarining qanday turlarini bilasiz?
8. Sug'urtaning tub ma'noda tadbirkorlik faoliyatiga aylanishi uchun qanday shartlar bajarilishi talab etiladi?
9. Sug'urta fondining shakllanishi bilan bog'liq atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?
10. Sug'urta mablag'larining sarflanishi bilan bog'langan atamalar tarkibiga qaysilar kiradi?
11. Amaliyotda qo'llaniladigan xorijiy atamalardan qaysilarini bilasiz?

Mustaqil o'zlashtirish uchun test savollari

1. Sug'urtada syurveri nima faoliyat bilan shug'ullanadi?

- A) Vositachilik faoliyati
- B) Sug'urta hodisalarini baholash
- C) Xizmat ko'rsatish
- D) Sug'urtalash

2. Sug'urtada assistans nima xizmati nima ?

- A) Sug'urtalash
- B) Vositachilik
- C) Sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarga texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko'rsatish.
- D) Ekspert xulosasi berish

3. Sug'urtada aktuar xizmatlar nima demak?

- A) Vositachilik
- B) Sug'urta xodisasini ekspert qilish
- C) Sug'urta xodisasi yuz berishini matematik jixatdan muqarrarligi xisobini amalga oshirish.
- D) Vositachilik

4. Sug'urta brokeri kimni topshirig'iga ko'ra ish ko'radi?

- A) Sug'urta kompaniyasining
- B) Sug'urtalanuvchining
- C) Ichki ishlar organining
- D) Davlat sug'urta nazorati organining

5. Sug'urta agenti kimning topshirig'iga ko'ra ish ko'radi.

- A) Sug'urtalanuvchining
- B) Sug'urta kompaniyasining
- C) Ichki ishlar organining
- D) vositachilik

6. Sug'urta syurveveri nima faoliyat bilan shug'ullandi?

A) Vositachilik

B) Sug'urta shartnomasi tuzulgungacha sug'urta obektini ko'zdan kechirish va ekspert xulosasisini berish

C) Kreditlash

D) Sug'urtalash

7. Birgalikda sug'urta nima?

A) Qayta sug'urta

B) Bir sug'urta kompaniyasining bir necha obyektni sug'urtalash

C) Bir sug'urta obyektni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyasi sug'urtalashi

D) Bir kompaniya bir shartnoma bilan bir necha riskni sug'urtalash

7-BOB. SUG'URTANI KLASSIFIKATSIYALASH

O'quv maqsadi: Sug'urta munosabatlarida klassifikatsiya tushunchasi va uning sug'urta sohasidagi ahamiyati, sug'urta munosabatlarini tarmoqlar va notarmoq bo'yicha klassifikatsiyalash, sug'urta klassifikatsiyasi, Evropa Ittifoqida sug'urta klassifikatsiyasi haqida nazariy bilimlar berish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch iboralar: shaxsiy sug'urta; mulkiy sug'urta; javobgarlik sug'urtasi, itavakkalchilik sug'urtasi, ixtiyoriy sug'urta; majburiy sug'urta; sug'urta klassifikatsiyasi.

7.1. Klassifikatsiya tushunchasi va uning sug'urta sohasidagi ahamiyati.

Sug'urta ixtisoslashtirilgan sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'lishi mumkin. Ularning faoliyat doirasi ichki, tashqi yoki aralash sug'urta bozorlarini qamrab olgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga rivojlangan sug'urta bozori sharoitida ham davlat ichkarisida, ham chetda amalga oshirilishi mumkin. Bu sug'urtaning tashkiliy turkumlanishidir. Ammo, sug'urta munosabatlarining mazmuni sug'urta obyektini va xavf-xatar turlari bo'yicha turkumlanishi yordamida namoyon bo'ladi.

Sug'urta sug'urtalanuvchilarning turli toifalarini qamrab oladi. Uning shartlari sug'urta mas'uliyatining hajmlari bo'yicha farq qiladi; u qonun kuchida va ixtiyoriy ravishda amalga oshirilishi mumkin. Sug'urta munosabatlarining turlichaligini tartibga solish va o'zaro bog'liq yagona tizimni shakllantirish uchun

sug'urtani turkumlash ya'ni klassifikatsiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aynan sug'urtani klassifikatsiyalash sug'urtaning mohiyatini to'laqonli namoyon qilish, u bo'yicha maqsad va manfaatlarni yetarlicha aks ettirish imkonini beradi.

Sug'urta klassifikatsiyasi sug'urtani obyektlari bo'yicha turkumlashga xizmat qiladi. Sug'urtani obyektlari bo'yicha turkumlanishi natijasida bo'g'inlar hosil bo'ladi. Barcha bo'g'inlar shunday joylashganki, har bir navbatdagi bo'g'in avvalgisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Yuqori bo'g'in sifatida – **soha**, o'rta bo'g'in – **tarmoq**, quyi bo'g'in – **sug'urta turlari** hisoblanadi.

Sug'urtani tarmoqlar bo'yicha bo'lish barcha sug'urta munosabatlari yig'indisini to'rtta sohaga ajratib o'rganish imkonini beradi:

Shaxsiy sug'urta - fuqarolarning hayot darajasining sug'urtasi hisoblanib, u ikkita tarmoqqa ega: **ishchilar, xizmatchilar** va **jamoat xo'jaliklari a'zolarining ijtimoiy sug'urtasi** hamda fuqarolar shaxsiy sug'urtasi.

U asosan ikki tarmoqdan-hayot sug'urtasi va baxtsiz xodisalar *qilinadigan* sug'urta bo'limlaridan iborat. Sug'urta munosabatlari sug'urta xillari bo'yicha mujassamlashtiriladi. Hayot sug'urtasi bo'yicha xayotni aralash sug'urta, bolalar sug'urtasi kabi sug'urta xillari mavjud. Baxtsiz xodisalar bo'yicha tarmoq bo'limlariga yo'lovchilarni shuningdek maktab o'quvchilarini sug'urtalash ishchi va xizmatchilarni esa korxonalar hisobidan sug'urta qilish va boshqalar kiradi.

Mulkiy sug'urtada obyekt bo'lib moddiy qiymatliklar hisoblanadi. Fuqarolar hayot darajasi sug'urtasida – ularning hayoti, sog'ligi, mehnatga layoqati; javobgarlik sug'urtasida obyekt bo'lib sug'urtalanuvchilarning turli javobgarliklari, mas'uliyatlari, majburiyatlari hisoblanadi; tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida esa, obyekt vazifasini tadbirkorlik ishlari bo'yicha turli tavakkalchiliklar bajaradi.

Biroq, sug'urtani yuqorida sanab o'tilgan sohalarga bo'linishi korxonalar, tashkilotlar va fuqarolarning sug'urtani amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi aniq sug'urta manfaatlarini ochib bera olmaydi. Bu manfaatlarni aniqlashtirish maqsadida sug'urta sohalarini sug'urta tarmoqlari va turlariga bo'lish zarur.

Mulkiy sug'urta mulkchilik shakli va sug'urtalanuvchilar toifalaridan kelib chiqib, bir nechta tarmoqlarga bo'linadi: davlat korxonalari mulki sug'urtasi, jamoa xo'jaliklari, ijarachilar, shirkatlar, xissadorlik jamiyatlari va jamoatchilik tashkilotlari mulki sug'urtasi hamda fuqarolar mulki sug'urtasi.

Javobgarlik sug'urtasi esa quyidagi tarmoqlarga ega: qarz sug'urtasi hamda yetkazilgan zararni qoplash sug'urtasi. Bu fuqarolik javobgarligi sug'urtasi ham deb yuritiladi.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasida ikkita tarmoq mavjud: daromadlarni bevosita hamda bilvosita yo'qotilish tavakkalchiliklari sug'urtasi.

Sug'urtalanuvchilarni sug'urtalovchilar bilan sug'urta munosabatlariga kirishi va sug'urtalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida sug'urta tarmoqlarini konkret sug'urta turlariga bo'lish zarurati paydo bo'ladi.

Mulkiy sug'urtaning bunday konkret turlariga qurilmalar, chorva hayvonlari, ro'zg'or buyumlari, transport vositalari, qishloq xo'jalik ekinlari hosili va boshqa turli xo'jalik kategoriyalari sug'urtasi misol bo'la oladi.

Ijtimoiy sug'urtaning konkret turlariga pensiya va turli nafaqalar sug'urtasi kiradi.

Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urtaning quyidagi turlari amalga oshiriladi: hayotni aralash sug'urtasi, o'lim holati va mehnatga layoqatini yo'qotishdan sug'urtalash, bolalar sug'urtasi, qo'shimcha pensiya sug'urtasi, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va boshqalar.

Javobgarlik sug'urtasi bo'yicha – kreditni yoki boshqa qarzlarni qaytara olmaslikdan sug'urtalash, yuqori xavf-xatar

manbalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, xo'jalik faoliyati jarayonida zarar yetkazish holati bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtasi va boshqalar.

Tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasi dastgoxlarni to'xtab qolishi, savdodagi to'xtalishlar natijasida zarar qurish yoki foyda ololmaslik sug'urtasi, yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash tavakkalchiliklari sug'urtasi va boshqa turlarga bo'linadi.

Sug'urta sohalari va klasslari

O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi yangi qonunchiligida sug'urta sohalari va turlariga ham tushuntirishlar berib o'tilgan. Unga ko'ra sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining 1-ilovasida sug'urta faoliyatining klassifikatori berilgan bo'lib, unga muvofiq hayotni sug'urta qilish sohasi 4 ta klassga va umumiy sug'urta sohasi 17 ta klassga ajratilgan.

**Hayotni sug'urta qilish sohasi o'z tarkibiga quyidagi
klasslarni oladi:**

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
I klass	Hayot va annuitetlar	Quyidagi hollarda sug'urta summolari to'lash bo'yicha sug'urtalovchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi hayotni sug'urta qilish turlari jami: - sug'urta qilinuvchining sug'urta muddati <i>tamom bo'lgungacha</i> yoki sug'urta shartnomasida belgilangan yoshgacha yashashi; - sug'urta qilinuvchining vafot etishi; shuningdek sug'urta shartnomasi amal qilishi davridagi joriy to'lovlar (annuitetlar). III klass bundan mustasno
II klass	Nikoh va tug'ilish	Nikohga kirishda yoki bola tug'ilganda sug'urta summasi to'lanishini ta'minlovchi, bir yildan ortiq muddatga amal qiluvchi <i>hayotni sug'urta qilish turlari jami</i>
III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish	<i>Umrbod renta to'lanishi bilan birgalikda</i> hayotni sug'urta qilish turlari jami
IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish	Ko'rsatib o'tilgan sug'urta davri kamida besh yildan kam bo'lmagan muddatga yoki sug'urta qilinuvchining pensiya yoshiga yetguniga qadar belgilanishi sharti bilan baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa yoki kasallik yoki kasallanish tufayli qattiq shikastlanish natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotganda sug'urta <i>summolari to'lanishini ta'minlovchi hayotni sug'urta qilish turlari jami</i> . Bunda shartnomada ko'rsatilgan sug'urta davri sug'urtalovchi tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas

**Umumiy sug'urta sohasi esa quyidagi klasslardan
tashkil topadi:**

Klass tartib raqami	Klassning nomi	Mazmuni va sug'urta qilish shartlari bo'yicha talablar
1-klass	Baxtsiz hodisal- ar-dan ehtiyot shart sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sog'liqning qattiq shikastlanishi, yoxud; b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud; v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass bo'yicha sug'urta shartnomalarini istisno qilgan holda, sug'urta qilingan shaxsga sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
2-klass	Kasallik- dan ehtiyot shart sug'urta qilish	Sug'urta ta'minotining belgilab qo'yilgan pul summasi to'lanishini yoki kasallik yoki sog'liqning izdan chiqishi munosabati bilan sug'urta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni ta'minlovchi sug'urta turlari jami, biroq hayotni sug'urta qilish tarmoqlarining IV klassi bo'yicha shartnomalarni istisno qilgan holda
3-klass	Yer usti transport vositalarni sug'urta qilish	Transport vositalari, o'zi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yo'l tarkibi bundan mustasno, yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
4-klass	Harakat- lanadigan temir yo'l tarkibini sug'urta qilish	Harakatlanadigan temir yo'l tarkibi yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami

5-klass	Aviatsiya sug'urtasi	Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
6-klass	Dengiz sug'urtasi	Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish	Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish	Yong'in, portlash, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, yemirilish, yer osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi ta'siri natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilganlar bundan mustasno) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	8-klassda ko'rsatilmagan do'l, qalin qor yog'ishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda ko'rsatilgandan boshqa) yo'qotilganda yoki shikastlanganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urtaning turlari jami
10-klass	Avto-fuqa-rolik javobgarligini sug'urta qilish	Yer usti transport vositalari va boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlardan foydalanish oqibatida, tashuvchilarning javobgarligi ham shu jumla kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
11-klass	Aviatsiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish	Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumla kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish	Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish	10, 11 va 12-klasslarda ko'rsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo bo'lgan taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
14-klass	Kreditlar-ni sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
15-klass	Kafillikni (kafolat-larni) sug'urta qilish	Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish	Quyidagi hollarda: a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda; b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari); v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgar-chiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami

17-klass	Huquqiy himoya qi-lish bilan bog'liq xarajatlar-ni sug'urta qilish	Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlarni natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlari jami
----------	--	--

Sug'urta munosabatlarini notarmoq klassifikatsiyasi: ixtiyoriy sug'urta; majburiy sug'urta; majburiy davlat sug'urtasi.

Turkumlanishning barcha bo'g'inlari sug'urtani amalga oshirish shakllarini qamrab oladi, ya'ni majburiy va ixtiyoriy.

Tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra amalga oshiriladigan sug'urta ixtiyoriy sug'urta hisoblanadi.

Ixtiyoriy sug'urtaning shartlari tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining huquqlari hamda burchlari, shuningdek, har bir sug'urta turining aniq shartlari tegishli sug'urta shartnomalari bilan belgilab quyiladi.

Ixtiyoriy sug'urta turlarining umumiy shartlari va uni amalga oshirishning tartiblari sug'urta qoidalarida o'z aksini topadi. Ixtiyoriy sug'urta turlarining qoidalari sug'urtalovchilar tomonidan qonunchilik talablariga muvofiq tarzda mustaqil ishlab chiqiladi hamda sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini olish uchun sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qiluvchi organdan litsensiya olish paytida kelishilini.

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq majburiy sug'urta amalga oshiriladi. Majburiy sug'urta turlari, shartlari va uni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqiga davlat sug'urta tashkilotlari ega bo'lib kelganlar, biroq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish

chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ustav kapitali hajmini 500 ming AQSh dollariga teng miqdorga yetkazgan har qanday sug'urta kompaniyasi litsenziya asosida majburiy sug'urta bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ldilar (2010 yil 1 yanvardan 1500 ming yevro ekvivalent summada). Shu bilan birga sug'urta tashkilotlari majburiy sug'urta qilinishi lozim bo'lgan obyektlarning but saqlanishi ustidan nazorat o'rnatishga haqlidirlar.

Majburiy sug'urta sug'urta bo'lgan ijtimoiy (umumdavlat) talabni aks ettiradi. Davlat qonunchilik asosida ushbu maqsadlar uchun sug'urtaning majburiylikini o'rnatadi. Buning natijasi o'laroq, tegishli majburiy sug'urta turi haqidagi qonun qabul qilinadi. Shunday qilib, majburiy sug'urta – qonun kuchidagi sug'urtadir.

Majburiy sug'urta, sug'urtani tashkil etish shakli sifatida, umumiylik sifatidagi muhim xususiyatga egadir. Majburiy sug'urtaning obyekti hayot, sog'lik, mol-mulk, fuqarolik javobgarligi bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlar hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan majburiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi: yo'lovchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; parvozlarda qatnashuvchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; harbiylarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; ko'mir, neft, gaz konlarida ishlovchilarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; soliq organlari xodimlarining davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; temir yul texnika xizmat ko'rsatuvchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi; transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi; auditorlarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi; notari-uslarning fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi va boshqalar.

Majburiy sug'urtani ajratib turuvchi tamoyillar quyidagilar.

Majburiy sug'urta qonun yo'li bilan o'rnatiladi. Shunga mos ravishda sug'urta qildiruvchi tegishli obyektlarni sug'urta-

lashga, sug'urtalovchilar esa, sug'urta hodisalari ro'y berganda tegishli sug'urta to'lovlarini to'lashga majburdirlar.

Qonunchilik odatda quyidagilarni belgilab beradi:

- majburiy sug'urtalanishi lozim bo'lgan obyektlar tarkibini;
- sug'urta javobgarligi hajmini;
- sug'urta ta'minoti darajasi va me'yorlarini;
- tarif stavkalari miqdorlari va ularni o'rnatish tartibini;
- sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilarning asosiy huquq va majburiyatlarini.

Qonunda ko'rsatilgan majburiy sug'urta obyektlarini yoppasiga sug'urtaga qamrab olish. Buning uchun sug'urta organlari mamlakatda har yili sug'urtalangan obyektlarni, hisoblangan sug'urta badallarini va ularni o'rnatilgan muddatlarda undirilishini hisobga olib boradilar.

Qonunda ko'rsatilgan obyektlarga majburiy sug'urtaning avtomatik ravishda qo'llanilishi. Sug'urtalanuvchi yangi obyekt paydo bo'lganligi haqida sug'urta organlariga xabar berishi shart emas. Bu obyekt sug'urta sohasiga avtomatik ravishda qo'shiladi. Navbatdagi ro'yxatga olish davrida hisobga olinadi va sug'urtalanuvchiga to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta badallari ko'rsatiladi.

Majburiy sug'urtani sug'urta badallari to'lanishidan qat'iy nazar amal qilishi. Agarda sug'urta qildiruvchi tegishli sug'urta badallarini to'lamagan hollarda, badallar sud orqali undirib olinishi mumkin. Sug'urta badallari to'lanmagan obyektga nisbatan sug'urta javobgarligi amal qilaveradi, faqatgina sug'urta badallari bo'yicha qarz va kechiktirilgan kunlar uchun jarima summasi ushlab qolinadi.

Majburiy sug'urtaning muddatsizligi. Majburiy sug'urta sug'urtalangan obyekt mavjud bo'lgan davrning to'la qismida amal qiladi.

Majburiy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minotining me'yorlashtirilishi. Sug'urtaviy baholash va sug'urtaviy qoplash tartibini soddalashtirish maqsadida sug'urta bahosiga nis-

batan foizlarda yoki bir obyektga so'mlarda sug'urta ta'minotining me'yorlari belgilanadi.

Sug'urtaning ixtiyoriy shakli quyidagi tamoyillar asosida qurilgan.

Ixtiyoriy sug'urta qonunchilik asosida va ixtiyoriy ravishda amal qiladi. Qonunchilik ixtiyoriy sug'urtaga tegishli obyektlarni va sug'urtaning umumiy shartlarini belgilab beradi. Konkret shartlar esa, sug'urtalovchilar tomonidan ishlab chiqiladigan sug'urta qoidalari orqali tartibga solinadi.

Sug'urtada ixtiyoriy qatnashish to'la holda faqat sug'urtalanuvchilar uchun xarakterlidir. Agar sug'urtalanuvchining xohishi sug'urta qoidaloriga zid kelmasa, sug'urtalovchi obyektini sug'urta qilishdan bosh tortish huquqiga ega emas. Bu tamoyil sug'urtalanuvchining birinchi talabi bo'yicha sug'urta shartnomasi tuzilishini kafolatlaydi.

Ixtiyoriy sug'urtani tanlab qamrab olishi. Barcha shaxslar ham unda ishtirok etish istagini bildiravermaydilar. Bundan tashqari, shartnomalar tuzishda sug'urta shartlari bo'yicha chegaralashlar ham amal qiladi.

Ixtiyoriy sug'urta doimo sug'urta muddati bilan chegaralanadi. Bunda muddatning boshlanishi va tugashi shartnomada qat'iy kelishib olinadi. Shundan kelib chiqib, sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasi sug'urta holati faqatgina sug'urta davrida sodir bo'lgandagina to'lanadi. Ixtiyoriy sug'urtaning uzluksizligini faqatgina yangi muddatga qayta shartnoma tuzish yo'li bilanagina ta'minlash mumkin.

Ixtiyoriy sug'urta faqatgina bir martalik yoki davriy sug'urta badallari to'langandagina amal qiladi. Ixtiyoriy sug'urta shartnomasining kuchga kirishi bir martalik yoki birinchi sug'urta badalini to'lanishi bilan asoslanadi. Uzoq muddatli sug'urta bo'yicha navbatdagi badalning to'lanmasligi natijasida shartnomaning amal qilishi to'xtaydi.

Ixtiyoriy sug'urta bo'yicha sug'urta ta'minoti sug'urtalanuvchi istagidan kelib chiqadi. Mulkiy sug'urta bo'yicha

sug'urtalanuvchi sug'urta summasini sug'urta bahosi chegarasida belgilashi mumkin. Shaxsiy sug'urta bo'yicha sug'urta summasi shartnomada tomonlar kelishuvi orqali belgilanadi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Sug'urtani turkumlashning zarurligi nimada?
2. Sug'urtani turkumlashning umumiy asoslari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasining sug'urtaga doir qonunchiligiga binoan sug'urta qanday sohalarga bo'linadi?
4. Sug'urta sohalari qanday klasslarga bo'linadi?
5. Sug'urta qanday shakllarda amalga oshiriladi?
6. Ixtiyoriy sug'urtaning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Majburiy sug'urta, uning amal qilish shartlari va tartibi kim tomonidan belgilanadi?
8. Majburiy sug'urtani joriy qilishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
9. Majburiy sug'urta qanday tamoyillar asosida amal qiladi?
10. Ixtiyoriy sug'urta qanday tamoyillarga asoslanib quriladi?

Mustaqil o'zlashtirish uchun test savollari

1. O'zbekiston Respublikasida sug'urta biznesining boshqarishning birinchi va oliy tabaqasi keltirilgan javobni aniqlang.

- A) fuqarolik huquqi
- B) maxsus qonunchilik
- C) idoralarning normativ hujjatlari
- D) sug'urta tashkilotining guvoxnomasi

2. Sug'urtani iqtisodiy kategoriya qatoriga kiritish mumkinmi?

A) sug'urta moliya va kredit oralig'idagi kategoriya, chunki u kreditga ham xizmat qiladi

B) sug'urta moliya va kredit kategoriyalari bilan bog'langan ikkilamchi kategoriya

C) sug'urta pul, ish haqi, pensiya, foyda tushunchalari bilan bog'langan

D) moliya bilan kredit birlamchi kategoriya, sug'urta birlamchi kategoriya emas

3. Avtotransport egalarining fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish:

A) sug'urta tashkilotlarini himoya etishga yo'naltirilgan.

B) davlat manfaatlarini himoya etishga yo'naltirilgan.

C) yo'l-transport hodisalari ro'y berishi natijasida jabrlanganlarni himoya etishga yo'naltirilgan.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

4. Sug'urta hodisasi ro'y berishi tufayli ko'rilgan zarar qaysi hujjat asosida sug'urtalanuvchiga qoplanadi?

A) sug'urta polisi asosida.

B) sug'urta shartnomasi asosida.

C) sug'urta dalolatnomasi asosida.

D) sug'urta summasi asosida.

5. Qaysi holatlarda sug'urta shartnomasi bekor etilishi mumkin?

A) Sug'urtalanuvchi tomonidan sug'urtalovchiga noto'g'ri ma'lumotlar berilgan taqdirda.

B) Sug'urta shartnomasida orfografik xatolar bo'lganda.

C) sug'urtalovchi ustav kapitali miqdorini oshirganda.

D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

6. Havo kemasi yo'lovchilarini sug'urta qilish:

A) ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladi.

- B) majburiy tarzda amalga oshiriladi.
- C) davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.
- D) aviakompaniya mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

7. Sug'urta mukofoti sug'urtalovchiga o'z vaqtida berilmasa, u holda:

- A) sug'urta javobgarligi tushgan sug'urta mukofotiga nisbatan mutanosib ravishda olib boriladi.
- B) sug'urta javobgarligi to'liq olib boriladi.
- C) sug'urta javobgarligi olib borilmaydi.
- D) yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

8. Kreditni yoki boshqa qarzlarni qaytara olmaslikdan sug'urtalash, yuqori xavf-xatar manbalari egalarining fuqarolik javobgarligi sug'urtasi, xo'jalik faoliyati jarayonida zarar yetkazish holati bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtasi sug'urtaning qaysi turlari orqali amalga oshiriladi?

- A) javobgarlik sug'urtasi
- B) shaxsiy sug'urta
- C) mulkiy sug'urta
- D) sug'urta mukofoti

8 BOB. SUG'URTA TASHKILOTLARIDA BIZNES JARAYONLARINI TASHKIL ETISH

O'quv maqsadi: sug'urta biznesini tashkil etishga davlat tomonidan qo'yiladigan talablar, sug'urta biznesida ishtirok etuvchi sub'ektlar, sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonlarini tashkil etish, sug'urta tashkilotlarida zahiralarning shakllantirishi va undan foydalanish tartibi haqida nazariy bilimlar berish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tayanch iboralar: sug'urtaga qo'yiladigan talablar, sug'urta biznes, sug'urta zahira.

8.1 Sug'urta biznesi tushunchasi va uning mohiyati.

Erkin bozorda iste'mol qilish uchun taklif etilishi mumkin bo'lgan va muayyan ehtiyojlamini qondirishga mo'ljallangan barcha narsalar mahsulot deb ataladi.

Sug'urta mahsuloti - sug'urtalanuvchiga sug'urta shartnomasi tuzish orqali taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlar yig'indisidir.

Sug'urta mahsuloti tarkibidan uning asosiy xususiyatlarini - beriladigan kafolatlar, sug'urta summalari, franshizalar va narxni o'zida mujassam etgan "o'zak"ni shartli ravishda ajratib ko'rsatish mumkin.

Kafolatlar muayyan hujjatlarda (sug'urta polisi, unga ilova qilingan izohlar) va reklamada ifoda topadi. Xuddi shular orqali sug'urtalanuvchi sug'urta mahsulotining iste'mol xususiyatlari to'g'risida, o'z xarididan qanday manfaat topishi mumkinligi to'g'risida ma'lumot oladi. Sug'urta polisining va unga

qo'shimcha hujjatlarning dizayni hamda sug'urta qiluvchining nomlanishi va savdo markasi ham shu tarkibga kiradi.

Sug'urta mahsulotining yakuniy ifodasi kompaniya tomonidan mazkur sug'urta mahsuloti doirasida taqdim etiladigan asosiy va qo'shimcha xizmat turlarida ifoda topadi. Bu - sug'urta qoplamasini to'lash bilan bog'liq o'zi bajaradigan sug'urta amaliyotlari (asosiy xizmatlar) va sug'urta hodisasini hal etish (shikastlangan avtomobilni ta'mirlash, yuridik maslahat va yordam va h.k.) doirasidagi xizmatlardir.

Sug'urta xizmatining (sug'urta mahsulotining) sug'urtalanuvchi tomonidan xizmatni tanlab olinishiga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- texnik xususiyatlar - taqdim etiladigan kafolatlar (sug'urta qoplamasi, sug'urtalanayotgan xatarlar), kafolatlash darajasi (sug'urta summalari), franshizalar va h.k.;

- iqtisodiy xususiyatlar - narxi, sug'urta summasining indeksatsiyalanishi, sug'urta qiluvchining foydasiga sheriklik, ssuda olish imkoniyatining mavjudligi, sug'urta qiluvchining ishonchliligi;

- ijtimoiy qiymati (iste'mol bahosi) - taqdim etilayotgan xavfsizlik, daromadlilik, umidvorlilik, sotuv amalga oshirilgandan keyingi xizmatlar (sug'urta hodisalarini tekshirish, qo'shimcha xizmatlar, sug'urtalanuvchiga nisbatan hurmat-e'tibor) sifatini baholash.

Sug'urta mahsulotining bu xususiyatlari iste'molchi tomonidan sug'urta kompaniyasini va lining muayyan ko'rinishdagi xizmatlarni tanlab olishi uchun mezon sifatida xizmat qiladi. Albatta bu omillarning ahamiyati bir iste'mol segmentida boshqasiniqidagidan farqlanadi. Masalan, korxonalarning rahbarlari uchun sug'urta mahsulotining texnik va iqtisodiy xususiyatlari katta ahamiyat kasb etgan holda, ijtimoiy baholash unchalik muhim hisoblanmaydi. Jismoniy shaxslar uchun esa, savdo markasining obro'-e'tiborga egaligi va umidvorlilik ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarning tadqiqotlari ko'rsatishicha, bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan mamalatlarda sug'urta qoplamasi bir bo'lgan sharoitda sug'urta qiluvchini tanlashning muhim omili sifatida quyidagilar yuz ko'rsatadi (ahamiyatligi pasayib boradigan tartibda):

- sug'urta mahsulotining narxi (boshqa omillardan katta farq bilan oldinda turadi);

- sug'urta xizmatlarining sifati, ayniqsa sug'urta hodisalarini tekshirish va hal etish;

- sug'urtalanuvchining sug'urta qiluvchiga bo'lgan ishonchi (savdo markasining obro'-e'tibori) va ularning o'rtasida o'zaro chambarchas aloqa mavjudligi.

Bozorda raqobatdoshlik kuchaygani sari sug'urta qiluvchilar o'z sug'urta mahsulotlariga yondashuvni quyidagi masalalarda o'zgartirib turishga majbur bo'ladilar:

- o'z sug'urta xizmatlari va raqobatchilarning sug'urta mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

- sug'urta mahsulotining sifati; sug'urta mahsulotining moslanuvchanligi - shartnomalar va tariflar bo'yicha belgilangan shartlarning bozor talablarining hamda xususiy iste'molchilarning talablari o'zgarishiga qanchalik tez moslasha olishi.

Sug'urta mahsulotlari ularning amalda bo'lib turishiga sababchi bo'lgan asosiy, eng muhim talab nuqtai nazaridan katta guruhlariga ajratiladi. Umumiy ehtiyoj, sug'urtaning vujudga kelish sababi - o'z shaxsiy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash istagini izohlaydi. Uni bir necha o'ziga xos mayda talablarga ajratish mumkin, ulardan eng asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tasodifiy noxush hodisa ro'y bergan taqdirda kafolatlanish talabi; mehnatga layoqatlilik yoki o'lim yuz bergan holda o'zini va oilasini kafolatlash; muayyan muddat ichida jamg'anma hosil qilish yoki o'ziga badavlat keksalikni ta'minlash. Muayyan talablar bo'yicha sug'urta mahsulotlarini icatta guruhlariga "oilalarga" ajratish mumkin va ularning har biri bironta eng muhim ehtiyojni qondirishga xizmat

qiladi. Iqtisodiy xavfsizlilni ta'minlash uchun xizmat qiluvchi sug'urta mahsulotlari, xatarlilik sug'urtalari sinfiga guruhlanadi va yuqorida sanab o'tilgan o'ziga xos ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan keyingi ikkitasi - hayotni sug'urtalash va pensiya sug'urtasi "oilasiga" bo'linadi. Shundan keyin sug'urta mahsulotlari oilalari ular tomonidan qoplanadigan xatarlarning o'xshashligi jihatidan bo'linadi. Masalan xatarlilik sifatidagi sug'urtalar ichidan mol-mulk sug'urtasi va salomatlik sug'urtalarini alohida toifaga ajratib ko'rsatish mumkin. Ana shu toifalar ichidan ham mutaxassislar ancha tor doiradagi sug'urta ehtiyojlarini qondirish va xatarlarni qoplashga qaratilgan sug'urta mahsulotlarining alohida turlarini ajratib chiqaradilar. Xususan, mol-mulk sug'urtasi toifasini ko'chmas mulk sug'urtasi, avtomobil sug'urtasi, yule sug'urtasi kabilarga bo'lish mumkin. O'z navbatida ana shu sug'urta turlari ham jamlanmalarga ajratiladi. Mol-mulk sug'urtasi turar-joy sug'urtasi, ofislar sug'urtasi va sanoat inshootlari sug'urtasi kabilarga bo'linadi. Bu jamlanmalar esa bevosita sug'urta mahsulotlaridan ya'ni mijozga taklif etilayotgan xizmatlaridan tashkil topadi. Har bir sug'urta kompaniyasi o'zi taklif etayotgan xizmatlar turlari ichida juda ko'p mahsulotlar shahobchalariga ega bo'ladi. Sug'urta ehtiyojlarining barcha turlarini qondirish uchun ularning miqdori ham anchagina bo'lishi talab etiladi. Ularning har biri muayyan bozorga yolchi uning yirik segmentiga yo'naltirilgan asosiy marketing birligi hisoblanadi. Har bir jamlanma o'z dizayniga ega bo'lib, savdo markasi va sug'urta qiluvchining nomi bilan javob beradi. Ehtimoldagi mijoz sug'urtalanuvchining vakiliga sug'urta shartnomasi tuzish masalasida murojaat etgan chog'ida, unga mavjud sug'urta mahsulotlari jamlanmalari doirasida tanlov imkoniyatini beradilar.

Har qanday sug'urta mahsuloti ikki usulda - marketing yondashuvi asosida va aktuar texnika nuqtai nazaridan ifodalinishi mumkin. Sug'urta mahsulotiga marketing yondashuvi bu - uning iste'molchining baholash atamaları va qiziqishlari orqali if-

odalanishi bo'lsa, texnile aktuar yondashuvi esa, sug'urta qiluvchi tomonidan berilayotgan kafolatlar ro'yxati, sug'urta summalari va tariflar, franshizalar va shu kabilardan iborat. Masalan bir yil davomida bosib o'tilgan yo'lga bog'liq ravishda tarif qo'yiladigan avtomobil sug'urtasi mana bu ko'rinishda bo'ladi: bu shunday sug'urta xizmatlaridirki, unda siz faqat foydalanish hajmiga mos ravishda pul to'laysiz va u mashinasidan kam foydalanadiganlar (ikkinchi mashinaning mavjudligi, haydovchining keksa yoshda ekanligi va h.k.) uchun juda qulay. Texnik ifodada esa, bu - kafolatlar va qalqib turuvchi tarif stavkalarini hisoblash uslublari yig'indisidir.

8.2. Sug'urta tashkilotlarida biznes jarayonlarini tashkil etish.

Sug'urta bozor iqtisodiyoti infrastrukturasi tarkibiy qismi va ishlab chiqarish munosabatlarining muhim tashkil etuvchi unsurlaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq. Shunday ekan, ishlab chiqarishga ta'sir qiladigan zararlar bozor iqtisodiyoti yo'nalishlarini chetlab o'tmaydi. Shu munosabat bilan sug'urta ko'p ukladli xo'jaliklarning har birini sug'urtalashda, ularning mol-mulklarini bud saqlashda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida:

Birinchidan, mustaqil sug'urta xizmatlar tizimi barpo qilindi. Faoliyat jihatidan respublika miqyosida mustaqil tashkilotga aylandi. U O'zbekiston Moliya vazirligi tarkibidan chiqib, davlat bosh iqtisodiy islohotchi bo'lgani holda davlat aksiyadorlik hamda boshqa mulk shaklidagi sug'urta tashkilotlari tashkil etildi.

Ikkinchidan, alohida sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun qabul qilindi, unda respublikamizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olindi.

Uchinchidan, xorijiy mamlakatlardagi sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik kuchaydi, ular ishtirokida qo'shma sug'urta tashkilotlari tashkil qilindi. Milliy sug'urta tashkilotlari jahon sug'urta tashkilotlari qatoridan o'rin oldi.

To'rtinchidan, sug'urta mablag'laridan investitsiya maqsadlarida foydalanish asosida ularning moliyaviy ahvoli yaxshilandi, xorijiy mamlakatlar mablag'laridan investitsiya maqsadlari uchun foydalanishda sug'urta tashkilotlarining vositachilik roli vujudga keldi.

Beshinchidan, sug'urta tashkilotlari bilan kredit muassasalarining hamkorligi kuchaydi. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan bankdan olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilishiga qaratilgan sug'urta faoliyati kengayib bordi, u qishloq xo'jaligi korxonalariga nisbatan ham joriy qilindi.

Oltinchidan, sug'urta xizmatlari bozorida ixtiyoriy sug'urta turlarining jadal rivojlanishi kuzatildi. Shuningdek, majburiy sug'urtalashning qonunchilik asoslari va ularning ustivor yo'nalishlari joriy etila boshlandi.

Ettinchidan, sug'urtaning xalq farovonligini yaxshilashdagi roliga alohida ahamiyat berila boshlandi. Shu munosabat bilan ixtiyoriy shaxsiy sug'urtaning ko'pchilik qoidalari qaytadan ko'rib chiqildi, qo'shimcha pensiya va boshqa sug'urta turlari joriy qilindi.

Sakkizinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning muhim ahamiyatiga alohida e'tibor berilib, sug'urtaning yangi turlarini amalga oshirishga kirishildi.

To'qqizinchidan, sug'urta faoliyati bilan qimmatli qog'ozlar o'rtasida tegishli munosabat o'rnatildi. Sug'urta tashkilotlari o'zlarining qimmatli qog'ozlarini emissiya qilishlari va qimmatli qog'ozlar bozorida oldi sotdi ishlarini amalga oshirishlarining huquqiy asoslari shakllantirildi. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiya faoliyati yo'lga quyildi va rag'batlantirildi.

Bundan tashqari, respublika sug'urta tashkilotlari xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganishga ham alohida e'tibor ber-

dilar, ayrim xorijiy sug'urtatashkilotlari vakillari O'zbekiston sug'urta tashkilotlari xodimlari bilan 13 amaliy seminarlar o'tkazib turdilar. Bu tadbirlar respublikamiz sug'urta xizmatlari bozorini tashkil qilishga zamin hozirladi va sug'urtalanuvchilar doirasini kengaytirishga jiddiy yordam bermoqda. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati unda qayta taqsimlash munosabatlarining mavjudligi, sug'urta riskning mavjudligi (uni aniqlash), sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchilardan sug'urta birlashmalarini tashkil etish, yakka va guruh sug'urta ehtiyojlarini birlashtirish, barcha sug'urtalanuvchilarning zarari bo'yicha birgalikdagi javobgarligi, zararning taqsimlanishi, zararni vaqt va joy bo'yicha qayta taqsimlash, sug'urta mukofotlarining qaytarilishi, sug'urta faoliyatining o'zo'zini qoplash xususiyati mavjudligi orqali belgilanadi. Tabiat va jamiyatning moddiy zarar keltiruvchi ko'zda tutilmagan harakatlari insonlar tomonidan birinchi navbatda tasodifan ro'y berdi deb qabul qilinadi, lekin ularning doimiy takrorlanib turishi oqibatida iqtisodiy aloqalar holati va texnogen muammolar bo'lishidan qa'tiy nazar ro'y berishini isbotlab beradi. Bularning barchasi oxir oqibat ishlab chiqarish va boshqa faoliyat ko'rsatishda tasodifan ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni vujudga kelishiga ob'ektiv shart-sharoitlar yaratib beradi. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshiliklar natijasida yuzaga kelgan zararni qoplash, insonlar o'rtasida tabiiy ofatlardan ko'riladigan zararlar oqibatlarini qisqartirish, baratarf etish va ularni oldini olish zaruratini taqozo etadi. Tabiiy ofatlar, avariya, o'g'irlik va boshqa favqulotda ro'y beradigan hodisalar insonning ongidan tashqarida to'satdan yuzaga kelishi mumkin. Ilmiy nuqtai-nazardan qaraganda har bir mulk egasi o'z mol-mulkini shu jumladan, ko'chmas mulkini qisman zararlanishi yoki butunlay yo'qotilishi oqibatida ko'riladigan zararlarni qoplanishidan manfaatdor ekanligini ko'rish mumkin.

Sug'urta mahsuloti sotuvi - mijozlar ehtiyojini, ulaming iste'molchilik xatti -harakatlarini aniqlash, sug'urta shartlarin-

ing mukofot va qo'shimcha xizmatlar miqdorining maqbuliigi va jozibadorligini ta'minlash uchun ilgari o'tkazilgan marketing xatti-haracatlarini yakunlovchi bosqichdir.

Sotuv jarayoni - sug'urta qiluvchi va sug'urtalanuvchi o'rasidagi o'ziga xos marketing ko'prigi hisoblanadi. Sug'urta qiluvchining agentlari mijozni u sug'urtalanishi lozim ekanligiga, mazkur sug'urta mukofoti esa - sug'urta qoplamasi uchun unchalik qimmat bo'lmagan to'lov ekanligiga ishontirish uchun ancha kuch-g'ayrat sarflashlari darkor. Sug'urta mahsulotlari sotuvini tashkil etish bo'yicha bir necha umumiy talablar mavjud. Mijoz sug'urta qoplamasini qayerdan sotib olishi mumkinligini bilishi, savdo shahobchasiga kirish oson va erkin bo'lishi, mijozlarga diqqat-e'tibor va xushmuomalalik bilan xizmat ko'rsatilishi zarur.

G'arbda iste'molchilar quyidagilardan sug'urta xizmatlarini sotib olishlari mumkin:

- ixtisoslashgan sug'urta vositachilari - brokerlar orqali;
- sug'urta mahsulotlarini sotish asosiy faoliyat turiga kirmaydigan vositachilar - banklar, supermarketlar, avtoustaxonalar va h.k.;

- sug'urta qiluvchining bosh agentliklardagi xolis agentlari orqali;

- sug'urta qiluvchining xodimlari (agentlari) hisoblanmish vakil lari orqali;

- sug'urta qiluvchi bosh ofisining bo'linmalarida yoki uning telefon, pochta yoki kompyuter tarmog'i orqali bevosita sotish bilan shug'ullanuvchi sho'ba korxonalaridan.

Ularning hammasini bir nom ostida - sug'urta mahsulotini sotish (o'tkazish) tizimi nomi bilan birlashtirish mumkin. Asosiy faoliyati bo'lmish sug'urta mahsulotini sotishdan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan tizimlar bozor to'g'risidagi raqobatchi firmalar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, bozor istiqbollarini tahlil qilish bilan ham shug'ullanadilar.

Sug'urta mahsulotlari sotuvini tashkil etishda uning marketing ifodasi asosiy o'rin tutadi. Sotuvni yuksak darajada

o'tkazilishini ta'minlash uchun, sug'urta mahsuloti iste'molchi uchun tushunarli bo'lgan va uning sotib olinishini oqlaydigan bir yoki bir necha g'oyaga ega bo'lishi, raqobatchilarning xuddi shu turdagi mahsulotlardan afzal bo'lishi, o'xshash turdagi mahsulotlar orasida narxning balandligi bilan ajralib turmasligi shart. Tajribaning ko'rsatishicha, sug'urta mahsulotlari sotilishining ancha ko'tarilishida mahsulot iqtisodiy mexanizmining, hamda mahsulot ta'min etib beradigan manfaatlarning mijoz tomonidan sodda qilib tushunilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sug'urta mahsulotlari jamlanmasi takomillashtirish sohasida istiqbolli tadbirlarai rejalashtirayotganda uni tashkil etadigan mahsulotlarning amal qilish davriyligi, ulami bozor talablari evolyutsiyasiga mos holda takomillashtirish imkoniyatlari hisobga olinishi shart.

Yetakchi sug'urta mahsulotlari sug'urta qiluvchi aylanmalarining (tuzilgan shartnomalar sonining) eng ko'p qismini ta'minlab beradi. Odatda, bular eng serdaromad sug'urta mahsulotlari hamdir. Ko'pgina sug'urta qiluvchilar yetakchi mahsulotlar qatoriga turar joylami barcha xatarlardan sug'urtalanishini, sanoat korxonalarini o'tdan va suvdan sug'urtalanishini kiritadilar.

Maftunkor sug'urta mahsulotlarining vazifasi iste'molchining diqqat- e'tiborini mazkur sug'urta kompaniyasiga qaratish va dastlabki sug'urta polisi sotib olinishini yengillashtirishdan iborat. Maftunkor sug'urta mahsulotlari qatoriga, masalan, avtofuqarolik javobgarligi sug'urtasini kiritish mumkin. O'zining majburiylik xususiyatiga ega ekanligi tufayli u birinchi navbatda ehtimoldagi mijozning e'tiborini o'ziga tortadi. Shu sababli kompaniyalar sug'urtaning bu turi bo'yicha tariflarni past darajada ushlab turadilar. Maftunkor mahsulotlarning boshqa guruhi shu vaqtgacha hali biron marta ham sug'urtalanmagan yosh yigit-qizlarga mo'ljallangan bo'ladi. Ularni maftunkor mahsulotlarning bir muncha imtiyozli shart-sharoitlari orqali jalb etar ekan, sug'urta qiluvchi mazkur iste'molchilarning o'z

portfelida saqlab qolish va keyinchalik sotiladigan sug'urta mahsulotlarining narxini balandroq qilib belgilash orqali dastlabki bosqichda berilgan imtiyozlar tufayli ko'rilgan yo'qotishlar o'mini to'ldirishdan umidvor bo'ladi.

Kelajak mahsulotlari qatoriga hali bozor tomonidan talab qo'yilmagan, ammo sug'urta qiluvchi fikriga ko'ra, istiqbolda keng tarqalishi mumkin bo'lgan mahsulotlar kiradi. Bu mahsulot turlariga masalan, yetakchi mahsulotlarini yangi, hali keng tarqalmagan usullarda sotish, yaratish loyihalari kiradi. Bunday mahsulotlar qatoriga xususan, elektron tarmoq orqali sotishga mo'ljallangan turar joy binolari sug'urta polislarini kiritish mumkin.

Taktika maqsadiga mo'ljallangan mahsulotlarning vazifasi - raqobatchilarning hujumiga qarshi turishga yoki ularning u yoki bu xatti-harakatlariga, shuningdek bozor evolyutsiyasiga tezkorlik bilan javob berishga qaratilgan. Mahsulotlarning bu turi "tinchlik" davrida odatan "yig'ishtirilgan" holatda bo'ladi. Masalan, sug'urta kompaniyasi muayyan bosqichda yosh haydovchilar segmentida avtomobil sug'urtasi bilan shug'ullanishi uchun manfaatsiz hisoblaydi. Shunga qaramay, sug'urta qiluvchi o'z mahsulotlari jamlanmasiga yosh haydovchilar uchun mo'ljallangan alohida mahsulot kiritib, ammo uni tijoratlashtirishga shoshilmay turadi. Raqobatchi yosh haydovchilarni jalb etish niyatida mana shu segmentga "hujum" uyushtirishi bilan, sug'urta qiluvchi bu sohadagi o'z mahsulotlarini "ochib tashlash" bilan javob qaytarishi mumkin. O'zining taktik zaxirasi mavjud bo'lmagan holda, tezkorlik bilan qarshi turishning iloji bo'lmaydi. Shu tariqa, sug'urta qiluvchi bozor talablarining o'zgarishiga avvaldan ishlab chiqilgan, ammo bozorda o'tkazilmay, taktik vazifalar uchun saqlab turilgan sug'urta mahsulotlarini ishga tushirish orqali raqobatga hozirjavoblik bilan qarshi turish mumkin.

Sug'urta mahsulotini o'tkazishning yuqorida sanab o'tilgan shakllari aksiyador sug'urta kompaniyalari uchun xos bo'lib,

ular o'z mahsulotini sotish uchun bir yoki bir necha usuldan foydalanishi mumkin. Germaniya, Italiya, Fransiya, Ispaniyada o'tkazishning asosiy shakli - bosh agentliklardan iborat bo'lib, ular sug'urta qiluvchi tomonidan shartnoma asosida jalb etiladi. Buyuk Britaniya, Gollandiya va Belgiyada tarixan shunday holat vujudga kelganki, mijozlar bilan ishni asosan sug'urta brokerlari vositasida olib boriladi.

Ulardan tashqari bozorda o'zaro sug'urta kompaniyalari ham mavjud. Ularning aksionerlik kompaniyalaridan farqi shundaki, ular daromadsiz xususiyatga ega bo'lib, ko'rilgan zarar sug'urtalanuvchilar o'rtasida taxlanma asosda taqsimlash orqali qoplanadi. Shu sababli, barcha sug'urtalanuvchilar sug'urtalar bo'yicha zaxira fondini boshqarish ishida ishtirok etadilar, sug'urta mahsulotini o'tkazish tizimi esa bu holda, o'zaro sug'urta fondiga qo'shimcha qatnashchilarni jalb etish ishi bilan shug'ullanuvchi tizim shaldiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, o'zaro sug'urta kompaniyalari, qoidaga ko'ra, brokerlar yoki boshqa vositachilar xizmatidan foydalanmaydi va sug'urtalanuvchilar sonini ko'paytirishda agentlarning kuch-g'ayratidan foydalanishni afzal biladi.

Sug'urta xizmatlari hamisha "sotib olinmaydigan" balki faqat "sotiladigan" tovar turi bo'lgan. Uni o'tkazish uchun doimo ko'p kuch sarflash, passiv iste'molchiga sug'urta himoyasining afzalliklarini tushuntirish zarur bo'lgan. Sug'urtalanuvchilarning bugungi kunda faolroq iste'molchilarga aylanib qolganligi va ularning sug'urta mahsuloti sifatiga nisbatan talabchanligi oshganligi sababli, mijozlarga avvalgidek andozaviy sug'urta mahsulotini hazm qilishga tayyor turgan shaxsi noma'lum ommaga qaragan kabi qarash sug'urta qiluvchi uchun endilikda o'lim bilan teng. Sug'urta mahsuloti sotilishi uchun u sug'urtalanuvchining ehtiyojlari va tanlab olish mezonlariga javob berishi shart.

Mijozlarning qanoatlanishiga erishuv sug'urta qiluvchining asosiy maqsadi -- sug'urta amaliyotlari orqali foyda olishga

zid bo'lmashligi shart, ya'ni marketing o'tkazishga qilinayotgan xarajatlar bu faoliyatdan ko'riladigan natija bilan muvozanatda bo'lishi shart. Bunday muvozanatni matematik hisob-kitob yo'li bilan, marketing xarajatlari va undan ko'rilgan foyda nisbati orqali topish mumkin. Shubhasiz, har qanday marketing aksiyasi samaradorlik bo'yicha o'z chegaralariga ega bo'ladi. Masalan, sug'urta mahsulotini sotish tarmog'ini rivojlantirish uchun cheklanmagan miqdorda ko'p mablag' sarflash mumkin, ammo mijozlarni mazkur hududda sug'urtaning muayyan turi bilan qamrab olish esa o'z cheklovlariga ega, chunki ma'lum bir bosqichga yetgan qo'yilmalar o'zini oqlamay qoladi. Sug'urta sifati to'g'risida ham xuddi shu fikmi aytish mumkin. Sug'urta mahsulotini cheksiz ravishda takomillashtirib borish va uni mijozlar talabiga moslashtiraverish mumkin, ammo bu holda vaqti kelib mahsulot sifatini sezgirlik bilan kuzatuvchi mijozlar doirasi tugaydi va bundan keyingi barcha harakatlar zoye hattoki zararli bo'lib qoladi. Shu sababli hozirgi zamon sharoitida sug'urta qiluvchilarning marketingga oid kuch-g'ayratlarini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda sug'urta xizmatlari sifatini va miqdorini uning rentabelligiga qarab baholash katta ahamiyatga ega.

Sug'urta bozori ijtimoiy-iqtisodiy makon sug'urta xizmatlariga ehtiyoj sezadigan sug'urtalovchilar, ularga bo'lgan talabni qondiradigan sug'urtalovchilar (sug'urta kompaniyalari) sug'urta vositachilari va sug'urta infratuzilmasi tashkilotlari (konsalting firmalari va boshqalar). Keng ma'noda sug'urta bozori birlashgan sug'urta mahsulotini sotish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar. Sug'urtalashning asosiy iqtisodiy qonuni Bozor - qiymat va qondirish qonuni. Sug'urta bozorining paydo bo'lishi uchun shart-sharoit ommaviydir mehnat taqsimoti, tovar iqtisodiyotining mavjudligi, alohida tovar ishlab chiqaruvchilar.

8.3. Sug'urtalovchilar moliyasini tashkil qilish va undan foydalanish tartibi.

Sug'urtalovchining moliyasi sug'urta himoyasi bo'yicha xizmat ko'rsatish faoliyatini ta'minlaydi. Sug'urtalovchi sug'urta fondi mablag'larini shakllantiradi va sug'urtalanuvchilar zararlarini qoplash va sug'urta ishini tashkil qilish bo'yicha xarajatlarini moliyalashtirishga sarflaydi. Bundan tashqari, bozor sharoitida, sug'urtalovchi sug'urta fondining bir qismi va o'z mablag'lari hisobidan investitsion faoliyat bilan ham shug'ullanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotining pul aylanishi xalq xo'jaligining boshqa sohalari korxonalariga nisbatan ancha murakkabdir.

Sug'urta tashkilotining pul aylanmasi ikki mustaqil pul oqimini o'z ichiga oladi: sug'urta himoyasini ta'minlovchi pul aylanmasi va sug'urta ishini tashkil qilish bilan bog'liq pul aylanmasi. Bunda sug'urta himoyasini ta'minlovchi pul aylanmasi ikki bosqichni bosib o'tadi: birinchi bosqichda sug'urta fondi shakllanadi va taqsimlanadi, ikkinchi bosqichda sug'urta fondi mablag'lari foyda olish maqsadida investitsiya qilinadi.

Sug'urta fondi sug'urta tarifi bo'yicha aniqlanadigan va sug'urtalanuvchilar tomonidan to'lanadigan sug'urta badallari hisobidan shakllanadi.

Kutilayotgan va haqiqatdagi zarar o'rtasidagi bo'lishi mumkin bo'lgan nomutanosiblik, avvalo, tarif tuzilishiga ma'lum talablarni qo'yadi: uning asosiy qismi (netto-stavka)ga haqiqiy zararni kutilganidan bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimolli farqini aks ettiruvchi tavakkal ustamasi qo'shiladi.

Sug'urtalovchi o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarib, olgan to'lovlarini tarifda ko'zda tutilgan turli maqsadli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlaydilar.

Sug'urtalovchi tomonidan tashkil qilingan sug'urta fondi o'zining majburiyatlarini bajarishga yetarli bo'lish ehtimoli qan-

chalik yuqori bo'lsa, sug'urtalovchining moliyaviy barqarorligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Mablag'lar aylanishining tavakkal xarakteridagi sharoitlarda sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga ehtiyoj zararni qoplashni kengaytirishga asoslangan qayta sug'urtalash usulini vujudga keltirdi.

Bozor sharoitida sug'urta tashkilotlarining faoliyati o'z xarajatlarini qoplashnigina emas, balki foyda olishni ham ko'zda tutadi. Sug'urta tashkiloti sug'urta operatsiyalaridan katta foyda olishga intilmasligi lozim, aks holda bu bilan sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ekvivalentlik prinsipi buzilgan bo'ladi. Sug'urta tashkilotlarida «foyda» iborasi shartli qo'llaniladi, sug'urta tashkilotlari milliy daromad yaratmaydilar, balki faqatgina uni qayta taqsimlashda ishtirok etadilar. Sug'urta operatsiyalaridan olingan foyda deganda shunday ijobiy moliyaviy natija tushuniladiki, unda sug'urta himoyasini ta'minlash bo'yicha daromadlar xarajatlardan ortiq bo'ladi.

Sug'urta tashkiloti uchun foyda olishning asosiy manbai bo'lib investitsion faoliyat hisoblanib, u sug'urta fondi mablag'larining bir qismini tijorat maqsadlarida foydalanish orqali amalga oshiriladi. Sug'urta faoliyatining maqsadi katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar ko'rsatish, investitsion faoliyatning maqsadi esa, foyda olish bo'lishiga qaramasdan ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

Bir tomondan, investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbai sug'urta fondi hisoblansa, ikkinchi tomondan, investitsiya faoliyatidan olingan foyda sug'urta operatsiyalarini, zarar bilan ishlovchi sug'urta turlariga dotatsiyalar, kadrlar tayyorlash, yangi sug'urta turlarini ishlab chiqish va boshqalarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlari ham alohida xo'jalik subyektlari hisoblanar ekanlar, ular ham o'z xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan maxsus sug'urta va boshqa fondlarni shakllantiradilar,

jumladan nizom va amortizatsiya fondlari. Aksionerlik sug'urta kompaniyalari nizom fondining egalari hisoblanadilar (ta'sis-chilar tomonidan berilgan mulk, jumladan aksiyalarni sotishdan olingan daromadlar). Mamlakatimizda qabul qilingan tartib bo'yicha sug'urta tashkilotlari nizom fondining 20 % idan kam bo'lmagan rezerv fondini yillik sof foydaning 5 % idan kam bo'lmagan miqdordagi ajratmalar qilish orqali shakllantirishlari lozim.

Davlat mulkchiligi ishtirokidagi sug'urta tashkilotlari tizimi faoliyatida quyidagi fondlardan foydalaniladi:

- nizom fondi;
- amortizatsiya fondi;
- joriy tushumlar fondi;
- sug'urta turlari bo'yicha zahira fondlari tizimi;
- sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha rezerv fondlari;
- oldini olish tadbirlarini moliyalashtirish fondi;
- mehnatga haq to'lash fondi;
- iqtisodiy rag'batlantirish fondlari (sug'urtani rivojlantirish fondi va ijtimoiy-madaniy tadbirlar fondi).

Zahira fondlarni shakllantirishga zarurat sug'urtaning xususiyatli belgilaridan biri bo'lgan zararni vaqtlar bo'yicha qoplash bilan asoslanadi. Sug'urta hodisalarining to'satdan ro'y berishi sug'urtalovchining mablag'larini noqulay davrlarda zarar ko'rgan xo'jaliklarga yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lish uchun qulay davrlarda jamg'arishni talab etadi.

Zahira fondlarini shakllantirishdan maqsad sug'urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligining ta'minoti hisoblanadi, shakllantirish manbai esa - barcha to'lovlar tushumlar bo'yicha netto-stavkaning ishlatilmagan qismi hisoblanadi, vaholanki sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lashga qoplamalar sug'urta xizmatining bahosi - tarif - aynan netto-stavka mo'ljallangan. Joriy qulay yilda bevosita maqsad yo'nalishida sarflanmagan to'lovlarning netto-stavka qoldiqlari yildan-yilga

sug'urtalovchining sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini bajarishga joriy to'lov tushumlari yetmaydigan noqulay yil kelguncha jamg'arilib boradi.

Zahira fondlarining zaruriy hajmi sug'urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning obyektiv talablari bilan asoslanadi. Bundan kelib chiqib, qayta sug'urtalash sug'urta portfelini moliyaviy barqarorligini oshirish va tavakkalchiliklarni tenglashtirish imkonini beradi, uni qo'llash zahira fondlari hajmini sezilarli kamaytirish imkonini beradi. Qayta sug'urtalash qanchalik kuchli rivojlangan bo'lsa, sug'urta operatsiyalari moliyaviy barqarorligini shunchalik kam zahira fondlari bilan ta'minlash mumkin.

Sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha zahira fondlari muhim xarakter kasb etadi. Sug'urtaning uzoq muddatli turlarida badallarning asosiy qismi sug'urta shartnomasi muddati tugagandan so'ng to'lanish uchun uzoq davr davomida jamg'arilib boradi. Shu sababli sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha zahira fondlarini badal (to'lov) rezervlari deyiladi. Badal rezervlarining asosiy shakllanish manbalari netto-stavkaning jamg'arma elementi hamda investitsiya faoliyatidan olingan foyda hisoblanadi.

Uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha badallar rezervi sug'urtalovchining investitsion faoliyatini moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Bu ularni uzoq muddat va katta hajmda saqlanishi bilan asoslanadi. Badallar rezervi mablag'laridan tijorat maqsadlarida keng foydalanish sug'urtalovchiga kelasi davr daromadlarini, tarif stavkasini kalkulyatsiya qilishda hisobga olish yo'li bilan sug'urta badallarini pasaytirish imkonini beradi.

8.4. Sug'urtalovchilarning moliyaviy natijalarini shakllanish manbalari.

Sug'urta tashkilotlarining daromadlari sug'urta operatsiyalaridan, investitsiya faoliyati va boshqalardan olinishi mumkin. Sug'urta operatsiyalaridan daromadlar sug'urta to'lovlari asosida shakllanadi.

Sug'urta to'lovi sug'urta xizmatining sotish bahosini bildiradi, uni kalkulyatsiya bahosidan farqlash lozim. Gosstraxning monopol faoliyati davrida kalkulyatsion baho bir vaqtning o'zida sotish bahosi ham hisoblangan, u vaqtda to'laqonli bozor munosabatlari bo'lmagan. Bozor sharoitida kalkulyatsion baho bilan sotish bahosi mos kelmasligi mumkin. Sug'urtalovchi brutto-tarifni hisoblayotganda sug'urta xizmatining kutilayotgan qiymatini belgilaydi, sotish bahosi esa sug'urta shartnomasi tuzilayotganda aniq bo'ladi. Sug'urta xizmatining qiymati – obyektiv kattalikdir, baho esa qator omillar: bozor kon'yunkturasi, davlatning baho siyosati, sug'urtalovchilarning monopol kelishuvlari, kredit foizlarining dinamikasi va boshqalar ta'siri natijasida shakllanadi.

Sug'urta to'lovlari – bu sug'urta tashkilotining birlamchi daromadi va mablag'larning keyingi aylanishi asosi, investitsion faoliyatni moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Sug'urtaning uzoq muddatli turlari bo'yicha sug'urtalanuvchilarning to'lovlari sug'urtalovchilarda uzoq davr saqlanadi. Bundan tashqari sug'urta tashkilotlarida zahira va rezerv fondlari shakllantirilib, o'n yillab ishlatilmasligi mumkin. Bularning barchasi sug'urtalovchiga mablag'lardan investitsion maqsadlarda foydalanish asosini yaratadi.

Sug'urtalovchining mablag'lari xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga turli shakllarda: bevosita investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk va boshqa ko'rinishlarda joylashtirilishi mumkin. Investitsion faoliyatdan olingan daromadlar sug'urta operatsiyalaridan ko'rilgan zararlarni kompensatsi-

yalashga, sug'urta ishini rivojlantirishga, xuddi shunday tijorat maqsadlarida yoki iste'mol uchun sarflanishi mumkin. Shunday tarzda sug'urtalovchining sug'urta xizmatlari uchun past baholarda ham yetarli rentabellikni saqlab turish mumkin.

Sug'urta tashkiloti sug'urta to'lovlari va investitsion faoliyatdan olinadigan daromadlardan tashqari turli xildagi xizmatlar ko'rsatishdan, avvalo, risk-menejment bilan bog'liq, maslahat berish, kadrlarni o'qitish va boshqalardan ham daromadlar olishi mumkin.

Sug'urta operatsiyalaridan olingan foyda - ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarining bahosi va tannarxi o'rtasidagi farqni bildiradi.

Daromadlilik darajasining ko'rsatkichi sug'urta operatsiyalarining rentabelligi deyilib, yillik foyda summasini sug'urta operatsiyalarining barchasi yoki qandaydir sug'urta turi bo'yicha yillik to'lovlar summasiga nisbati sifatida aniqlanadi. Foydani kelib tushgan sug'urta to'lovlari hajmi bilan solishtirish sug'urtalovchi sug'urta to'lovlarining har bir so'midan qancha foyda olayotganligini ko'rsatadi.

Sug'urtalovchi sug'urta operatsiyalaridan oladigan foydadan tashqari investitsion faoliyatdan ham foyda olishi mumkin.

Investitsiyadan foyda - bu sug'urta tashkilotining nosug'urta xarakterdagi xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishdan olgan foydasi. Investitsiyalar orqali foyda olish sug'urtalovchining asosiy maqsadi hisoblanmaydi, biroq bu foyda sug'urta mas'uliyatlarini kengaytirish va alohida sug'urta turlari bo'yicha tariflarni pasaytirish, sug'urtalovchining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va sug'urta ishini rivojlantirishning boshqa yo'nalishlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-872-sonli Qaroriga asosan sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va mol-

iyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida sug'urtalovchilarga qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion vositachi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish huquqi berilgan. Bunda sug'urtalovchilar tomonidan ko'rsatilgan faoliyat turini amalga oshirish uchun litsenziya olishi talab qilinmaydi.

Sug'urtalovchining sug'urta operatsiyalari va investitsiya faoliyatidan olgan daromadlari soliqqa tortiladi. Daromadni hisoblash daromadlar va xarajatlar balansi hamda yordamchi hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Sug'urta operatsiyalaridan olingan daromad o'z tarkibiga foyda va sug'urta xodimlari mehnatiga haq to'lash fondini oladi. Sug'urtalovchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-872-sonli Qaroriga asosan 2008-yilning 1 iyunidan boshlab uch yil muddatga:

– yuridik va jismoniy shaxslarning sug'urtalovchilar aksiyalari bo'yicha dividendlar ko'rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda solig'i va jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashdan ozod qilingan;

– sug'urtalovchilarning dividendlar va foizlar ko'rinishida olingan daromadlari yuridik shaxslarning foyda solig'ini to'lashdan ozod qilingan va soliqdan bo'shagan mablag'lar respublika hududlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida hududiy bo'linmalarni, keng tarmoqli agentlik tizimini tashkil qilish, shuningdek, ularning moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilishi belgilangan.

Sug'urta kompaniyalarning moliyasi (sug'urtalovchining pul fondlari) sug'urta ishini tashkil etish borasida o'zining xarajatlarini moliyalashtirish va o'z mijozlariga sug'urta himoyasini ko'rsatish faoliyatini ta'minlaydi.

Sug'urta kompaniyalarining pul mablag'larini aylanishi ikkita mustaqil pul oqimini o'z ichiga oladi:

- sug'urta himoyasini (sug'urta to'lovlarini) ta'minlovchi mablag'lar aylanishi;
- sug'urta kompaniyalarni faoliyati uchun belgilangan mablag'lar aylanishi.

O'z navbatida, sug'urta himoyasini ta'minlovchi mablag'lar aylanishi ikki bosqichga bo'linadi: birinchi bosqich, sug'urta fondni shakllantiradi va taqsimlaydi, ikkinchi bosqich esa sug'urta fondning bir qismini banklarga qo'yilgan depozit hisoblar va hokazalar bo'yicha daromad olish maqsadida investitsiya qiladi. Sug'urta tashkilotlarida mablag'lar aylanishi boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlari va tijorat tuzilmalarga qaraganda murakkab jarayon hisoblanadi.

Pul mablag'larning aylanishi sug'urta himoyasini ko'rsatish bilan bevosita bog'liqligi sug'urta toifasining mazmunini ifodalaydi. Mablag' aylanishining ushbu qismi sug'urta tashkilotining risk, ehtimollik xususiyati harakatining alohida tamoyili hisoblanadi. Buning kuchi, sug'urta fondning shakllanishi asosida zararlar ehtimolligi yotganligi ehtimollik nazariyasi (aktuar hisoblar) va statistik ma'lumotlar asosida hisoblanadi hamda sug'urtalovchining moliyasini tashkil etishda har bir sug'urtalanuvchining ishtiroki ulushini, sug'urta xizmati narhi va tannarxini, shuning asosida tarif stavkalari miqdorini o'rnatishni aniqlash imkonini beradi.

Sug'urta zahiralari vaqtincha bo'sh turgan maxsus sug'urta resurslari aylanmasi hisoblanib, unga sug'urtalovchining daromadi sifatida qaralmaydi. Ular sug'urta kompaniyalari uchun investitsiya faoliyati orqali, qaysiki tijorat maqsadlarida sug'urta fondi mablag'larini bir qismini ishlatish yo'li bilan daromad olish manbai asosi hisoblanadi.

Investitsiya faoliyatidan olingan mablag'lar sug'urta operatsiyalarini moliyalashtirishga shu jumladan, sug'urta turlari bo'yicha zararlarni qoplash, yangi sug'urta turlarini ishlab

chiqish hamda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga va hokazolarga yo'naltiriladi.

Sug'urta zahiralarning shakllanishi bo'yicha quyidagi qonun-qoidalar mavjud:

– hamma zahiralar maxsus hisob-kitoblar asosida shakllanadi;

– zahiralar sug'urta olib borayotgan valyutada shakllanadi;

– sug'urta zahiralari har bir aniq to'lash muddatiga shakllanadi;

– zahiralar faqat sug'urta shartnomasi bo'yicha emas, qayta sug'urtalashda qabul qilingan shartnomalar bo'yicha ham shakllanishi mumkin;

Sug'urta qiluvchilarning moliyaviy turg'unligining asosi shundaki, ularda to'langan ustav kapitali, sug'urta zahiralari, shuningdek qayta sug'urta tizimi mavjud.

Sug'urtalovchilar o'ziga qabul qilgan sug'urta majburiyatlarini bajarish uchun yig'ilgan sug'urta mukofatlaridan kelgusida sug'urta to'lovlari uchun barcha sug'urta turlari bo'yicha kerakli sug'urta zahiralarni shakllantiradilar. Sug'urta zahiralari sug'urtalovchining sug'urtalanuvchilar bilan tuzgan sug'urta shartnomalari bo'yicha shu paytgacha bajarilmagan majburiyatlarining hajmini ko'rsatib turadi.

Xorij mamlakatlarida qabul qilingan sug'urta zahiralarning shakllanish texnikasiga ko'ra, sug'urta qiluvchi bo'yniga olgan har bir majburiyat turi sug'urta zahirasiga mos keladigan turi bilan qoplanadi. Hayot sug'urtasi bo'yicha amaldagi shartnomalar sharoitiga bog'liq holda matematik zahiralari, yillik renta zahiralari, fond zahiralari va ishtirok etish zahiralari shakllanadi; sug'urtaning boshqa turlari bo'yicha – mukofot zahiralari va zarar zahiralari shakllanadi. Sug'urta zahiralari hajmi amaldagi shartnoma bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan summani butun holda qoplashi zarur. Shuning uchun ularning hajmini aniqlash uchun sug'urta qiluvchining operatsiyalarini chuqur tahlili va matematik hisob-kitoblari zarur.

- Hamma sug'urta zahiralari 3 ta katta guruhlarga bo'linadi.
- hayot sug'urtasi zahiralari;
 - hayot sug'urtasidan tashqari zahiralari turlari - texnik zahiralari;
 - majburiy tibbiy sug'urta zahiralari.

Texnik mablag'lar sug'urta qiluvchi tomonidan alohida sug'urta shartnomasi va butun sug'urta portfeli bo'yicha bir muddatga hisob-kitob qilingan sug'urta to'lovlari bo'yicha moliyaviy majburiyatlarni bajarish kerak bo'lgan mablag'lar yig'indisi. Ular sug'urta zahiralarning qismi bo'lib hayot sug'urtasidan tashqari sug'urta turlari bo'yicha hisob-kitob qilinadi.

8.5. Daromadlarni taqsimlash va sug'urtalovchilarning xarajatlari.

Sug'urtalovchining xarajatlari sug'urta fondini taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xarajatlar tarkibi va strukturasi ikki o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlar: sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarni qoplash va sug'urta tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish aniqlab beradi. Shundan kelib chiqib, sug'urta ishida xarajatlarni quyidagicha turkumlash qabul qilingan: sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lash xarajatlari; zahira va rezerv fondlariga ajratmalar; oldini olish tadbirlariga ajratmalar; ish yuritish xarajatlari. Bu xarajatlar birgalikda sug'urta operatsiyalarining tannarxini bildiradi.

O'z salmog'i va ijtimoiy-iqtisodiy mazmundagi ahamiyati bo'yicha sug'urtalovchi xarajatlarining asosiy moddasini sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarini to'lash xarajatlari tashkil qiladi. To'lov paytida sug'urtalovchining sug'urtalanuvchi oldida shartnoma tuzish paytida olgan yoki qonun asosidagi (majburiy sug'urta bo'yicha) majburiyatlarini bajarilishi ro'y beradi.

Zahira fondlari yoki badal rezervlariga ajratmalar sug'urta ishida kelasi davr xarajatlarining o'ziga xos bir variantini

bildiradi. Ular sug'urta qoplamalari va sug'urta summalarining me'yoriy va haqiqatdagi kattaliklari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Sug'urtalanuvchi xarajatlarining boshqa elementlari singari oldini olish tadbirlariga ajratmalar ham tarif stakasi tuzilishida me'yorlashtirilgan. Davlat sug'urta boshqarmasi amal qilgan davrlarda oldini olish tadbirlarini moliyalashtirishga mo'ljallangan mablag'lar budjetga yo'naltirilgan. Endi bu mablag'lar sug'urta tashkilotlarining o'zlarida bo'lmokda.

Sug'urta ishida ish yuritish xarajatlari muhim rol o'ynaydi. Ular sug'urtalovchilar faoliyatini moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, brutto-stavkaning yuklamasiga kiritiladi va sug'urta operatsiyalari tannarxining muhim elementi hisoblanadi. O'z tarkibiga mehnatga haq to'lash xarajatlari, xo'jalik va idora xarajatlari, xizmat safarlari va ba'zi boshqa xarajatlarni oladi.

Jahon amaliyotida ish yuritish xarajatlari akvizitsion, inkassa, bartaraf (likvidatsiya) qilish va boshqaruv xarajatlariga bo'linadi.

Akvizitsion xarajatlar yangi sug'urta shartnomalarini tuzish maqsadida amalga oshiriladi. Ularga akvizitsion komissiya, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va boshqa xarajatlar kiradi. Akvizitsion xarajatlar yangi sug'urta turlari joriy qilinib qo'llanilayotganda tez o'sib boradi.

Inkassa xarajatlari – bu sug'urta tashkiloti xodimlarining sug'urta to'lovlari yig'ganlik va sug'urtalanuvchilarga xizmat ko'rsatganliklari uchun mehnatiga haq to'lash xarajatlari. Inkassa xarajatlari brutto-stavkadan komission tamoyillarda foizlar bo'yicha hisoblanadi.

Bartaraf (likvidatsiya) qilish xarajatlari odatda bevosita xarajat hisoblanadi va sug'urta hodisasi ro'y bergandan so'ng amalga oshiriladi. Boshqa bevosita xarajatlar singari ular konkret sug'urta turiga tegishli bo'ladi. Bunday xarajatlar tarkibiga mazkur holat bilan bog'liq bartaraf qiluvchi va ekspertni sug'urta hodisasi ro'y bergan joyga borish-kelish yo'l xarajat-

lari, ekspertlarni rag'batlantirish xarajatlari, sud xarajatlari va boshqalar kiradi.

Boshqaruv xarajatlari o'z tarkibiga sug'urta tashkilotining ma'muriy-boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to'lash xarajatlari, ma'muriy-xo'jalik xarajatlari va sug'urtani rivojlantirish xarajatlarini oladi.

8.6. Sug'urta tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari.

Keyingi yillarda mamlakat sug'urta xizmatlari bozorida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uni erkinlashtirish doirasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 5 apreldagi VIII- sessiyasida «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan sug'urta kompaniyalarning investitsiya faoliyatini amalga oshirilishi belgilandi.

Sug'urta kompaniyalari asosiy faoliyat bilan bir qatorda investitsiya faoliyatini ham amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Odatda, sug'urta kompaniyalari sug'urtaviy xizmat ko'rsatishi o'ziga xos xususiyatga ega ya'ni, mijoz dastlab sug'urtalovchiga sug'urta badalini shartnoma tuzilishi bilan to'laydi. Sug'urta shartnomasi muddatining tugashi xizmat to'liq ko'rsatilganligini bildiradi. Demak, sug'urta kompaniyalarida moliya resurslarining harakati xususiyatlari shunga olib boradiki, sug'urta kompaniyalari ixtiyorida shartnomani amal qilish mobaynida qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiyalash mumkin bo'lgan vaqtinchalik majburiyatdan holi bo'lgan katta miqdorda vaqtincha bo'sh mablag'lar to'planadi. Sug'urtalovchilar bu mablag'larni ko'shimcha daromad olish maqsadida turli obyektlarga investitsiya qilishlari mumkin.

Sug'urta tashkilotlari tasarufida katta miqdordagi moliyaviy resurslarni to'planishi, ularni iqtisodiyotni rivojlanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Sug'urta qiluvchilar tomonidan moliya resurslarining to'planishi sug'urtani faol investitsion

siyosat yo'li bilan iqtisodiyotning asosiy omiliga aylantiradi. Boshqacha so'z bilan aytganda, sug'urtalovchilar turli polis egalaridan olingan passiv pul mablag'larni moliya bozorida harakat qiluvchi aktiv kapitalga aylantirishadi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, sug'urta kompaniyalar bo'sh mablag'larini turli obyektlarga investitsiya qilish imkoniyati tug'ildi. 1993-yilning 6 mayida qabul qilingan «Sug'urta to'g'risida»gi Qonunning 25-moddasida «Sug'urta tashkilotlari o'z moliyaviy manbalarini barqaror saqlab turish maqsadida investitsiya berishga yoki sug'urta zaxiralari va o'zga mablag'lardan boshqa yo'l bilan foydalanishga haklidir», deb ko'rsatilgan edi. Ammo 2002-yilning 5 aprelida qabul qilingan «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq «Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirish bilan bevosita bog'lik bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas» deb belgilangan. Demak, sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyati qat'iy cheklanadi. Shuningdek, ushbu qonunning yuqorida ko'rsatib o'tilgan moddasida sug'urtalovchilar maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartib va shartlardagi investitsiya faoliyati bilan shug'ullanishlariga ruxsat berilgan.

Sug'urta kompaniyasining investitsion jarayonlarda ishtirok etishligini uni investitsion imkoniyatlari belgilaydi.

Sug'urta kompaniyasining investitsion imkoniyatlarini quyidagi omillar belgilaydi:

1. Mijozlar soni va sug'urta mukofoti hajmiga bog'liq bo'lgan vaqtinchalik bo'sh mablag'lar xajmi;
2. Muddatlar, ya'ni bu vaqt davomida ushbu mablag'lardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Sug'urta kompaniyasi investitsion portfelni tizimi, uning moliyaviy barqarorligini ta'minlashi lozim va u odatda sug'urta nazorati me'yorlari bilan belgilanadi. Unda sug'urta zaxiralari-ning vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larini joylashtirish tartibi belgilangan, davlat tomonidan sug'urta investitsiyalarining

ma'lum bir himoyasi ta'minlangan va sug'urta investitsiyasining aniqlangan ustuvorligi belgilangan.

Investitsiya - bu tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyatda daromad (foyda) olish obyektlariga mablag'larni joylashtirish.

Sug'urta tashkilotlarining aktivlarini joylashtirish **likvidlik, qaytarishlik, foydalilik** va **diversifikatsiya** tamoyillari asosida amalga oshirilishi lozim.

Aktivlarni likvidligi - sug'urta kompaniyalari aktivlarni tezlik bilan naqd va boshqa to'lov mabag'lariga aylantirib, olingan majburiyatlarni tugatishga qaratilgan imkoniyat tushuniladi.

Qaytarishlik - investitsiya mablag'larini to'liq hajmda qaytarilishi tushiniladi. Qaytarishlik tamoyillari (ishonchlilik) sug'urtalovchilar oldiga qo'yilmalarni xavfsiz sharoitda maksimal imkoniyatlarga, ya'ni investitsiya risklarini minimum darajasiga erishish vazifasini qo'yadi.

Sug'urta kompaniyalarining investitsiya faoliyatini boshqarishni asosiy maqsadlaridan biri, bu - o'z investitsiya faoliyatidan to'g'ri va oqilona foydalanishni boshqarish orqali samaraga erishishdir. Buning uchun sug'urta kompaniyasining investitsiya siyosati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- sug'urta kompaniyasi investitsiya portfelining barqarorligi ta'minlanishi shart. Shundan investitsiya siyosati uning ishonchli bo'lishi orqali sug'urta kompaniyasining barqarorligi va raqobatdoshligi oshiradi;

- investitsiyaning daromadli va ishonchli yo'nalishini ta'minlash sug'urta kompaniyasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Investitsiya portfelini samarali shakllantirishda birinchi navbatda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- sug'urta hodisasining sodir bo'lish va to'lov majburiyatining bajarish extimolligi;

- investitsiya tavakkalchiligida sug'urta zaxiralarini yo'qotish extimolligi.

Sug'urta kompaniyasining investitsiya siyosatidagi sug'urta hodisasi *extimolligi* uning faoliyati xususiyatidan kelib chiqadi, chunki sug'urta kompaniyasi shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mulkiga tasodifan yetgan zararni qoplashni sug'urta shartnomasi shartlariga asosan o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun investitsiya rejalashtirilayotgan to'lov majburiyatlarining bajarilishi *extimolligi* asosiy omillardan biri hisoblandi.

Sug'urta fondlarini investitsiya qilish investitsiya faoliyatining boshqa turlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu, bir tomondan, sug'urtaning tavakkalli tabiati bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, sug'urta fondlari vaqtincha bo'sh mablag'largina xalos. Ular istalgan vaqtda sug'urtaviy majburiyatlarni bajarishga yo'naltirilishi mumkin. Shuning uchun, sug'urta tashkilotlarini investitsion amaliyotida ham investitsion, ham sug'urta faoliyatining asosiy maqsadi va vazifalarini mujassamlashtiruvchi o'z tamoyillari ishlab chiqilgan. Bu tamoyillar **ishonchlilik, likvidlilik, diversifikatsiya va qo'yilmalarning daromadlilikidan** iborat.

Sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri uning davlat tomonidan yetarlicha qattiq tartibga solinishi hisoblanadi. Bunda, davlat sug'urtalovchilarning investitsion faoliyatini to'liq tartibga solmaydi, balki faqatgina sug'urta zaxiralarini joylashtirish qoidalarini o'rnatish bilan sug'urta fondlarini investitsiya qilish jarayoni. Bunday tartibga solishning zarurligi quyidagi ikki omil bilan asoslanadi. *Birinchi*dan, moliyaviy resurslarni harakati xarakteri bilan, qaysiki sug'urtalovchi ixtiyorida ma'lum davr davomida vaqtincha bo'sh mablag'lar (ammo, ularning barchasi sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bilan bog'liq emas) bo'ladi va bu mablag'lar qo'shimcha daromad olish maqsadida investitsiya qilinishi mumkin. *Ikkinchi*dan, bu mablag'larni sug'urtalovchi majburiyatlarga ega bo'lgan, ya'ni sug'urtalanuvchi va sug'urta qildiruvchilar tomonidan investitsiya qilinishi ustidan nazorat qilishning imkoniyati yo'qligi bilan.

Sug'urta fondlarini investitsiya qilishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

– mablag'larni joylashuvini sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlarga muddatlari va hajmlari bo'yicha moslashtirish;

– milliy manfaatlarni himoya qilish, misol uchun, chet elga investitsiya qilish bo'yicha mamlakat sug'urtalovchilariga cheklovlar o'rnatish;

– sug'urtalovchilar tomonidan ishonchlilik, likvidlilik, diversifikatsiya va qo'yimalarning daromadliligi tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5 aprelda qabul qilingan "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom", O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 3 iyuldagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi nizom"lar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2009-yil 3 iyuldagi 68-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi nizom" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-618-sonli qaroriga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatiga talablarni o'rnatadi.

Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyatining obyekti quyidagilar hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;
- xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari;

- bank sertifikatlari (depozit sertifikatlari);
- kredit tashkilotlaridagi omonatlar (depozitlar);
- ko‘char va ko‘chmas mulk (binolar, inshootlar, jixozlar va boshqa moddiy qiymatliklar) va ularga egalik huquqi;
- yuridik shaxslarning ustav kapitalida ulushli ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi hududida chivarish va muomalaga kiritishga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ruxsat berilgan qimmatli qog‘ozlar yoki tegishli vakolatli davlat organi tomonidan qimmatli qog‘ozlar bozorida faoliyat olib borish uchun berilgan litsenziya (ruxsatnoma)ga ega bo‘lgan horijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan va bozorda muomalaga kiritilgan qimmatli qog‘ozlar.

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) qonunchilikka zid bo‘lmagan investitsiya faoliyatining boshqa obyektlariga ham investitsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Yuridik va jismoniy shaxslarning qonun bilan himoyalangan manfaatlarini va huquqlarini poymol qiluvchi, qurish va foydalanishning qonunchilik bilan o‘rnatilgan sanitar-gigienik, radiatsion, ekologik, arxitektura-shaharsozlik va boshqa talablariga javob bermaydigan obyektlarga *investitsiya qilishi taqiqlanadi*.

Investitsion faoliyatga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) o‘z aktivlarini *ishonchlilik, likvidlik, diversifikatsiya* va *daromadlilik* tamoyillari asosida joylash-tirish shart.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirishda sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) quyidagi asosiy shartlarni bajarishi lozim:

- investitsiyalarni va ular bilan bog‘liq risklarni omilkorlik bilan boshqarish;
- axborot tiniqligi va maxfiyligini ta‘minlash.

Investitsiyalarni va ular bilan bog‘liq risklarni omilkorlik bilan boshqarish sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) tomonidan quyidagi yo‘llar bilan ta‘minlanadi:

– sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi)ning investitsiya faoliyatini asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan investitsiya siyosatini tasdiqlash;

– investitsion faoliyatni tashkil etishga, zarurat bo‘lganda, investitsion maslahatchilarni, investitsion aktivlarni ishonchli boshqaruvchilarni yoki qimmatli qog‘ozlar bozorining boshqa professional ishtirokchilarini jalb qilish;

– investitsiya obyektlarini tahlil qilish va olingan daromadlilikni davriy baholash va sh.k.

Axborot tiniqligi va maxfiyligini ta‘minlash quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

– qonunchilik talablariga muvofiq tarzda ma‘lumotlarni oshkor qilish;

– amalga oshirilgan investitsiyalar to‘g‘risida ta‘sischilar oldida yillik hisobot berish;

– sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi)ning investitsion siyosatiga muvofiq ravishda sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) xodimlari va boshqaruv organi a‘zolari tomonidan xizmat va maxfiy axborotlardan foydalanish.

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) investitsion faoliyatni amalga oshirishda quyidagilarga majbur:

a) qonunchilik talablariga rioya qilish;

b) moliyaviy, texnik, axborot resurslari mavjudligini ta‘minlash;

v) investitsion riklarni to‘laqonli baholashni amalga oshirish va samarali qarorlar qabul qilish uchun malakali xodimlar bilan ta‘minlash;

g) javobgar shaxsning mablag‘larni investitsiya qilish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi yozma xulosalarini olish;

d) javobgar shaxsning Nizom bilan o‘rnatilgan malaka talablariga mos kelishligini ta‘minlash.

Sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi) investitsion faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan va sug‘urtalovchi (qayta sug‘urtalovchi)ning to‘lovga qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi

mumkin bo'lgan risklarni boshqarish tizimini tashkilga etishga majbur.

Investitsion faoliyatni amalga oshirish tartibi

Sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) har yili kelasi yil uchun investitsion siyosatini ishlab chiqadi va bu siyosat sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi)ning Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi tomonidan joriy yilning 20 dekabriga qadar tasdiqlanadi.

Investitsion siyosat quyidagi asosiy elementlarni nazarda tutishi kerak:

– investitsion faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan risklar tahlili;

– investitsion faoliyat obyektlari bo'yicha sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini uzoq muddatli taqsimlash;

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini investitsion faoliyat obyektlari, jug'rofiy hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlash limitlari;

– investitsion faoliyatning ma'lum obyektlariga investitsiya qilishni chegaralash yoki ta'qiqlash;

– javobgar shaxslar uchun sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini investitsiya qilishda qaror qabul qilish bo'yicha vakolatlari va cheklolari chegaralarini belgilash;

– javobgar shaxslar uchun qo'shimcha malaka talablari;

– javobgar shaxs tomonidan ekspertiza o'tkazish va xulosa tayyorlash tartibi;

– investitsion faoliyat bilan bog'liq og'irlashgan sharoitlarning oqibatlarini yumshatish bo'yicha favqulotda holatlardagi harakatlar rejasi.

Javobgar shaxs mablag'larni investitsiya qilish haqidagi qarorni qabul qilguniga qadar zaruriy hujjatlarni (biznes-reja, hisobotlar va sh.k.) yig'adi va mablag'larni investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan ekspertiza o'tkazadi. Javobgar shaxs ekspertiza natijalari bo'yicha zaruriy hujjatlarni olganidan keyin bir hafta muddat ichida yozma shaklda o'zining xulosasini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2008-yil 22 apreldagi 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi nizom"ning IV bo'limida sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) aktivlarini joylashtirishga oid talablar o'rnatilgan. Unga ko'ra:

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitaliga joylashtirgan aktivlarining umumiy summasi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 50 foizi miqdori bilan chegaralanadi;

– sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) har qanday bitta yuridik shaxsning ustav kapitalida ishtirok etish ulushi ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalining 30 foizidan oshmasligi shart (agar qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa), sug'urta faoliyati, shuningdek sug'urta faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshiradigan sho'ba korxonalar bundan mustasno;

– sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlari ko'chmas mulk obyektlariga joylashtirilganda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 50 foizidan ortig'ini bitta yer uchastkasi yoki ko'chmas mulkning boshqa obyektiga yoxud bitta obyekt sifatida ko'rilishi mumkin bo'lgan yer uchastkalari va ko'chmas mulk obyektlari majmuiga joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi;

– sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini bank omonatlariga (depozitlariga) joylashtirishda, bitta tijorat bankiga joylashtirilgan omonat sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 40 foizidan oshmasligi shart;

– sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) aktivlarini kredit tashkilotlarida (tijorat banklaridan tashqari) omonatlarga (depozitlarga) joylashtirishda, omonatlarning (depozitlarning) umumiy summasi sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarining 10 foizidan oshmasligi shart;

– sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) aktivlarini bitta yuridik shaxsning ustav kapitaliga joylashtirish yoki bitta yuridik shaxsda ishtirok etish boʻyicha boshqa huquqlari, agar qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan boʻlsa, sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) aktivlarining 30 foizidan oshmasligi shart;

– sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) aktivlarini quyidagi yoʻllar bilan joylashtirish taqiqlanadi:

– intellektual mulkka qoʻyilmalar (dasturiy taʼminot, maʼlumotlar bazasi, adabiyot, firma nomlari va tovar belgilarini xarid qilish bundan mustasno);

– mazkur Nizomda nazarda tutilgan hollardan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar bilan qarz shartnomasini tuzish (moliyaviy yordam berish);

– sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) oʻz taʼsischilari, aksiyadorlari va xodimlariga, shuningdek u bilan hayot sugʻurtasi shartnomasini tuzgan sugʻurta qildiruvchilarga ushbu shartnomalar bilan kafolatlangan qarzlarni berishga haqli. Bunda berilgan qarzlarning umumiy summasi sugʻurtalovchining (qayta sugʻurtalovchining) ustav kapitalining 10 foizidan oshmasligi shart;

– sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) oʻz mablagʻlari manbalari summasining 30 foizidan oshgan hajmdagi qarzlarni (moliyaviy yordamni) faqat Davsugʻurtanazoratni xabardor etgandan soʻnggina, olishga haqli;

– sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) kassa va/yoki hisob (valyuta) va boshqa bank raqamlarida oʻtgan oʻn ikki oy mobaynida hisoblangan sugʻurta tovonlari summasining 3 foizidan kam boʻlmagan miqdorda pul mablagʻlariga ega boʻlishi shart;

– sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) tomonidan bogʻliq shaxslarga imtiyozli shartlarni taqdim etish taqiqlanadi.

Imtiyozli shartlarni taqdim etish quyidagilarni anglatadi:

– mohiyati, maqsadi, oʻziga xos xususiyatlari va tavakkalchiligiga koʻra, sugʻurtalovchi (qayta sugʻurtalovchi) boshqa

shaxslar bilan, agar ular bilan alohida munosabatlar bo'lmagan taqdirda, tuzmaydigan bitimni tuzishi;

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) foydasiga boshqa mijozlardan talab qilinadigan summalardan kam bo'lgan foizlarni, badallarni undirish, investitsiyalarning ta'minoti sifatida garovga qabul qilish, shuningdek, boshqa to'lovlarni qabul qilish;

– yetarli asoslarsiz investitsiya mablag'larining qaytarilishini kechiktirish;

– sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) bog'liq shaxslar bilan faoliyatining ko'rsatkichlari sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan bitta yoki barcha bog'liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlar summasining sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitaliga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$CK = \frac{CA \times 100\%}{YK} \quad \text{yoki} \quad CK = \frac{YC \times 100\%}{YK}$$

bu yerda:

CK - sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) barcha bog'liq shaxslar bilan faoliyatining ko'rsatkichlari;

CA - sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan bitta bog'liq shaxsda joylashtirilgan aktivlar;

YC - barcha bog'liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlarning umumiy summasi;

YK - ustav kapitali.

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan bitta bog'liq shaxsda joylashtirilgan aktivlarning umumiy summasi, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 15 foizidan oshmasligi shart, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) tomonidan barcha bog'liq shaxslarda joylashtirilgan aktivlarning umumiy summasi sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) ustav kapitalining 100 foizidan oshmasligi shart;

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarni bog'liq shaxslarda faqat sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) Kuzatuv kengashi yoki boshqa vakolatli organi ruxsati bilan investitsiya qilinayotgan mablag'larning likvidligi, foydaliligi va qaytarilishini, shuningdek mazkur Nizom talablarini hisobga olgan holda tayyorlangan texnik-iqtisodiy asoslanish (biznes-reja) asosida joylashtirishga haqli;

– sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) aktivlarini sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) dastlabki ikki yillik faoliyati davomida bog'liq shaxslarda joylashtirish taqiqlanadi;

– xususiy mulk yoki unga bo'lgan huquq garovga berilganda, kafolat berilganda yoxud balansda aks etmagan boshqa majburiyat qabul qilinganda, sug'urtalovchi (qayta sug'urtalovchi) 5 kundan kechikmagan muddatda Davlat sug'urta nazorat inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Moliya vazirligi prezidentning «O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirilishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori loyihasida quyidagilar taqiqlash taklif etilmoqda:

– sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) faoliyatiga ma'muriy aralashuv, sug'urta zaxiralarning maqsadli mablag'larini o'zga maqsaddagi xarajatlar, xayriya va boshqa maqsadlarga yo'naltirish va qo'llash;

– sug'urtalovchini (qayta sug'urtalovchini) shartnomalar tuzishga va asossiz ravishda, yuz berishi aniq bo'lgan xatarlarni zimmasiga olishga majburlash;

– bozordagi sog'lom raqobat prinsiplarini buzish, tariflarning bozordagi o'rtacha tariflardan asossiz ravishda va ancha farqlanishi, sug'urta xizmatlarini sotishda demping sxemalaridan foydalanish.

Qonunbuzarliklar uchun aybdor shaxslarga nisbatan sug'urtalovchilarga (qayta sug'urtalovchilarga) yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplagan holda egallab turgan lavozimidan ozod qilish, faoliyatida ushbu dalillar aniqlangan sug'ur-

talovchilarning litsenziyalarini esa chaqirib olishgacha bo'lgan qat'iy choralar qo'llanadi.

Shuningdek quyidagilar rejalashtirilmoqda:

– sug'urta tashkilotlarining alohida bo'linmalari rahbari va bosh buxgalteri lavozimiga nomzodlarni oldindan kelishib olish amaliyotini bekor qilib, to'liq javobgarlikni sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) rahbariyati zimmasiga yuklash;

– 2018–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirilishini ta'minlash bo'yicha yo'l xaritasini ma'qullash;

– sug'urta faoliyati turlari va sohalariga qarab tabaqalash-tirilgan sug'urtalovchilar ustav kapitalining eng kam miqdor-larini oshirish;

– 2019 yil 1 yanvardan boshlab bo'shatilayotgan mab-lag'larni ustav kapitalini oshirishga maqsadli yo'naltirgan va ularni mazkur qaror bilan qo'yiladigan talablarga muvofiq-lashtirgan holda mulkchilik shaklidan qat'i nazar sug'urtalovchilarni (qayta sug'urtalovchilarni) daromad (foyda) solig'ini to'lashdan ozod qilish;

– sug'urta tovonlarini to'lash haqidagi arizalarni ko'rib chiqish tartib-taomillarini birxillashtirish va soddalashtirishni nazarda tutuvchi sug'urta e'tirozlarini tartibga solishning na-munaviy uslubiyatlarini joriy etish;

– sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) xalqaro moliyaviy hisobot va hisob standartlariga bosqichma-bosqich o'tishini amalga oshirish;

– sug'urtalovchilarning (qayta sug'urtalovchilarning) KPMG, PwC, Deloitte va boshqa yetakchi auditorlik kompani-yalarining xulosalarini, shuningdek Moody's, Fitch va Stan-dard&Poors xalqaro reyting agentliklarining reyting baholarini bosqichma-bosqich olishlarini ta'minlash;

– sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar) hamda maxsus vakolatli davlat organi o'rtasida real vaqt rejimida masofadan turib sug'urta xizmatlari ko'rsatish va elektron ma'lumotlar

ayirboshlash uchun biznes-jarayonlarni va tartib-taomillarni raqamlashtirish;

– to'lov qobiliyatini, moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash, aktivlar, investitsiya portfelining sifatini, xususiy kapital, sug'urta zaxiralari mablag'lari va boshqa majburiyatlarni joylashtirish transparentligini oshirish;

– korporativ boshqaruv tizimini, sug'urta tavakkalchiliklari va risk-menejment baholanishini takomillashtirish;

– aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligi va sug'urta bozoriga ishonch darajasini oshirish;

– mijozlarning sug'urta xizmatlariga ehtiyojlarini muntazam monitoring qilish, sug'urta xizmati ko'rsatish madaniyatini oshirish va aholi orasida talabgir bo'lgan sug'urta xizmatlarini ko'rsatish.

2019 yil 1 yanvardan boshlab sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) ustav kapitalida quyidagilarning ishtirok etishini taqiqlash taklif etilmoqda:

– offshor zonalarda ro'yxatdan o'tkazilgan norezident yuridik shaxslar va offshor zonalarda yashovchi fuqarolar;

– mazkur sug'urtalovchi o'z faoliyatini amalga oshirayotgan xuddi shu sug'urta sohasida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlari.

Faoliyat yuritayotgan sug'urtalovchilarga ustav kapitali tuzilmasini ushbu talablarga muvofiqlashtirish majburiyatini yuklash rejalashtirilmoqda.

Yetakchi xalqaro sug'urta kompaniyalarini texnologik hamkor va/yoki muassis sifatida jalb etgan holda yirik qayta sug'urtalash kompaniyasini tashkil etish tashabbusiga qo'l urildi.

Mavzuni takrorlash uchun savollar

1. Sug'urta tashkilotlari moliyasining xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Davlat mulkchiligi ishtirokidagi sug'urta tashkilotlari tizimi faoliyatida qanday fondlardan foydalaniladi?
3. Sug'urta tashkilotlarining daromadlari qanday manbalardan tashkil topadi?
4. Sug'urta tashkiloti uchun foyda olishning asosiy manbai bo'lib qanday faoliyat hisoblanadi?
5. Sug'urta tashkilotlarining xarajatlari qanday turkumlanadi?
6. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy natijalari qanday aniqlanadi?
7. Sug'urta operatsiyalaridan olinadigan daromadni tushuntiring.
8. Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatidan oladigan daromadlarini tushuntiring.
9. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsiya faoliyatini ijtimoiy ahamiyati nimadan iborat?
10. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsiya faoliyatini iqtisodiy ahamiyati nimadan iborat?
11. Sug'urta kompaniyalarining mablag'lari qanday tamoyillar asosida joylashtiriladi?
12. Sug'urta fondlarini investitsiya qilishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?
13. Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar)ning investitsion faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?

Mustaqil o'zlashtirish uchun test savollari

1. Sug'urta fondini sarflanishi bilan bog'liq atamalarga quyidagilarning qaysi biri kiradi?
A. sug'urta akti

- B. sug'urta obyektini
- C. sug'urta franshizasi
- D. sug'urta brokeri

2. Ixtiyoriy sug'urtaning asosiy belgisi qaysi biri?

- A. sug'urta badalini to'lash jarayoni bilan bog'liq
- B. sug'urta ta'minotini amalga oshiriladi
- C. qonun asosida tartibga solinadi
- D. sug'urta badal to'lash bilan bog'liq emas

3. Sug'urta summasi nimaga nisbatan aniqlanadi?

- A. sug'urta mukofotiga nisbatan.
- B. sug'urta obyektiga nisbatan.
- C. sug'urtalovchining moliyaviy imkoniyatini hisobga olgan holda.
- D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

4. Sug'urta tashkilotlari savdo-vositachilik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlimi?

- A. haqli.
- B. qisman haqli.
- C. haqli emas.
- D. qisman haqli emas.

5. Sug'urta zahiralari investitsiya obyektlariga qanday shartlarda joylashtiriladi?

- A. diversifikatsiya shartlarida.
- B. faqat savdo-vositachilik bitimlarini moliyalashtirish shartlarida.
- C. sug'urta zahiralari 100 foiz davlat qimmatli qog'ozlariga joylashtirishi sharti bilan.
- D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

6. Sug'urta hodisasi ro'y berishi tufayli ko'rilgan zarar qaysi hujjat asosida sug'urtalanuvchiga qoplanadi?

- A. sug'urta polisi asosida.
- B. sug'urta shartnomasi asosida.
- C. sug'urta dalolatnomasi asosida.
- D. sug'urta summasi asosida.

7. Sug'urta mukofoti aniqlanadi:

- A. obyektning bozor bahosiga nisbatan.
- B. obyektning balans qiymatiga nisbatan.
- C. obyektning sug'urta summasiga nisbatan.
- D. obyektning haqiqiy qiymatiga nisbatan.

8. Quyidagi manfaatlardan qaysi biri sug'urta himoyasiga olinishi mumkin emas?

- A. garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi zarur bo'lgan xarajatlarni sug'urta himoyasiga olish.
- B. garovga qo'yilgan mol-mulklarni.
- C. jismoniy shaxslarning xizmat muddatini o'tagan mol-mulklarini sug'urta himoyasiga olish.
- D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

9. Sug'urtalovchilarning zabira mablag'lari qaysi maqsadda ishlatiladi?

- A. sug'urta tashkiloti joylashgan binoni saqlash xarajatlarini moliyalashtirishga.
- B. sug'urta hodisasi ro'y berganda yuzaga keladigan zararlarni qoplashga.
- C. sug'urtalovchining ogohlantirish tadbirlarini moliyalashtirishiga.
- D. yuqorida to'g'ri javoblar ko'rsatilmagan.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1. Masala. Korxonaning 25 mln. so'mlik mulki 1 yil muddatga bir yo'la ikkita sug'urta kompaniyasida sug'urtalangan bo'lib, birinchi sug'urta kompaniyasida tuzilgan sug'urta shartnomasining sug'urta summasi 12 mln. so'm va ikkinchi sug'urta kompaniyasida tuzilgan sug'urta shartnomasining sug'urta summasi 15 mln so'm. Ko'rilgan zarar summasi 21 mln. so'm. Har bir sug'urta kompaniyasi qanchadan miqdorda sug'urta qoplamasi to'lashini hisoblang?

2. Masala. Haydovchining ish stajidan kelib chiqqan holda tarif stavkalari quyidagicha (sug'urta summasiga nisbatan foizda): 1 yilgacha 5.8 %, 1 yildan 5 yilgacha – 3.6 %, 5 yildan 10 yilgacha – 2.9 %. Agar transport korxonasida 1 yilgacha staj bilan ishlayotgan haydovchilar –4 kishi, 1 yildan 5 yilgacha staj bilan ishlayotgan haydovchilar – 3 kishi, 5 yilda 10 yilgacha staj bilan ishlayotgan haydovchilar 2 kishi bo'lsa ixtiyoriy sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti hajmini aniqlang. Har bir haydovchi uchun sug'urta summasi 5 mln. so'm.

3. Masala. Korxonona bankdar 15 mln. kreditni yillik 24 foiz ustama bilan 8 oy muddatga oldi va bank oldidagi o'z javobgarligini sug'urta kompaniyasida sug'urta qildi. Sug'urtalovchining javobgarligi 60 foiz., tarif stavkasi 2,5 foiz. Sug'urta summasi va sug'urta mukofotini hisoblang?

4. Masala. 60 mln. qiymatga ega bo'lgan bitta obyekt bitta sug'urta shartnomasi bilan uchta sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalandi. Bunda birinchi sug'urtachi 25 mln. so'mlik javobgarlikni, ikkinchi sug'urtachi 20 mln. so'mlik javobgarli-

kni va uchinchi sug'urtachi 15 mln. so'mlik javobgarlikni o'z zimmasiga oldi. Sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida obyektga 18 mln. so'mlik zarar etdi.

Har bir sug'urtalovchi tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasi hajmini aniqlang?

5. Masala. Iste'mol tovarlari bilan savdo qiluvchi do'konda 20 iyun kuni yong'in yuz berib tovarlarga zarar etdi. 1 iyun kuni do'konda 35 mln. so'mlik tovar mavjud edi. 1 iyundan 20 iyunga qadar 28 mln. so'mlik tovar kelib tushgan, kassadan 32 mln. so'mlik naqd pul bankka topshirilgan, 6 mln. so'm kassada mavjud. joriy yo'qotishlar 12 ming so'm.

1) Yong'indan keyin saqlab qolingani tovarlar hisoblab chiqilganda 20 mln. 36 ming so'mlik tovar qolganligi ma'lum bo'ldi. Muomala xarajatlari – 10%, savdo qo'shimchasi -25%. Mulklarni saqlab qolish va tartibga keltirish xarajatlari – 86 ming so'm. Sug'urta summasi sug'urta shartnomasi tuzilgan vaqtdagi tovarlarning haqiqiy qiymatiga nisbatan 70%.

Sug'urtalanuvchining zararini va sug'urta qoplamasi hajmini aniqlang?

6. Masala. Kredit shartnomasiga ko'ra jami kredit summasi 20 mln. so'm bo'lib, yillik 18 foiz bilan 8 oyga berilgan. Sug'urta tarifi sug'urta summasiga nisbatan 2,5 foiz. Sug'urtalovchining javobgarlik chegarasi – 90 %. Kredit oluvchi olgan kreditini o'z vaqtida to'lay olmadi.

Sug'urta mukofoti, zarar va sug'urta qoplamasining hajmini aniqlang?


7. Masala. Kredit shartnomasiga ko'ra olingan jami kredit summasi 25 mln. so'm bo'lib, yillik 20 foiz bilan 10 oyga berilgan. Sug'urta tarifi sug'urta summasiga nisbatan 2,4 foiz. Sug'urtalovchining javobgarlik chegarasi – 80 %. Kredit oluvchi olgan kreditini o'z vaqtida to'lay olmadi.

Sug'urta mukofoti, zarar va sug'urta qoplamasining hajmini aniqlang?

8. Masala. Korxonaning 25 mln. soʻmlik mulki 1 yil mudatga bir yoʻla ikkita sugʻurta kompaniyasida sugʻurtalangan boʻlib, birinchi sugʻurta kompaniyasida tuzilgan sugʻurta shartnomasining sugʻurta summasi 12 mln. soʻm va ikkinchi sugʻurta kompaniyasida tuzilgan sugʻurta shartnomasining sugʻurta summasi 15 mln soʻm. Koʻrilgan zarar summasi 21 mln. soʻm.


Har bir sugʻurta kompaniyasi qanchadan miqdorda sugʻurta qoplamasi toʻlashini hisoblang?

TOPSHIRIQLAR



1. Umumiy sugʻurta qilish tarmogʻi klaslari boʻyicha taʼrif stavkasini aniqlashda ... muhim hisoblanadi?

2. Sug'urta faoliyatini tartibga solish hujjatlari a) maxsus b) ...
3. Sug'urta riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi?
4. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi ... bilan bog'liq.
5. Sug'urta turlari bo'yicha ... hisob – kitobida sug'urta obyektiv qiymati hisoblanadi.
6. Iqtisodiy savdo jihatdan o'zaro yaqin munosabatdagi mamlakatlar ichki bozori nima?
7. ... sug'urta badallari hisobidan shakl
8. Sug'urta badali asosida yotuvchi ta'rif stavkasi-
9. ... hisob-kitob ta'rif stavkalarini hisoblashning matematik ehtimoliy usullari yig'indisi.
10. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash shartnomasi ... shartnoma hisoblanadi.



1. Asosan xavfli yirik obyektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi.

2. Renta va nafaqalar sug'urtalashning umumlashtiruvchi tushuncha.

3. Sug'urta subyektlari diqqat markazi.

4. Ixtiyoriydan tashqari sug'urta

5. Xavf xatar degan ma'noni bildiradi

6. Sog'liq bilan bog'liq sug'urta

7. Sug'urtalanuvchi o'z foydasidan voz kechishi

8. Aktuariya qaysi tildan olingan

9. Sug'urtalanuvchining ilk bosqichi

10. Sug'urtalanuvchi va sug'uralovchi o'rtasidagi shaxs

11. Sug'urta dillerlarining vazifasi

12. Jahon amaliyotida qo'llaniladigan polisdan biri

GLOSSARIY

Abandon - to'liq miqdordagi sug'urta summasini olish uchun sug'urtalanuvchining sug'urtalangan mol-mulkdan sug'urtalovchining foydasiga voz kechishi (sug'urtalangan kema nobud bo'lganda, u xabarsiz yo'qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Abandon to'g'risidagi ariza voqea-xodisa ro'y bergandan keyin olti oy mobaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug'urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat, Angliya qonunchiligida abandon uchun sug'urtalovchining roziligi talab etiladi.

Avariya komissari - sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararning xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berganlik sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarining chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta xodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi.

Avariya sertifikatini - mol-mulk sug'urta xodisasi tufayli zararlenganda, ko'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikatini avariya komissari (adjuster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya xaqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova etiladi va qoplamaning to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Addendum - ilgari tuzilgan sug'urta va kayta sug'urtalash shartnomasiga tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan qo'shimchalar kiritish.

Adjaster - sug'urta xodisasi ro'y berishi munosabati bilan sug'urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e'tirozni tartibga solishda sug'urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki xuquqiy shaxs. U sug'urtalanuvchi bilan unga to'lanadigan sug'urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug'urta xodisasini ro'y berish sabablarini o'rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo'yicha sug'urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Aktuariy - lotin tilidan tarjima qilganda hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zahiralarini shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi paytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

Aktuar hisob-kitoblar - sug'urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig'indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi, ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasini miqdori sug'urta hodisalari ro'y berishining ehtimoliyligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayotni sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga yetganda to'la-

nadi. Yetarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun, sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga yetishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi o'limi darajasi xaqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga yetishi ehtimolligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqani va hayotni sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalarini hisoblash mumkin.

Anderrayter - 1) turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasining sug'urta portfelini shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur; 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasini a'zosi; 3) potensial mijozlarga sug'urta polisini sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlarni ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Anderrayter siyosati- sug'urtalash bilan bog'liq yangi takliflarni ko'rib chiqish va mazkur taklifni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida xulosalar chiqarishga qaratilgan siyosat.

Anderayting - 1) sug'urtalash maqsadida riskni baholash; 2) sug'urta shartnomalarini tuzish va uning shartlarini bajarish; 3) sug'urta.

Annuitet - 1) renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadini sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniyada, Fransiyada va AQShda keng rivojlangan.

Audit - sug'urta kompaniyasining moliyaviy hisoboti to'g'riligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ish-

ini maxsus malakaga ega bo'lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan sug'urta kompaniyasi o'rtasida shartnoma tuziladi. O'zbekiston Respublikasida audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo'lgan shaxslar amalga oshirishi mumkin. Sug'urta kompaniyasining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng matbuotda e'lon qilinadi.

Bonus - sug'urta kompaniyasi o'zi uchun qulay shartlarda sug'urta shartnomasini tuzganligi uchun sug'urtalanuvchiga, u to'laydigan sug'urta mukofoti miqdoridan chegirmalar belgilaydi.

Brutto-mukofot - sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan xoldagi sug'urta mukofotlari summasi.

Bosh polis- sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha obyektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. Chet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonament» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni junatish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa yetarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.

Birgalikda sug'urta qilish - bitta sug'urta shartnomasi doirasida riskni ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining xuquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga muvofiq alohida polis beriladi.

Brutto - stavka - sug'urta qoplamasini (sug'urta summasini) to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summa-

larini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi.

Denonsatsiya - shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.

Depozit - 1) sug'urta kompaniyasining bank muassasasida saqlanadigan pul mablag'i yoki qimmatli qog'ozlari. Bank, odatda, sug'urta kompaniyasiga o'z pulini bankda saqlagani uchun foiz to'laydi; 2) *ayrim mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq, chet mamlakat sug'urta kompaniyasi, agar, biror boshqa mamlakatda sug'urta faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lsa, dastlab u o'sha mamlakat bank muassasasiga tegishli pul mablag'ini depozitga qo'yadi. Mazkur depozit, chet davlat sug'urta kompaniyasining boshqa mamlakat xududida sug'urta faoliyatini amalga oshirishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.*

Diversifikatsiya - yirik sug'urta kompaniyalarining asosiy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanishi. Masalan, sug'urta vositachiligi, qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, ko'chmas mulk bilan shug'ullanish va xakozo.

Depozitlarni sug'urta qilish - banklar bankrot deb e'lon qilinganda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larini ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQShda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQShda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSh dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.

Dispasher - dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlan-

gan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun xaqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

Yevropolis - yevropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.

Zahira fondi - joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan sug'urta qoplamasini to'lash imkoniyati bo'lmaganda, ushbu sug'urta qoplamasini to'lash uchun foydalaniladigan pul mablag'lari fondi. Ma'lumki, sug'urta xodisalari tufayli ko'rilgan yo'qotishlar va zararlar miqdori har yili harxil bo'ladi. Ayrim yillari sug'urta xodisalari kam, boshqa yili esa ko'proq bo'lishi mumkin. Agar sug'urta xodisalari soni ko'p bo'lib, ko'rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan bir necha marta ko'p bo'lsa, ularning farqi zahira fondi hisobidan qoplanadi.

Kargo - transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi.

Kasko - transport vositasining borti. Kasko sug'urtasi transport vositasini nobud bo'lishi yoki shikastlanishi o'z ichiga oladi.

Kaf - tashqi savdo shartnomasi bo'yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) yetkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog'liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo'yicha tovarlarni sug'urta qilish tovar yetkazib beruvchining (sotuvchi) majburiyatiga kirmaydi.

Kasbiy javobgarlik - chet el tajribasida vrachlarning, advokatlarning, auditorlarning, notariuslarning, buxgalter, arxitektor va boshqa kasb egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasini tasdiqlaydigan sug'urta polisining atalishi. Ushbu kasb egalari xususiy

amaliyot bilan shug'ullanalarida, ularda sug'urta polisining bo'lishi majburiydir.

Kvota - 1) bir necha sug'urta kompaniyasi tomonidan birgalikda tegishli obyekt sug'urtalanayotganda, bitta sug'urta kompaniyasiga to'g'ri keladigan hissa. Bunday xolatda har bir sug'urta kompaniyasiga tegishli kvota yagona sug'urta polisida o'z aksini topadi; 2) qayta sug'urtalash kompaniyasini qayta sug'urtalashda qatnashish hissasi.

Kvotali qayta sug'urtalash - sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarni bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotini tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya proporsional ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

Kovernota - sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi xujjat. Ushbu xujjatda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki, kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan xujjat hisoblanmaydi.

Kombinatsiyali sug'urta - bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti.

Komissiya haqi - mijozlarni sug'urtaga tortganligi uchun sug'urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug'urta brokeri, agent) to'lanadigan haq. Komissiya haqining miqdori sug'urtaning turiga va kelib tushgan badalning xajmiga bog'liq holda sug'urta badaliga nisbatan foizlarda to'lanadi.

Konosament - dengiz transportida yuklarni tashish shartlarini ifodalovchi xujjat. Konosament shartnoma mavjudligi faktini va yuk tashuvchini yukni qabul qilib olganligini tasdiqlovchi xo'jjat. Konosamentga imzo chekishi bilan yukni saqlash, uni tegishli manzilga yetkazish mas'uliyati to'laligiga yuk tashuvchi kema zimmasiga o'tadi. Imzolangan konosamentning

asl nusxasi sotib oluvchiga yuboriladi va ushbu xo'jjat unga tegishi bilan sotib oluvchi yukning huquqiy egasi hisoblanadi.

Kumulyatsiya- bir qancha yirik sug'urta summali obyekt-larning bitta sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rishi extimollig-
ini nazarda tutuvchi sug'urta risklarini yig'indisi.

Keptiv sug'urta kompaniyasi- ta'sisчилarning manfaat-larini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, kor-poratsiyalar, yirik sanoat-moliya guruhlarini tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompani-yalarini keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmo-
qqa kirishi murakkabroq hisoblanadi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan keptiv sug'urta kompaniyalariga - «ALSKOM», «Universal sug'urta» sug'urta kompaniyalarini misol keltirish mumkin.

Lloyd- 1) Angliyadagi xalqaro sug'urta bozori; Angliyadagi sug'urtalovchilarning korporatsiyasi, taxminan 1734 yilda tash-
kil etilgan. Hozirgi paytda Lloydga 22000 dan ortiq a'zo bor. Uning faoliyati Angliya parlamenti qabul qilgan maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Lloyd sug'urtani barcha turlarini amalga oshiradi. Lloyd a'zolari 279 sindikatga birlashgan bo'lib, sin-dikat faoliyati uchun anderrayterlar javob beradi. Anderrayter-lar bilan sugurtalanuvchilarni sugurta vositachilari birlashtiradi. Sugurta vositachilari Lloyd bozorida risklarni joylashtiradi. An-derrayterlar sugurta shartnomasi buyicha javob berish uchun yirik miqdordagi pul mablag'larini korporatsiyaga depozit si-fatida qo'yadi.

Tibbiy sug'urta- aholi sog'lig'ini himoya qilish vosita-laridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi. Tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy yoki ixtiyoriy bo'ladi.

Mulkiy sug'urta - turli ko'rinishdagi mol-mulklarni sa-qlash bilan bog'liq manfaatlar sug'urta munosabatlarining obyekti hisoblangan, sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Sug'ur-

talanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog'ida joylashgan mol-mulklar sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalanuvchi sifatida, nafaqat mol-mulkning sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas'uliyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

Netto-stavka- brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etadi.

Obligatorli qayta sug'urtalash- 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat xududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarini bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyutani chiqib ketishini oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (tsedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi, riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Majburiy sug'urta- sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik xujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu xujjatda sug'urtaga tortiladigan obyektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

Oferta- asosiy shartlar ko'rsatilgan holda sug'urta shartnomasini tuzish taklifi. Sug'urta kompaniyasi ofertani konkret yuridik yoki jismoniy shaxsga yo'llashi mumkin.

Offshor sug'urta kompaniyasi- maxsus maqomga ega bo'lgan sug'urta kompaniyasi. Offshor sug'urta kompaniyalari soliq to'lash stavkalari eng kam bulgan offshor zonalarda (Ber-

mud oroli, Gernsi, Men va Keymanov orollari) tashkil etiladi. Offshor zonalarda amalga oshiriladigan sug'urta operatsiyalari sug'urta kompaniyasini tashkil etishda qatnashgan ta'sischiilar joylashgan davlati organlari tomonidan nazorat etilmaydi.

Prolongatsiya- o'zaro kelishgan holda sug'urta shartnomasini amal qilish muddatini uzaytirish. Prolongatsiya yozma ko'rinishda tasdiqlanishi mumkin.

Proporsional qayta sug'urtalash- qayta sug'urtalash shartnomasini tuzish shakli. Bu yerda qayta sug'urtalash kompaniyasi sug'urta mukofotlarini umumiy tushumidagi va sug'urta koplamlarini to'lashda o'z ulushiga ega. Proporsional qayta sug'urtalash shartnomalari kvotali, eksedentli va kvota-eksedentli shartnomalarini o'z ichiga oladi.

Risklarni joylashtirish-1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrotsessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi; 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi yetakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.

Raqobat - sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozorida o'z ulushini egallashi uchun o'zaro iqtisodiy musobaqasi. Raqobat sug'urtalanuvchi uchun sug'urta kompaniyalarini tanlab olishlarida ko'mak beradi. Raqobat sug'urta xizmatini kengayishida va ularning sifatini oshishida muhim ahamiyatga ega. Bir sug'urta xizmatini ko'rsatayotgan bir necha sug'urta kompaniyalari raqobat sharoitida mijozlarni jalb etish uchun ul-

arga sug'urta shartnomalarini tuzishda, sug'urta mukofotlarini to'lashda va sug'urta qoplamalarini qisqa muddatlarda to'lashda imkoniyat yaratadi.

Retrosedent- qabul qilib olingan qayta sug'urtalash riskini retrosessiyaga (ikkinchi qayta sug'urtalash) beruvchi sug'urta yoki qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrosessionariy-retrosedentdan riskni qabul qilib oluvchi qayta sug'urtalovchi kompaniya.

Retrosessiya- 1) qayta sug'urtalashga ilgari qabul qilib olingan risklarni yana qayta sug'urtalashga berish; 2) risklarni uchlamchi joylashtirish.

Risk- 1) bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarning og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishni imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratadi. Shunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Risk-riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'indisidir. Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha tariflar berilgan. Jumladan, risk-bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamalar to'laydi. Risk sug'urta obyekti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Ob'ektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. Shu tufayli risk - bu yagona tasodifiy hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga yoki irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini tashkil etadi. Risk bahosining puldagi ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi; 2) sug'urta obyekti; 3) sug'urta javobgarligining turi.

Risk menejmenti - riskni kamaytirish yoki chegaralash bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan harakati. Risk menejmentining tarkibiy elementiga quyidagilar

kiradi: riskni aniqlash, riskni baholash, riskni nazorat qilish va riskni moliyalashtirish.

Riskli holatlar - risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Sug'urtalanuvchiga ma'lum bo'lgan barcha riskli holatlar sug'urta kompaniyasiga xabar qilinadi. Bu riskni baholashda muhim ahamiyatga ega. Riskli holatlarni tahlil etish syurveyer yoki adjasterning funksiyasiga kiradi. Bu sug'urta kompaniyasini sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik masalasi bo'yicha qaror qabul qilishida hamda sug'urta qoplamalari va summalarini to'lashda muhim o'rin tutadi. Riskli holatlar: shaxsiy va ashyoviy; to'g'ri va egri; tasdiqlanadigan va inkor qilinadigan: obyektiv va sub'ektiv turlarga bo'linadi.

Risklarni tanlash - sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash - bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora - tadbirlarning bir qismidir.

Riskni baholash - risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli holatlarni natura va qiymat ko'rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisiga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezonini hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda insonning yoshiga e'tibor beriladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgan momentdan, sug'urtalanuvchining o'limiga yoki nogiron bo'lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida mijoz qo'shimcha ravishda dashtabki tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug'urta obyekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug'urtalanuvchi bilan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga kirishishini maqsadga muvofiqligi to'g'risida sug'urta kompaniyasiga yozma xulosa beradi.

Sug'urta mukofotlari zahirasi- hayotni va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukofotlarini kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtlari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlar uchun sarflanadi, qolgan qismi esa zahira fondini shakllantirish uchun yunaltiriladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zahira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanilishi mumkin.

Sug'urta zahiralar – sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari yetmasa, sug'urta kompaniyasi zahira fondlaridan foydalanishi mumkin. Sug'urta zahiralariga quyidagilar kiradi: hayotni sug'urtasi bo'yicha zahira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zahiralar va boshqalar. Ushbu zahira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi.

Sug'urta polisi- sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi xujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta obyekti, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

Sug'urtada tarif siyosati- sug'urta operatsiyalarini zararsiz o'tkazilishini va sug'urtalanuvchilarning manfaati yo'lida

sug'urta tariflarini belgilash, aniqlash, tartibga solish va tabaqalashtirish bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan faoliyati. Sug'urtada tarif siyosati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

Netto-mukofotlar va sug'urta qoplamasi o'rtasidagi ekvivalentlik. Har bir sug'urta turi bo'yicha netto-stavka zararlarining ehtimof tutilgan miqdoriga maksimal darajada to'g'ri kelishi zarur.

Sug'urtalanuvchilarning asosiy qismi uchun sug'urta tarifi miqdorining qulayligi. Tarif stavkalarini yuqori darajada belgilanishi sug'urta ishini rivojlanishi uchun to'siq bo'ladi.

Sug'urta tarifi stavkalarining barqarorligi. Agar uzoq yillar mobaynida tarif stavkalari o'zgarmasa, bu holat sug'urtalovchining nufuzini oshiradi. Sug'urta summalarining zararlilik ko'rsatkichi kamaysa, sug'urtalanuvchilarning manfaati uchun sug'urta tarifi stavkasini o'zgartirmasdan javobgarlik xajmini ko'paytirish maqsadga muvofiqdir.

Sug'urta operatsiyalarining rentabelligini ta'minlash.

Siyosiy risk- davlat organlarining hatti-xarakati yoxud uyushgan shaxslar guruhining siyosiy talab bo'yicha chiqishi natijasida vujudga keladigan xavf. Siyosiy riskga urush xarakatlari, siyosiy hokimiyatning yoki tuzumning o'zgarishi, qonun xujjatlariidagi o'zgarishlar, fuqarolarning ommaviy chiqishlari va ish tashlashlari, milliylashtirish, konfiskatsiya kiradi. Siyosiy risk ro'y bergan vaqtda sug'urta kompaniyasi javobgarlikdan ozod bo'ladi. Chunki siyosiy risklar, faqat, davlatga qarashli maxsus sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalanishi mumkin.

Sug'urta portfeli -sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan obyektlar soni, sug'urta shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. Chet mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotining hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.

Sug'urta dalolatnomasi - sug'urta xodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan xujjat. Dalolatno-

mada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga, zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

Sug'urta mukofoti- sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligini sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.

Sug'urtaviy foyda- sug'urta xizmatining bahosi va tannarxi o'rtasidagi farq. Sug'urtaviy foyda sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish natijasida shakllanadi. Sug'urtaviy foyda balans uslubi asosida sug'urta mukofotlari tushumi va sug'urta operatsiyalari tannarxini o'zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Sug'urta operatsiyalarining tannarxi bu, sug'urta kompaniyasining sug'urta himoyasini ta'minlashga qaratilgan to'g'ri va egri, (shu jumladan zahira fondlariga ajratmalar) xarajatlarning yig'indisidir. Odatda, sug'urta tarifini hisoblashda netto-stavkaga yuklamada foyda ulushi ham ko'rsatiladi. Shakllanish manbaiga ko'ra, haqiqatdagi sug'urtaviy foyda o'z ichiga quyidagi foyda turlarini oladi: sug'urta summasi zararlik ko'rsatkichini kamaytirishdan olingan foyda, boshqaruv xarajatlarini iqtisod qilish natijasida olingan foyda, investitsiyadan olingan foyda va sug'urta tarifida belgilangan foyda.

Sug'urta puli- sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy

uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik obyektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun, pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta koplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmlariga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan.

Sug'urta obyekt - shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'ligi, mehnat qobiliyati; mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari, uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z hatti-harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish fuqarolik mas'uliyati - mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta obyektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta obyektini sug'urta kompaniyasining mutaxassislaridan ekspertiza qilinishi mumkin.

Sug'urta shartnomasi - ikki tomonlama yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

Sug'urta - har xil noxush xodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqarolarning hayotida tegishli sug'urta xodisalarini ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Ob'ektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javob-

garlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta - bu riskni taqsimlash usulidir.

Sug'urtalanuvchi - qonun asosida yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta obyektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.

Sug'urta qoplamasi - mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligini sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik xolati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta manfaati - sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar - mol-mulk yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish xolatlari. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'l-transport hodisalari tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasi sifatida maydonga chiqadi.

Sug'urta yig'imi - Jismoniy shaxsning yo'lovchilarning majburiy sug'urta bo'yicha bir marta to'lanadigan sug'urta mukofoti. Odatda, sug'urta yig'imi yo'l haqi tarkibida bo'ladi va chiptada sug'urta yig'imi «kiritilgan» degan so'z bo'ladi.

Slip - riskni xarakterlovchi xujjat. Slip sug'urta brokeri tomonidan tuziladi va anderrayterga beriladi. Slipda sug'urta kompaniyasining riskni sug'urtalashdagi hissasi ko'rsatiladi. Angliyada slip sug'urta polisiga tenglashtiriladi. Ayrim holat-

larda slip sug'urta qoplamasini to'lashda asosiy xujjat hisoblanadi.

Sug'urta kompaniyasi- sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'luvchi yuridik shaxs. U o'z Nizomi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik sub'ektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig'indisi sug'urta tuzimini tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari bajaradigan sug'urta operatsiyalariga ko'ra, ular universal va ixtisoslashgan bo'ladi. Ustav kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmiga muvofiq, sug'urta kompaniyalarini yirik, o'rta va kichik guruxlarga bo'lish mumkin.

Sug'urtaviy tibbiyot- turli kasalliklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayr-ehson fondlarining majburiy ajratmasi hisobidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchiga tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.

Sug'urta bahosi - sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur.

Sug'urta tizimi - 1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligini yig'indisi; 2) sug'urta

huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat - huquqiy shakli.

Sug'urta summasi - sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada - fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.

Sug'urta maydoni - sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan obyektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulklarning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan.

Sug'urta summasining zararliligi - sug'urta summasi va sug'urta koplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimoligini ko'rsatadi va undan riskni o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan obyektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta xodisalarining soni, zarar ko'rgan obyektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

Sug'urta huquqi- sug'urtalovchilar, sug'urtalanuvchilar va ular o'rtasidagi vositachilarning hatti-harakati qoidalari yig'indisi. Sug'urta xuquqi qonun va qonun xujjatlarida o'z aksini topadi. Sug'urta huquqi moliyaviy huquqning bir qismi hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi - stixiyali, tabiiy yoki oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning amalda yuz berishi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan

shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodisasi deyilganda, stixiyali hodisalar, yong'in, avariya, portlash, zilzila, dovul va boshqalar tushuniladi. Shaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodisasiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi, ularning xayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodisasi ba'zan «fors-major» deb yuritiladi.

Sug'urta hodisalari chastotasi - inshootlarni yonish darajasini, transport vositalarini avariya bo'lish darajasini, aholi nogironligi darajasi va shunga o'xshash darajalarni ifodalovchi ko'rsatkich. Sug'urta hodisalari sonini sug'urta qoplamalari miqdoriga yoki sug'urtalangan obyektlar miqdoriga nisbati sug'urta hodisalari chastotasini aniqlaydi.

Sug'urtalovchilar uyushmasi - sug'urta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma a'zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug'urta kompaniyalari va xorijiy sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug'urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sug'urtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosug'urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda.

Sug'urta qoplamasi limiti - sug'urta kompaniyasining filiali, bo'limi, shu'ba korxonasi tomonidan bitta sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sug'urta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sug'urta summasining zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi.

Sug'urtalovchining javobgarlik limiti - tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta

kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi.

Sug'urtani turkumlash (klassifikatsiyalash) - 1) sug'urta turlarini iyerarxiya ko'rinishida tarmoqlarga, tarmoqchalarga va turlarga bo'linishi. Bunda har bir keyingi bo'g'in oldingi bo'g'inning bir qismi shaklida ifodalanadi. Sug'urta obyekti sug'urtaning toifasi, sug'urta javobgarligining hajmi va sug'urta qismining shakli sug'urtani turkumlashning asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. 2) xorij amaliyotida sug'urta turlarini tartiblashtirilgan tizimi. Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqi davlatlarida sug'urtaning yagona klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilgan.

Yevropa ittifoqida sug'urta turlarini turkumlash

Uzoq muddatli sug'urta		Umumiy sug'urta	
I	Hayot va annuitetlar sug'urtasi	I	Baxtsiz hodisalardan sug'urta
II	Bolalarni tug'ilish va nikohini sug'urtasi	II	Kasallik hodisasini sug'urtasi
III	Bog'langan uzoq muddatli sug'urta	III	Avtomobillarni sug'urtalash
IV	Sog'likni uzluksiz sug'urtalash	IV	Temir yo'l sostavini sug'urtasi
V	Tontinlar	V	Havo kemalarini sug'urtasi
VI	Kapitalarni qoplashni sug'urtalash	VI	Dengiz kemalarini sug'urtasi
VII	Nafaqalarni sug'urtasi	VII	Yo'ldagi yuklarni sug'urtasi
		VII	g'ng'indan va stixiyali hodisalardan sug'urta
		IX	Mulkni zarar yetkazishdan sug'urtasi
		X	Avtotransport vositalari egalari-ning uchinchi shaxsga zarar keltirish mas'uliyatini sug'urtasi
		XI	Havo kemalari egalari-ning 3-chi shaxsga zarar yetkazish mas'uliyatini sug'urtasi

XII	Kema egalarini fuqarolik javobgarligini sug'urtasi
XIII	Umumiy javobgarlikni sug'urtasi

Syurveyer - sug'urtaga tortiladigan mol-mulkni ko'rikdan o'tkazuvchi sug'urta kompaniyasining xodimi. Sug'urta kompaniyasi syurveyerning xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Chet el amaliyotida yong'in havfsizligini ta'minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.

Tarif stavkasi - sug'urta riskini baxosi; sug'urta summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan brutto-stavka. Tarif stavkasi (brutto-stavka) ikki qismdan iborat: netto-stavka va netto-stavkaga yuklama. Netto-stavka sug'urta kompaniyasining sug'urta fondidan qiladigan xarajatlarini ifodalaydi. Netto-stavkaga yuklama sug'urta kompaniyasining ish yuritish xarajatlarini, komissiya haqini va boshqa xarajatlarini o'z ichiga oladi. Shaxsiy sug'urta buyicha tarif stavkasi mol-mulk sug'urtasining tarif stavkasidan keskin farq qiladi. Hayot sug'urtasidagi tarif stavkasi hayotiylik jadvali va daromad normasiga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Ehtimollar nazariyasi - tasodifiy hodisalarning ehtimoligi bo'yicha o'zaro aloqada bo'lgan boshqa hodisalarning ehtimoligini aniqlash bilan bog'liq matematika fani. Ehtimollar nazariyasi asosida tasodifiy hodisalarning ruy berish ehtimoligi katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi. Ehtimollar nazariyasi aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Qayta sug'urtalash - sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish); sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida qabul qilib olingan riskni bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni

ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalarini sug'urta kompaniyalar bilan bir qatorda asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishda bo'ladi. Bundan tashqari, qayta sug'urtalash proporsional va noproportional bo'ladi. Proporsional qayta sug'urtalashda, qayta sug'urtalovchining berilgan risk bo'yicha ulushi tsedentning o'z javobgarligiga qoladigan qismi aniq bo'lgandan so'ng aniqlanadi. Noproportional qayta sug'urtalashda riskni berish tegishli limit doirasida amalga oshiriladi. Bu holda qayta sug'urtalovchi tsedentdan sug'urta mukofotining bir qismini oladi (proporsional qayta sug'urtalashdagidek sug'urta summasiga muvofiq keladigan sug'urta mukofotini emas).

Qayta sug'urtalovchi broker - ikkita sug'urta kompaniyasi o'rtasidagi professional vositachi.

Qayta sug'urtalovchi - sug'urta brokerei yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, Shveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Fakultativ qayta sug'urtalash - proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham tsedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

Fakultativ obligator shartnomasi - **sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.**

Franshiza - sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. *Franshiza* sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo'linadi. Shartli franshizada sug'urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zararni to'liq qoplaydi. Shartsiz franshizada ko'rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.

Fraxt - dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

Frontlashtiruvchi kompaniya - boshqa sug'urta kompaniyasining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashtiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda, O'zbekistonda bir nechta frontlashtiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, "Anglo-Tashkent", "UzAIG" sug'urta kompaniyalari.

Fronting - qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'lalig'icha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalariga berish.

Sedent - riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi tsedent retrotsedent deb ataladi.

Sessiya - 1) sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'rtasidan huquqiy munosabatlarda ishlatiladi. 2) Xorij amaliyotida tsedentning olingan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi.

Shomaj - sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida ishlab chiqarishni to'xtab qolishi bilan bog'liq foyda olmaslik riskini sug'urtasi.

Ekssedent riski - mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.

Ekssedent zarari - noproporsionl qayta sug'urtalash shakli. Bunda tsedentga o'z zimmasida ushlab qolingan zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.

O'zaro sug'urtalash jamiyati - foyda olishni ko'zlama-ydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSh va Yaponiyada asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidir. Hozirgi paytda Yaponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4%ni tashkil etadi.

Shaxsiy sug'urta - sug'urta obyekti sifatida fuqarolarning hayoti, sog'ligi va mehnat qobiliyatini saqlash bilan bog'liq manfaatlar majmuasi shaklidagi sug'urta tarmog'i. Shaxsiy sug'urta hayot sug'urtasiga va baxtsiz hodisalardan sug'urtaga va tibbiy sug'urtaga bo'linadi. U riskli va jang'arma funksiyalariga ega. Chet el tajribasida shaxsiy sug'urta to'rtta sug'urta klassidan iborat bo'lib, inson hayotidagi ro'y berish mumkin bo'lgan hodisalar (tug'ilish, o'lim, voyaga yetish, nikohdan o'tish, ma'lum bir yoshgacha yashash) ehtimolligi bilan bog'liq barcha sug'urta turlarini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda shaxsiy sug'urta-bu uzoq muddatli hayot sug'urtasi, aralash sug'urta va annuitetlardir.

Yashil karta - avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash to'g'risidagi xalqaro

shartnomalar tizimi. Mazkur sug'urta turi bo'yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949 yilda Yevropaning 13ta davlati o'rtasida yashil karta to'g'risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi paytda yashil kartaga a'zo mamlakatlar 30 dan ziyodni tashkil etadi. Yashil kartaga a'zo bo'lgan mamlakatlarda tegishli milliy byurolar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi. O'z navbatida milliy byurolar yashil karta xalqaro byurosiga birlashgan. Qarorgohi Londonda joylashgan.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
SUG'URTA FAOLIYATI TO'G'RISIDA**

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi sug'urta faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Sug'urta hamda sug'urta faoliyati

Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shuningdek sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tushuniladi.

4-modda. Sug'urta sohalari va turlari (klasslari)

Sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'ur-

taning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oladi);

umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

5-modda. Sug'urta faoliyati sub'ektlari

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining sub'ektlari hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, shuningdek assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir.

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilari hisoblanadilar.

6-modda. Sug'urtalovchi

Tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi.

Sug'urtalovchilar sug'urtani amalga oshirishga bevosita bog'liq bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emas, ushbu Qonunning 6¹-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

6¹-modda. Sug'urtalovchining huquq va majburiyatlari

Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

– qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari tuzish;

– o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug'urta qilish;

– maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;

– qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida *professional faoliyatni amalga oshirish*. Bunda mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun sug'urtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi;

– sug'urta (qayta sug'urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni, shuningdek sug'urta agenti sifatida sug'urta vositachiligini amalga oshirish;

– sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda moliyalashtirish;

– sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;

– sug'urta hodisasi ro'y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek sug'urta to'voni (*sug'urta puli*) miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni *huquqni muhofaza qiluvchi organlardan*, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;

– sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;

– sug'urta to'voni (*sug'urta puli*) to'lashni qonun hujjatlarida va (yoki) sug'urta (qayta sug'urta qilish) shart-

nomasida belgilangan hollarda hamda tartibda rad etish, sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;

– sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirishni, sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi talablari va shartlarini bajarishi ustidan nazoratni sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirish;

– chet el sug'urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlari ko'rsatish;

– ilgari sug'urtalovchi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilish yoki ijaraga berish;

O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;

– o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.

Sug'urtalovchi qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urtalovchi:

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug'urta faoliyatini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning maxfiyligini qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta'minlashi;

– o'zi vakolat bergan sug'urta agentlarining reyestrini yuritishi;

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etishi;

– sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, qonun hujjatlarida yoki sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur hisob-kitoblarni amalga oshirishi va sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lashi;

– firmaning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan yeri o'zgargan taqdirda, bu haqdagi axborotni sug'urta qildiruvchilarga ushbu Qonunda belgilangan tartibda yetkazishi;

– sug'urta zaxiralari qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda shakllantirishi hamda joylashtirishi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi;

– maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuar tashkilotni aktuar xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etishi;

– maxsus vakolatli davlat organi belgilagan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart.

Sug'urtalovchining zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

7-modda. Sug'urta brokeri

Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug'urta brokeri hisoblanadi.

Sug'urta brokerining faoliyati sug'urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borilishi mumkin emas, qayta sug'urta brokerining faoliyati bundan mustasnodir.

Sug'urta brokeri sug'urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Sug'urta brokeri o'zi bilan sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadi.

8-modda. Qayta sug'urta brokeri

O'z nomidan va qayta sug'urta qilish shartnomasi bo'yicha sug'urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug'urtalovchining topshirig'iga binoan qayta sug'urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug'urta brokeri hisoblanadi.

Qayta sug'urta brokeri sug'urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Qayta sug'urta brokeri o'zi bilan sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadi.

8¹-modda. Sug'urta hamda qayta sug'urta brokerlarining huquq va majburiyatlari

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

– sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har qanday turi bo'yicha vakolatlar doirasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

– sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sug'urtalovchini tanlash;

– sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining miqdorlari, sug'urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlar olish;

– ekspert va maslahat xizmatlari ko'rsatish.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari qonun hujjatlariga hamda o'zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlari:

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasini tuzish va ijro etish bo'yicha to'liq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijozlarning so'rovlariga ko'ra taqdim etishi;

– mijozning tijorat sirini va boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarni oshkor qilmasligi.

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi;

– firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli va (yoki) joylashgan yeri o'zgargan taqdirda, bu haqda maxsus vakolatli davlat organini va sug'urtalovchilarni xabardor qilishi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart;

Sug'urta va qayta sug'urta brokerlarining zimmasida qonun hujjatlariga hamda o'zlari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

9-modda. Sug'urta agenti

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi.

Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar.

Sug'urta agenti o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi.

Sug'urta agenti faqat o'zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchi reyestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Quyidagilarga:

– sug'urta agentining tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomalari tuzishiga;

– agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bo'yicha sug'urta

agentining O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan chet el sug'urta tashkilotlari nomidan sug'urta shartnomalari tuzish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta agenti — jismoniy shaxs o'z nomiga, to'lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, o'g'li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'rishga haqli emas.

9¹-modda. Sug'urta agentining huquq va majburiyatlari

Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

– sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtaning har qanday turi, shu jumladan majburiy sug'urta turlari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;

– sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukofotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashida zarur ko'mak ko'rsatish;

– sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olish;

– sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;

– sug'urta qildiruvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida sug'urtalovchiga to'liqroq axborot berish maqsadida barcha uchun ochiq bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urta qildiruvchi to'g'risida sug'urta qildiruvchining shaxsiy hayotiga aralashmagan holda ma'lumotlar to'plash.

Sug'urta agenti qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta agenti:

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug'urta shartnomasi tuzishda va sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lashda hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirishga ko'maklashishi;

– sug'urta tariflari, sug'urtalovchilar tomonidan taklif etilayotgan sug'urta shartlari haqida, litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatliliigi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar haqida axborotga ega bo'lishi;

– sug'urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug'urta qildiruvchi to'g'risida zarur axborotga ega bo'lishi, unga sug'urta tavakkalchiligini pasaytirish va sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan aniq tadbirlarni amalga oshirishni taklif etishi;

– sug'urta qildiruvchilarning so'roviga ko'ra ularga sug'urtaning amaldagi shartlari to'g'risida axborot berishi;

– sug'urta shartnomalarini belgilangan tartibda tuzishi va yangi muddatga o'z vaqtida qayta rasmiylashtirishi;

– tuzilgan sug'urta shartnomalari va olingan sug'urta mukofotlari summalari hisobini belgilangan shaklda yuritishi;

– *sug'urta hujjatlarining saqlanishini ta'minlashi*;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma'lumotlarning maxfiylikini saqlashi;

– sug'urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida tavakkalchilik shart-sharoitlarining jiddiy ravishda o'zgarishiga taalluqli axborotni sug'urtalovchi o'z vaqtida olishini, shuningdek sug'urta e'tirozlari yuzaga kelganda hamda ularni tartibga solish jarayonida sug'urtalovchi va sug'urta qildiruvchi o'rtasida axborotning o'z vaqtida almashinishini ta'minlashi;

– tegishli bitim mavjud bo‘lgan taqdirda, sug‘urtalovchining topshirig‘iga ko‘ra va uning hisobidan sug‘urta to‘lovlari to‘lanishini tashkil etishi shart.

Sug‘urta agentining zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

9²-modda. Adjaster

Adjaster sug‘urtalovchining (sug‘urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha quyidagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

– sug‘urta hodisasi yuz berganidan keyin sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;

– sug‘urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;

– sug‘urta obyektining shikastlanish sabablarini va sug‘urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

– sug‘urta hodisasi mavjud bo‘lgan taqdirda — sug‘urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

– to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta to‘voni summasini aniqlash;

– sug‘urta hodisasi bo‘yicha xulosa tuzish.

Adjaster o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) va boshqa buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Adjaster:

– sug‘urtalovchi sifatida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish operatsiyalari o‘tkazishga;

– sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sug‘urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Adjaster xizmati ko‘rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiylashtirilib, undan sug‘urtalovchi zararlarining o‘rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog‘ida foydalanishi mumkin.

Adjasterning hisobotida ko‘rsatilgan xulosalar mustaqil sug‘urta ekspertizasi jarayonida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

9³-modda. Adjasterning huquq va majburiyatlari

Adjaster quyidagi huquqlarga ega:

– adjaster xizmatlari ko‘rsatiladigan sug‘urtalovchini (sug‘urta qildiruvchini) va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;

– sug‘urta voqearini (sug‘urta hodisasini) o‘rganish uchun sug‘urtalovchidan (sug‘urta qildiruvchidan) va boshqa buyurtmachilardan zarur axborotni so‘rash va olish;

– sug‘urta hodisasi yuz berganidan so‘ng sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;

– o‘zi sug‘urta obyektini sirdan (zarur hollarda — texnika vositalarini qo‘llagan holda) ko‘zdan kechirganligi to‘g‘risidagi dalolatnomani rasmiylashtirish;

– sug‘urta hodisasi ro‘y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek sug‘urta tovonini (sug‘urta puli) miqdorini aniqlash uchun zarur bo‘lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

Adjaster qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Adjaster:

– sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug‘urta hujjatlarining saqlanishini ta‘minlashi;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma'lumotlarning maxfiylikini saqlashi;

– sug'urta hodisasiga taalluqli ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish uchun chora-tadbirlar ko'rishi.

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Adjaster zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

9⁴-modda. Aktuar tashkilot va aktuariy

Aktuar tashkilot quyidagilarni o'z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxsdir:

– sug'urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug'urta majmui bo'yicha zarar yetkazilishining takroriylikni va ularning oqibatlari og'irligi darajasini belgilash;

– sug'urtalovchining zarur sug'urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

– sug'urtalovchining investitsiyalar sifatida to'plangan badallardan foydalanishida kapital qo'yilma normasi va netto-stavka miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko'maklashadigan tarzda aniqlash;

– sug'urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug'urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

– sug'urtaning (qayta sug'urta qilishning) har bir turi bo'yicha tarif stavkalarini sug'urtalovchilar uchun ularni o'tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

– sug'urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

– sugʻurtalovchining daromadlarini sugʻurtaning (qayta sugʻurta qilishning) har xil turlari boʻyicha rejalashtirish.

– aktuar hisob-kitoblarini amalga oshirish boʻyicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;

– sugʻurta bilan bogʻliq boshqa aktuar xizmatlari koʻrsatish.

Aktuar tashkilot shartnomaga muvofiq toʻlov asosida faqat aktuar xizmatlarini koʻrsatishi mumkin.

Aktuariy maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini koʻrsatganlik, tijorat sirini yoki qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar koʻrishiga olib kelgan oʻzga xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar boʻladi.

Aktuar tashkilot oʻz shtatida kamida bitta aktuariyga ega boʻlishi kerak.

Aktuariy:

– sugʻurtalovchi sifatida sugʻurta va qayta sugʻurta qilish operatsiyalari oʻtkazishga;

– sugʻurta boʻyicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sugʻurtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Aktuariy faoliyati natijalari hisobot tarzida rasmiylashtiriladi.

Aktuariy hisobotida koʻrsatilgan xulosalar mustaqil sugʻurta ekspertizasi jarayonida qayta koʻrib chiqilishi mumkin.

9^s-modda. Aktuar tashkilotning huquq va majburiyatlari

Aktuar tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

– aktuar xizmatlari koʻrsatiladigan sugʻurtalovchini va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;

– aktuar xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan axborot sug'urtalovchi va boshqa buyurtmachilar tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

– boshqa aktuar tashkilotlarni va o'zga mutaxassislarni aktuar xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Aktuar tashkilot qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Aktuar tashkilot:

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– aktuar xizmatlari ko'rsatish chog'ida olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;

– aktuar xulosasida aktuar hisob-kitoblarning kamchilik faktlarini va ularni bartaraf etishga doir takliflarni aks ettirishi.

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Aktuar tashkilot zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

9⁶-modda. Sug'urta syurveyeri

Sug'urta syurveyeri quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo'lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir:

– sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar sug'urta (qayta sug'urta qilish) obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

– sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

– tekshirilayotgan sug'urta obyektini bo'yicha xulosa tuzish.

Sug'urta ekspertizasini o'tkazishga vakolatli mutaxassislarining (ekspertlarning) ish tartibi sug'urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sug'urta syurveyeri o'z faoliyatini sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sug'urta syurveyeri:

– sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish operatsiyalari o'tkazishga;

– sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Sug'urta syurveyeri ishining natijalari bo'yicha hisobot taqdim etiladi, sug'urtalovchi (sug'urta qildiruvchi) bu hisobotdan sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasi tuzish chog'ida foydalanishi mumkin.

Sug'urta syurveyerining hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertisasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

9⁷-modda. Sug'urta syurveyerining huquq va majburiyatlari

Sug'urta syurveyeri:

– xizmatlar ko'rsatiladigan sug'urtalovchini (sug'urta qildiruvchini) erkin tanlashga;

– sug'urta obyektni o'rganish uchun sug'urta qildiruvchidan (sug'urtalovchidan) zarur axborotni so'rash va olishga;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, faoliyati sug'urta obyektlariga daxldor bo'lgan boshqa tashkilotlardan zarur ma'lumotlarni so'rash va olishga haqli.

Sug'urta syurveyeri qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta syurveyeri:

– sugʻurta faoliyati toʻgʻrisidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sugʻurta ekspertizasi oʻtkazish uchun taraflar taqdim etgan hujjatlarning saqlanishini taʼminlashi;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan maʼlumotlarning maxfiyligini saqlashi.

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga koʻra taqdim etishi shart.

Sugʻurta syurveyeri zimmasida qonun hujjatlariga va oʻzi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin.

9⁸-modda. Assistans

Assistans sugʻurta qildiruvchilarga (sugʻurtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sugʻurtalovchilarga sugʻurta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar koʻrsatuvchi, shuningdek ularga moliyaviy koʻmak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Assistans oʻz faoliyatini sugʻurtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans xizmatlariga sugʻurta qildiruvchilar (sugʻurtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sugʻurtalovchilar tomonidan haq toʻlanadi.

Assistans:

– sugʻurtalovchi sifatida sugʻurta va qayta sugʻurta qilish operatsiyalari oʻtkazishga;

– sugʻurta boʻyicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sugʻurtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

9⁹-modda. Assistansning huquq va majburiyatlari

Assistans quyidagi huquqlarga ega:

– assistans xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha sug'urtalovchilar bilan mustaqil ravishda shartnoma tuzish;

– assistans xizmatlari ko'rsatilishi uchun zarur bo'lgan barcha axborot sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, assistans xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

– tegishli mutaxassislarni assistans xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Assistans qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Assistans:

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug'urta qildiruvchilardan (sug'urtalangan shaxslardan) sug'urta voqealari (sug'urta hodisalari) to'g'risidagi xabarlar kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etishi va sug'urta shartnomasi doirasida, taqdim etilgan sug'urta polisi asosida sug'urta qildiruvchilarga (sug'urtalangan shaxslarga) zarur yordam ko'rsatishi;

– sug'urta hodisalarini ko'rib chiqish va tartibga solish chora-tadbirlarini ko'rishi.

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

Assistans zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

10-modda. Maxsus vakolatli davlat organi

Sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi:

– ijro etilishi majburiy bo'lgan to'lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar

jamiyning yo'q qo'yiladigan ko'p yoki eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

– sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

– sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralarini shakllantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlarini, shuningdek bunday mablag'lar hisobini yuritish hamda ular bo'yicha hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi, chet davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlariga sug'urta zaxiralarini joylashtirishni kelishib olish tartibi bundan mustasno;

– sug'urtalovchining, sug'urta brokerining hamda ular alohida bo'linmalarining rahbariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan malaka talablarini belgilaydi.

– sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning va e'lon qilinadigan yillik moliyaviy hisobotning shaklini, shuningdek uni taqdim etish hamda e'lon qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritadi;

– sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari, shu jumladan belgilangan iqtisodiy normativlar sug'urtalovchi tomonidan buzilganligi uchun sug'urtalovchining ustav fondi eng kam miqdorining 0,1 foizigacha miqdorda belgilangan tartibda jarima soladi.

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini to'liq

yoki ayrim sug'urta turlariga (klasslariga) nisbatan to'xtatib qo'yadi, shuningdek ularning faoliyatini tugatish to'g'risida sudga murojaat qiladi;

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilariga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar va sanksiyalarni qo'llaydi;

– har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sug'urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat to'g'risida yillik hisobotlarni, shuningdek sug'urta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati to'g'risida statistika ma'lumotlarini e'lon qiladi;

– sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish, shuningdek sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini sug'urtalovchilar tomonidan moliyalashtirish tartibi hamda shartlarini belgilaydi, sug'urtalovchining ehtiyotdan ko'riladigan chora-tadbirlari zaxirasidan moliyalashtiriladigan ehtiyotdan ko'riladigan chora-tadbirlar ro'yxatini kelishib olish tartibi bundan mustasno;

– aktuar xizmatlari ko'rsatish tartibini belgilaydi;

– aktuariy malaka sertifikatini olish uchun o'quv dasturlarini hamda malaka imtihonlari topshirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, mazkur sertifikatni olish huquqi uchun malaka imtihoni o'tkazadi;

– belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikati beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi, malaka sertifikatiga ega bo'lgan aktuariylar reyestrini yuritadi;

– sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridan qonun hujjatlarida belgilangan axborotni so'rab oladi.

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari sug'urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sug'urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar, bundan «O'zagrosug'urta» aksiyadorlik jamiyati, «Kafolat sug'urta kompaniyasi» aksiyadorlik jamiyati hamda «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etish mustasno.

11-modda. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilarini tuzish va davlat ro'yxatidan o'tkazish

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari, shuningdek sug'urta bozorining yuridik shaxs bo'lgan boshqa professional ishtirokchilari qonunlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarini davlat ro'yxatidan o'tkazish esa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qayta sug'urta brokerlari, adjasterlar, aktuar tashkilotlar, sug'urta syurveyerlari, assistanslar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bir haftalik muddatda bu haqda maxsus vakolatli davlat organini yozma ravishda xabardor qiladi.

12-modda. Sug'urtalovchilarning ustav fondi

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urtalovchining boshlang'ich ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar muassislar tomonidan shakllantirilgan bo'lishi va qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo'lmashligi kerak.

13-modda. Sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomiga doir talablar

Sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomida ilgari tashkil etilgan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xshash bo'lgan belgilar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining filiallari, shuningdek unitar korxonalar shaklida boshqa sug'urtalovchilar tomonidan tashkil etilgan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomlari mustasno.

14-modda. Sug'urtalovchining firma nomini, tashkiliy-huquqiy shaklini yoki joylashgan manzilin o'zgartirish

Sug'urtalovchining firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan manzili o'zgargan taqdirda sug'urtalovchi bu haqda sug'urta qildiruvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali, o'z ijrosidagi bir yildan ortiq muddatli sug'urta shartnomalari bo'yicha esa yozma ravishda xabardor qilishi shart.

15-modda. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga yoxud hayotni sug'urta qilish sohasida, yoxud umumiy sug'urta sohasida, yoxud faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta

sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasno. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Faqat qayta sug'urta qilish bo'yicha sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi sug'urta shartnomalarini tuzishga haqli emas.

Litsenziyada sug'urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug'urta turlari (klasslari) ko'rsatiladi.

16-modda. Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishi to'xtatib turilishining o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to'xtatib turilishi uning yangi sug'urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug'urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo'ladi. Bunda sug'urtalovchi ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir.

17-modda. Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishi tugatilishining o'ziga xos xususiyatlari

Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug'urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyatiga o'tadi. Muvaqqat ma'muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo'lgan davrda o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug'urtalovchini tugatish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo'llangan sudga taqdim etiladi.

Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug'urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash bilan bog'liq hollar bundan mustasnodir.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning qoidalari sug'urtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoxud tugatilishiga taalluqli emas.

18-modda. Sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchilarni qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish maxsus vakolatli davlat organining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladigan ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnoma olish uchun maxsus vakolatli davlat organiga tegishli ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

– muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchi boshqaruv organining qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;

– tuzilayotgan sug'urtalovchining balansi va faoliyatining taxminiy moliyaviy natijalari;

– qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shartnomasining loyihasi (qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

Sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishni o‘tkazish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e‘tiboran o‘n besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to‘g‘risida sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishni rad qilishga haqli, agar:

– sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etish natijasida ularning moliyaviy barqarorligiga doir talablar buzilishi mumkin bo‘lsa;

– sug‘urtalovchilarning qayta tashkil etilishi sug‘urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa;

– sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilishi so‘rab taqdim qilingan hujjatlarda ishonchsiz ma‘lumotlar bo‘lsa yoxud bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo‘lsa;

– sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etish qonun hujjatlariga zid bo‘lsa.

Sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishni o‘tkazish uchun berilgan arizani takroran ko‘rib chiqishda ushbu qayta tashkil etishni o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi xabarnomada ilgari ko‘rsatilmagan yangi asoslar bo‘yicha sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishni o‘tkazishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bo‘lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilganda sug‘urtalovchi (sug‘urtalovchilar) litsenziyasining amal qilishi tugatiladi. Qayta tashkil etish natijasida yangitdan tuzilgan sug‘urtalovchilarga litsenziyalar berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bo‘lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan davr uchun hamda

yangidan tuzilgan sug'urtalovchilar litsenziya olguniga qadar bo'lgan davrda ular yangi sug'urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug'urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emas, ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmlariga olingan, huquqiy vorislik tartibida o'zlariga o'tgan majburiyatlarni bajarish hollari bundan mustasno.

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda o'ziga boshqa sug'urtalovchi qo'shilayotgan sug'urtalovchi, agar qo'shib olish natijasida litsenziyaning shartlari o'zgarmasa, amaldagi litsenziyani saqlab qoladi.

O'zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchining litsenziyasi qayta rasmiylashtiriladi.

Qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotganda litsenziyani qayta rasmiylashtirishga qayta tashkil etilayotgan sug'urtalovchilarda yangidan vujudga kelgan sug'urtalovchini davlat ro'yxatidan o'tkazish sanasida litsenziya mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

20-modda. Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablarini qanoatlantirish navbati

Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek tugatiladigan sug'urtalovchining asosiy vazifalarini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar to'langanidan so'ng quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

- birinchi navbatda — hayotni sug'urta qilish sohasida majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilarning talablari;
- ikkinchi navbatda -sug'urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha talablari;
- uchinchi navbatda - boshqa sug'urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;
- to'rtinchi navbatda - budjetga, budjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni nazarda tutuvchi to'lov (ijro) hujjatlari bo'yicha

talablar. Ko'rsatilgan talablar to'liq qanoatlantirilgandan keyin ijtimoiy sug'urta bo'yicha talablar hamda jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablari qanoatlantiriladi;

– beshinchi navbatda - sug'urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

21-modda. Sug'urtalovchining sug'urta zaxiralari

Qabul qilingan sug'urta majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun sug'urtalovchilar ham so'mda, ham chet el valyutasida to'langan sug'urta mukofotlaridan qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta zaxiralarini shakllantiradilar hamda joylashtiradilar.

Sug'urtalovchining sug'urta zaxiraloriga mos keluvchi aktivlari olib qo'yilishi mumkin emas.

22-modda. Sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatining kafolatlari

Sug'urtalovchilar ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdordan va majburiyatlar jamining yo'l qo'yiladigan eng ko'p miqdoridan ortiq majburiyatlarni o'z zimmalariga olishlari mumkin emas, ularning bu majburiyatlarni bajarish qobiliyati to'lovga qobiliyatlilik normativlariga va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablariga muvofiq qayta sug'urta qilingan hollar bundan mustasnodir. Sug'urtalovchilar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilishga haqlidirlar.

23-modda. Sug'urtalovchilar buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadilar.

24-modda. Monopolistik faoliyatga yo'l qo'yilmasligi

Sug'urta bozorida raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga, bir sug'urtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzaliklar berilishiga yoki olinishiga, sug'urta qildiruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga o'z uyushmalari (ittifoqlari) va boshqa birlashmalaridan sug'urta bozorini monopollashtirishga qaratilgan bitimlarga erishish yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

25-modda. Axborot olish huquqi

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlar sug'urtalovchilarning va adjasterlarning so'roviga ko'ra sug'urta hodisalarining ro'y berishi sabablari hamda holatlarini, shuningdek sug'urta to'voni (sug'urta puli) miqdorlarini sug'urtalovchi va adjaster tomonidan aniqlash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni taqdim etishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridan qabul qilingan pul mablag'lari va majburiyatlarining miqdorlari haqidagi axborotni, shuningdek boshqa axborotni o'z vakolati doirasida talab qilib olishga haqli. Bunday axborotni talab qilib olish yozma ravishda, so'rov sabablari ko'rsatilgan holda amalga oshirilmog'i lozim.

Maxsus vakolatli davlat organi o'zi olgan axborotning sir tutilishiga rioya etishi shart, axborotning oshkor qilinishi qonunda ruxsat etilgan hollar bundan mustasno.

26-modda. Sug'urta siri

Sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar, sug'urta qildiruvchilarning va sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'i, sug'urtalangan mol-mulk, sug'urta puli, bank

hisobvaraqlari mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiqlari va pul harakati haqidagi ma'lumotlar oshkor qilinishi mumkin emas.

Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning umumiy shartlari, tavsiya etilayotgan sug'urta bitimlari va operatsiyalarining ro'yxati, sug'urta tariflari, sug'urta turlari hamda muddatlari ochiq axborot bo'lib, sug'urta siri predmeti bo'lishi mumkin emas.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar sug'urta qildiruvchi, shuningdek sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar o'zlariga taalluqli ma'lumotlarga doir yozma rozilik berganda uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar sug'urta qildiruvchining roziligi olinmagan holda sug'urtalovchi tomonidan Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar sug'urta qildiruvchilarning roziligini olmagan holda sug'urtalovchilar tomonidan sudga, prokurorga, qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lgan taqdirda esa, surishtiruv va tergov organlariga, sudning undiruvni sug'urta qildiruvchining mol-mulkiga qaratish yoki bu mol-mulkni xatlash haqidagi qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lgan taqdirda, davlat ijrochilariga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar, bundan sug'urta qildiruvchilarning va sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'i holati, bank hisobvaraqlari mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiqlari va pul harakati haqidagi ma'lumotlar mustasno, qonun hujjatlarida majburiy sug'urta bo'yicha belgilangan majburiyatning sug'urta qildiruvchilar tomonidan bajarilishi us-

tidan nazoratni amalga oshiruvchi tegishli davlat boshqaruvi organlariga sug'urta qildiruvchilarning roziligi olinmagan holda belgilangan tartibda sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladi.

Tuzilgan sug'urta shartnomalari va amalga oshirilgan hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotnomalar sug'urta qildiruvchi jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda quyidagilarga beriladi:

– sug'urta qildiruvchi o'z vasiyatnomasida ko'rsatgan shaxsga;

– sud va notariusga — ularning ish yurituvida bo'lgan merosga oid ishlar bo'yicha sudning qarori yoki notariusning o'z muhri bilan tasdiqlangan yozma so'rovi asosida. Notariusning yozma so'roviga sug'urta qildiruvchi vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi ilova qilingan bo'lishi kerak;

– konsulga uning ish yurituvida bo'lgan merosga oid ishlar yuzasidan.

Sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilari pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmi moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq bo'lgan axborotni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

Tuzilgan sug'urta shartnomalari to'g'risidagi ma'lumotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit byurolariga taqdim etiladi.

27-modda. Chet el sug'urta tashkilotlarining faoliyati

Chet el sug'urta tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslar — sug'urta bozori professional ishtirokchilarining muassislari (ishtirokchilari) bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

28-modda. Nizolarni hal etish

Sug'urta faoliyati sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasining
Birinchi Prezidenti

I. KARIMOV

Toshkent 2002 yil 5 aprel

**Sug'urtalovchini qayta tashkil etishga
ruxsatnoma berish tartibi to'g'risida
NIZOM**

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom sug'urtalovchini qayta tashkil etishga ruxsatnoma (keyingi o'rinlarda - qayta tashkil etishga ruxsatnoma deb ataladi) berish tartibini belgilaydi.

2. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma ushbu Nizomga 1 va 2-ilovalarga muvofiq sxema va shakl bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (keyingi o'rinlarda vakolatli organ deb ataladi) tomonidan beriladi.

3. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma berish sug'urtalovchilarga qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish yoki o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish huquqini beradi.

4. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma amal qilish muddati cheklanmasdan beriladi.

**II. RUXSATNOMA BERISHGA DOIR
TALABLAR VA SHARTLAR**

5. Sug'urtalovchilarni qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida qayta tashkil etishda ruxsat berishga doir talablar va shartlarga quyidagilar kiradi:

- sug'urtalovchilar tomonidan ularning moliyaviy barqarorligiga qo'yiladigan talablarga rioya etilishi;
- sug'urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga yo'l qo'yilmasligi;

– sug'urtalovchilar tomonidan ularga huquqiy vorislik tartibida o'tgan ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olingan majburiyatlarning bajarilishi;

– sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishning qonun hujjatlariga muvofiqligi.

III. QAYTA TASHKIL ETISHGA RUXSATNOMA OLISH UCHUN ZARUR BO'LGAN HUJJATLAR

6. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma olish uchun sug'urtalovchi vakolatli organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

– ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha qayta tashkil etishga ruxsatnoma berish to'g'risida ariza;

– muassislarning (qatnashchilarning) yoki ta'sis hujjatlarida bunga vakolat berilgan sug'urtalovchi boshqaruv organining qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;

– tashkil etilayotgan sug'urtalovchining balansi va uning faoliyati moliyaviy natijalari prognozi;

– qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shartnomasining loyihasi (qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

7. Sug'urtalovchidan ushbu Nizomning 6-bandida nazarda tutilmagan hujjatlarning taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

8. Qayta tashkil etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar sug'urtalovchi tomonidan vakolatli organga bevosita, pochta aloqasi orqali yoki ularning olinganligi to'g'risidagi xabarnoma bilan elektron shaklda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar sug'urtalovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

9. Hujjatlar ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxatning nusxasi hujjatlar qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda sug'urtalovchiga darhol beriladi (yuboriladi).

IV. ARIZANI KO'RIB CHIQISH VA QAYTA TASHKIL ETISHGA RUXSATNOMA BERISH YOKI RAD ETISH TO'G'RSIDA QAROR QABUL QILISH

10. Vakolatli organ sug'urtalovchining arizasini ko'rib chiqadi, ushbu Nizomning 6-bandida nazarda tutilgan hujjatlardan qabul qilib olingan sanadan boshlab o'n besh kundan ortiq bo'lmagan muddatda qayta tashkil etishga ruxsatnomani beradi yoki rad etadi. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma berish to'g'risida sug'urtalovchining arizasi ko'rib chiqilganligi uchun vakolatli organ tomonidan yig'im undirilmaydi.

11. Agar vakolatli organ qayta tashkil etishga ruxsatnoma berish yoki uni rad etish to'g'risida sug'urtalovchining arizasini ko'rib chiqish muddati mobaynida sug'urtalovchiga qayta tashkil etishga ruxsatnoma bermasa yoki uni berishni rad etmasa, u holda ushbu Nizomning 10-bandida nazarda tutilgan muddat tamom bo'lgandan keyin sug'urtalovchi uni amalga oshirish uchun ruxsatnoma olish niyatida bo'lgan qayta tashkil etishni, bu haqda vakolatli organni yozma ravishda xabardor qilgan holda amalga oshirish huquqiga ega.

Ushbu bandning birinchi xatboshida nazarda tutilgan holatda vakolatli organ sug'urtalovchining yozma xabarnomasi olingandan keyin besh ish kuni mobaynida unga qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishga majbur. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma olingunga qadar taqdim etilgan hujjatlarning ular qabul qilingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan ro'yxati va sug'urtalovchi tomonidan vakolatli organga yuborilgan yozma xabarnoma qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishga tenglashtiriladi va qayta tashkil etishni sodir etish uchun asos hisoblanadi.

12. Vakolatli organ tegishli qaror qabul qilingan sanadan boshlab bir ish kunidan kechikmay sug'urtalovchiga qayta tashkil etishga ruxsatnomani beradi (yuboradi) yoki uni berish rad etilganligi to'g'risida uni yozma shaklda xabardor qiladi. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilganligi uchun vakolatli organ tomonidan yig'im undirilmaydi.

13. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma berish quyidagi asoslar bo'yicha rad etilishi mumkin:

– qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilishi uchun zarur bo'lgan hujjatlarning sug'urtalovchi tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;

– sug'urtalovchining ruxsat berishga doir talablar va shartlarga muvofiq emasligi;

– sug'urtalovchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning mavjudligi.

Qayta tashkil etishga ruxsatnomani berishni boshqa asoslarga ko'ra, shu jumladan, maqsadga muvofiq emas degan va-jlar bilan rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Qayta tashkil etishga ruxsatnomani berish rad etilganligi haqidagi xabarnoma sug'urtalovchiga yozma shaklda, rad etish sabablari, qonun hujjatlarining aniq normalari va sug'urtalovchi ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, takroran ko'rib chiqish uchun hujjatlarni taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yuboriladi (topshiriladi). Sug'urtalovchi rad etish sabablarini bartaraf etib va hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat qayta tashkil etishga ruxsatnomani berish rad etilganligi haqidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran o'n ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

15. Sug'urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnomani berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni belgilangan muddatda bartaraf etgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish, qayta tashkil etishga ruxsatnomani berish yoki uni berishni rad etish sug'urtalovchining rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi arizasi va rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi. Sug'urtalovchining arizasi takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

16. Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda ilgari sug'urtalovchiga yozma shaklda bayon qilinmagan rad etish sabablarin-

ing vakolatli organ tomonidan ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi, ilgari ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq rad etish sabablarining ko'rsatilishi bundan mustasno.

17. Qayta tashkil etishga ruxsatnomani berish rad etilganligi haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin sug'urtalovchi tomonidan berilgan ariza yangidan berilgan ariza hisoblanadi va vakolatli organ tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

18. Sug'urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnoma berish rad etilganligi, shuningdek vakolatli organ mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

V. QAYTA TASHKIL ETISHGA RUXSATNOMALAR DUBLIKATLARINI BYERISH

19. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan taqdirda sug'urtalovchining arizasiga ko'ra uning dublikati beriladi.

20. Vakolatli organ qayta tashkil etishga ruxsatnoma dublikatini ariza olingan kundan boshlab besh ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda, shuningdek qayta tashkil etishga ruxsatnomaning asl nusxasini - u yaroqsiz holga kelgan taqdirda berishga (yuborishga) majbur. Qayta tashkil etishga ruxsatnoma dublikati berilganligi uchun vakolatli organ tomonidan yig'im undirilmaydi.

VI. QAYTA TASHKIL ETISHGA RUXSATNOMANING AMAL QILISHINI TO'XTATIB TURISH, TO'XTATISH VA UNI BEKOR QILISH

21. Qayta tashkil etishga ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish va to'xtatish, qayta tashkil etishga ruxsatnomani bekor qilish «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 22, 23 va 25-moddalariga muvofiq nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

22. Vakolatli organ tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan ruxsat beruvchi talablar va shartlarga rioya qilishni tekshirishdan bosh tortish qayta tashkil etishga ruxsatnomaning amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatish uchun asos bo'ladigan ruxsat beruvchi talablar va shartlarning bir marta qo'pol ravishda buzilishiga kiradi.

VII. QAYTA TASHKIL ETISHGA BERILGAN RUXSATNOMALAR REYESTRI

23. Vakolatli organ qayta tashkil etishga berilgan ruxsatnomalar reyestrini yuritadi va uni o'zining rasmiy veb-saytida joylashtiradi.

Qayta tashkil etishga berilgan ruxsatnomalar reyestrída sug'urtalovchilar to'g'risidagi quyidagi asosiy ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

– sug'urtalovchining nomi, uning tashkiliy-huquqiy shakli, pochta manzili, telefoni;

– qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilgan sana va uning tartib raqami;

– qayta tashkil etishga ruxsatnomani qayta rasmiylashtirish, uning amal qilishini to'xtatib turish va tiklashning asosi va sanasi;

– qayta tashkil etishga ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatishning asosi va sanasi;

– qayta tashkil etishga ruxsatnomani bekor qilishning asosi va sanasi;

– qayta tashkil etishga ruxsatnomalar dublikatlarini berishning asosi va sanasi.

24. Qayta tashkil etishga berilgan ruxsatnomalar reyestridagi ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslarning ular bilan tanishishi uchun ochiq hisoblanadi.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ

Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислох қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида

Республикада молия бозорини янада ривожлантириш, аҳолини сифатли молиявий хизматлар билан қамраб олиш қўламини кенгайтириш, суғурта ташкилотлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, шунингдек, ушбу соҳада истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари изчил амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга ислохотларнинг ҳозирги босқичида иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминлашга, аҳоли ҳаётининг сифати ва даражасини оширишга йўналтирилган молиявий хизматларни фаол ривожлантириш республикада суғурта бозорининг ролини кучайтиришни ва суғурта воситаларини кенг қўллашни тақозо этмоқда.

Миллий суғурта бозорини янада ислох қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш, суғурта хизматларининг талаб юқори бўлган янги турларини жорий этиш, истеъмолчиларнинг суғурта бозорига бўлган ишончини ошириш мақсадида, шунингдек, 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга ошириш бўйича Давлат дастурига мувофиқ:

1. Куйидагилар Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислох қилиш ва жадал ривожлантиришнинг асосий йўналишлари этиб белгилансин:

– суғурта соҳасида норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш, шу жумладан халқаро ташкилотларнинг стандартлари ва тавсияларини ҳамда ушбу соҳадаги энг яхши жаҳон тажрибаларини изчил жорий этиш;

– тартибга солиш ва пруденциал назоратнинг самарали механизмларини жорий этиш орқали суғурта бозорининг ишончлилиги ва барқарорлигини таъминлашга қаратилган суғурта фаолиятини тартибга солиш тизимини институционал ривожлантириш;

– суғурта бозори профессионал иштирокчиларининг капиталлашув даражасини, тўлов қобилияти ва молиявий барқарорлигини ошириш, уларнинг активлари сифатини яхшилаш, шунингдек, суғурталовчиларнинг инвестиция фаолиятини ривожлантириш;

– суғурта брокерлари фаолиятини фаоллаштириш, суғурта агентларининг ишлаш тизимини такомиллаштириш, банксуғурта механизмларини жорий этиш, шунингдек, умуман суғурта бозори профессионал иштирокчиларининг ролини ошириш орқали суғурта бозори инфрагузилмасини ривожлантириш ва кенгайтириш;

– суғурта хизматлари истеъмолчилари ва суғурта фаолиятининг бошқа субъектлари ҳуқуқлари ҳимоясини кучайтириш, аҳолининг суғурта саводхонлигини ва суғуртага бўлган ишончини ошириш, суғурта бозорининг очиклиги ва шаффофлигини таъминлаш;

– янги инновацион суғурта маҳсулотларини жорий этиш ва талаб юқори бўлган анъанавий маҳсулотларни ривожлантириш орқали кўрсатилаётган суғурта хизматлари ҳажмларини, турларини кенгайтириш ва сифатини ошириш;

– суғурта фаолиятини ташкил этиш ва тартибга солиш соҳасида замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш, суғурта хизматларининг электрон турларини фаол жорий этиш ва ривожлантириш;

– суғурта бозори мутахассисларини тайёрлаш, қайта

тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш, суғурта соҳасида таълим беришнинг замонавий усулларини қўллаш, илмий-тадқиқот фаолиятини рағбатлантириш;

– миллий суғурта бозорининг ижобий имижини шакллантириш ва юқори даражада ушлаб туриш ҳамда инвестициявий жозибадорлигини, шу жумладан миллий суғурта бозорини халқаро ва хорижий суғурта бозорлари билан интеграциялаш орқали ошириш.

2. Куйидагилар:

2019-2020 йилларда Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини жадал ривожлантириш бўйича «Йўл харитаси» (кейинги ўринларда — «Йўл харитаси») 1-иловага мувофиқ;

2019 — 2022 йилларда Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини жадал ривожлантиришнинг мақсадли кўрсаткичлари 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Вазирликлар, идоралар, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ва бошқа ташкилотлар раҳбарларига «Йўл харитаси»да назарда тутилган тадбирларни ўз вақтида, тўлиқ ва сифатли амалга ошириш, шунингдек, мақсадли кўрсаткичларга эришиш учун шахсий масъулият юклансин.

3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Иқтисодиёт ва саноат вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг:

– суғурталовчиларнинг суғурта фаолияти турларига боғлиқ ҳолда дифференциацияланган устав капитали минимал миқдорларини 3-иловага мувофиқ 2020 — 2022 йилларда босқичма-босқич ошириш тўғрисидаги:

– даромадларнинг 20 фоизигача миқдоридаги ажратмалар ҳисобига, уларни чегириладиган харажатларга киритган ҳолда шакллантириладиган суғурта ташкилоти захира жамғармасининг чекланган миқдорини суғурта ташкилоти устав фонднинг 50 фоизигача ошириш тўғрисидаги;

– суғуртанинг айрим турлари бўйича электрон полисларни («Е-полис»), шу жумладан Интернет, мобил иловалар, инфокиосklar орқали расмийлаштириш механизмини жорий этиш, уларни қоғоз шаклидаги суғурта шартномаларига (полисларига) тенглаштириш тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин.

4. Белгилансинки, 2020 йил 1 январдан бошлаб:

– юридик шахслар — суғурта (қайта суғурта) брокерлари ва суғурта агентлари учун ягона солиқ тўлови ставкаси комиссия мукофотининг 13 фоизи миқдорида белгиланади;

– суғурта (қайта суғурта) ташкилотининг бошқа суғурта (қайта суғурта) ташкилотлари устав фондларида иштирок этишига йўл кўйилмайди, суғуртанинг бошқа тармоқларидаги суғурта ташкилотлари устав фондларида уларнинг ўзаро иштирокчини чеклаш шартларида иштирок этиш бундан мустасно;

– ваколатли давлат органи суғурталовчилар томонидан қўлланилаётган суғурта тарифларини, истеъмоличиларнинг суғурта хизматлари сифатидан қониқиши даражасини, шунингдек, суғурта маҳсулотларининг самарадорлигини таҳлил қилиш асосида суғурта захираларининг қабул қилинаётган таваккалчиликларга мақбуллигини таъминлайдиган суғурта захираларининг минимал даражасини белгилайди.

5. 2019 йил 1 октябрдан бошлаб шундай тартиб жорий қилинсинки, унга мувофиқ қайта суғурталовчи (қайта суғурта брокери) суғурта мажбуриятларини қайта суғурталаш учун хорижий суғурта ташкилотларига беришдан аввал бериладиган суғурта мажбуриятларининг камида 50 фоизи миқдорида қайта суғурталаш бўйича офертани (қайта суғурталаш шартномаларини тузиш таклифларини) Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қайта суғурталаш фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқига эга бўлган суғурта ташкилотларига юбориши шарт. Бунда:

– оферта шартлари суғурта мажбуриятларини хорижий суғурта ташкилотларига қайта суғурталашга бериш шартларига мувофиқ бўлиши керак;

– оферта акцепти ёки акцептни рад этиш қайта суғурталовчилар — маҳаллий суғурта ташкилотлари томонидан, агар офертада акцепт учун кечроқ муддат кўрсатилмаган бўлса, икки иш кунидан кечикмаган ҳолда амалга оширилади;

– суғурта мажбуриятлари қайта суғурталовчи — маҳаллий суғурта ташкилоти томонидан ўзининг ушлаб қолиш ҳажми доирасида қабул қилинади;

– қайта суғурталовчи — маҳаллий суғурта ташкилоти суғурта ҳодисаси содир бўлган тақдирда ва асосий суғурта шартномаси бўйича суғурта тўловини амалга оширишда қайта суғурталаш шартномаси шартлари доирасида қайта суғурта қилдирувчининг қарорларига амал қилади.

Белгилансинки, ушбу банд талаблари облигатор қайта суғурталашга татбиқ этилмайди ҳамда Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари ва инвестиция битимларида ўзгача тартиб назарда тутилган бўлса, қўлланилмайди.

6. Белгилаб қўйилсинки, жисмоний шахслар даромадларининг ҳаётни узок муддатли суғурталаш (барча тоифадаги ҳаёт суғуртаси соҳаси) бўйича суғурта мукофотларини тўлаш учун Ўзбекистон Республикасида суғурта фаолиятини амалга оширишга лицензияси бўлган юридик шахсларга йўналтирилладиган қисми юзасидан солиқ имтиёзлари қуйидаги шартларда қўлланилади:

а) суғурта суммаси шартнома бўйича суғурта даври бошланиши санасидан камида 12 ойдан сўнг бирийўла тўланганда. Бунда суғурта бадалларини тўлаш суғурта суммасини тўлаш санасидан олдинги 12 ойлик даврда ўсиб бормайдиган тартиб бўйича амалга оширилган бўлиши керак.

Шартнома бўйича суғурталанган шахснинг хаётни узок муддатли суғурталаш (барча тоифадаги хаёт суғуртаси соҳаси) бўйича муайян ёшгача ёки санагача яшашидан бошқача тарздаги суғурта ходисаси содир бўлган тақдирда суғурта қопламасини ёки суғурта суммасини тўлаш кўрсатиб ўтилган имтиёз қўлланилган ҳолда шартнома бўйича суғурта даври бошланиши санасидан 12 ой ўтмасдан амалга оширилиши мумкин;

б) рента (аннуитет) тўлаш шартнома бўйича суғурта даври бошланиши санасидан камида 12 ойдан сўнг бошланганда. Бунда жорий рентани (аннуитетни) тўлаш санасида шартнома бўйича ҳақиқатда жамланган маблағлар (захира) суммаси кўрсатиб ўтилган рента (аннуитет)нинг тўрт бараваридан кам бўлмаслиги керак;

в) рентани (аннуитетни) тўлаш шартнома бўйича суғурта даври бошланиши санасидан 12 ой ўтмасдан бошланганда. Бунда дастлабки рентани (аннуитетни) тўлаш бошланадиган пайтда ҳақиқатда тўланган суғурта бадаллари суммаси шартнома бўйича суғурта мукофотининг йиллик миқдоридан кам бўлмаслиги керак ва ренталарни (аннуитетларни) тўлаш ушбу банднинг «б» кичик банди талабларига риоя қилган ҳолда амалга оширилиши лозим.

Хаётни узок муддатли суғурталаш шартномаси муддатидан олдин тўхтатилиши ёки ушбу банд талаблари бузилиши муносабати билан жисмоний шахсларнинг даромадига солинадиган солиқ тўлов манбаида ушлаб қолинган ва бюджетга ўтказилганда суғурталовчи томонидан суғурталанувчига олинган суғурта мукофотлари суммаси, жисмоний шахсларнинг даромадидан ушлаб қолинган солиқ ва қайтариладиган маблағлар тўғрисида маълумотнома берилади.

7. 2020/2021 ўқув йилидан бошлаб суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари ходимларини соҳага ихтисослашган олий таълим муассасаларининг «Суғурта

иши» таълим йўналиши бўйича сиртки ва кечки бўлимларга тест синовлари ўтказилмасдан, белгиланган қабул квоталаридан ташқари нулли-контракт асосида қабул қилиш тартиби жорий этилсин.

Бунда олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш суҳбаг яқунлари бўйича ва қуйидагилар:

– ходимда умумий ўрта ёки ўрта махсус, касб-хунар маълумоти ва суғурта бозорида камида 2 йил амалий иш стажы мавжуд бўлиши;

– контракт иш берувчи — суғурта бозорининг профессионал иштирокчиси томонидан кафолатли тўланиши ва ходим — битирувчи ўқишни тамомлагандан кейин суғурта бозорининг профессионал иштирокчиси штагида 3 йил мобайнида мажбурий ишлаб бериши шарты билан амалга оширилади.

8. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Мутахассисларни хорижда тайёрлаш ва ватандошлар билан мулоқот қилиш бўйича «Эл-юрт умиди» жамғармаси билан биргаликда суғурта бозори мутахассисларининг хорижий таълим ва бошқа ташкилотларда таълим олиши, малака ошириши ва стажировка ўташи тизимли асосда ташкил этилишини белгиланган тартибда таъминласин.

Ўзбекистон суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари уюшмасига суғурта бозори мутахассисининг чет элда ўқиши, малакасини ошириши ёки стажировка ўташи зарурлигини асослангирган ҳолда унга нисбатан тавсия хатини белгиланган тартибда «Эл-юрт умиди» жамғармасига киритиш ҳуқуқи берилсин.

9. Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги 2019 йил 30 ноябрга қадар Бирлашган Араб Амирликлари ҳукуматининг техник кўмагида давлат бошқаруви самарадорлигини ошириш дастурига суғурта фаолияти соҳасидаги мутахассислар малакасини ошириш

бўйича алоҳида йўналиш киритиш масаласини кўриб чиқсин.

10. Молия вазирлигининг Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Суғурта назорати давлат инспекцияси негизида Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Суғурта бозорини ривожлантириш агентлигини (кейинги ўринларда — Агентлик) ташкил этиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

11. Қуйидагилар Агентликнинг асосий вазифалари этиб белгилансин:

– суғурта бозорининг ишлаши ва унинг профессионал иштирокчилари фаолияти очиклиги ва шаффофлигини, шу жумладан суғурта фаолияти соҳасидаги статистик ва молиявий кўрсаткичларни мунтазам эълон қилиш йўли билан таъминлаш;

– суғурта хизматлари истеъмолчилари ва суғурта муносабатларининг бошқа иштирокчилари ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳамоя қилинишини таъминлаш, аҳолининг суғурта бозорига ишончини оширишга ва жамиятда суғурта маданиятини ривожлантиришга кўмаклашиш;

– суғурта бозори мутахассисларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни, шу жумладан чет элда, шунингдек, халқаро даражадаги экспертлар ва мутахассисларни жалб қилган ҳолда ташкил этишга кўмаклашиш;

– суғурталовчиларнинг тўлов қобилияти, суғурта захираларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш бўйича мажбурий норматив ва талабларни белгилаш, шунингдек, самарали суғурта фаолиятини ташкил этиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш;

– суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари томонидан суғурта фаолияти соҳасидаги қонун ҳужжатларига, шунингдек, уларнинг молиявий барқарорлигини

таъминлаш бўйича белгиланган норматив ва талабларга риоя этилишини назорат қилиш;

– суғурталовчилар (қайта суғурталовчилар) ва суғурта брокерларининг суғурта фаолиятини лицензиялаш, актуарийлар фаолиятини сертификатлаш;

– суғурта бозорининг ҳолати ва унинг профессионал иштирокчилари фаолиятининг ҳисоби ва ҳисоботини юритиш, масофавий назорат қилиш ва тезкор онлайн-мониторингини олиб бориш бўйича интеграциялаштирилган ахборот тизимини шакллантириш ва юритиш;

– аҳоли ва тадбиркорлик субъектларининг ўсиб бораётган эҳтиёжларини таъминлашга қаратилган суғурта хизматларининг талаб юқори бўлган анъанавий турларини ривожлантиришга ва янги турларини жорий қилишга кўмаклашиш, кишлоқ хўжалиги фаолияти соҳасида суғурта химоясини кучайтириш;

– хорижий давлатларнинг ўхшаш тузилмалари, халқаро молия институтлари ва бошқа хорижий ташкилотлар билан суғурта фаолияти соҳасида ҳамкорликни ташкил этиш.

12. Белгилансинки:

Агентлик суғурта бозорини тартибга солиш ва ривожлантириш бўйича ваколатли давлат органи, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг суғурта фаолиятини тартибга солиш ва назорат қилиш қисмидаги барча ҳуқуқлари, мажбуриятлари ва шартномалари бўйича унинг ҳуқуқий вориси ҳисобланади;

Агентликни сақлаш Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети маблағлари ва қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобига амалга оширилади;

Агентликка Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг тақдимномаси бўйича Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан лавозимга тайинладиган ва лавозимидан озод қилинадиган директор бошчилик қилади;

Агентлик директори мақоми, меҳнатга ҳақ тўлаш, тиббий ва транспорт хизмати кўрсатиш шартлари бўйича вазирнинг ўринбосарига тенглаштирилади;

Агентлик ходимларига Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ходимлари учун белгиланган меҳнатга ҳақ тўлаш шартлари татбиқ этилади.

13. Агентлик бошқарув ходимларининг чекланган сони Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги тизими бошқарув ходимларининг белгиланган умумий сони доирасида 28 бирлик этиб белгилансин.

14. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Молия вазирлиги билан биргаликда 2019 йил 30 ноябрга қадар:

мажбурий тиббий суғурта механизмларини жорий этишнинг ҳуқуқий асосларини;

Сирдарё вилоятида 2020 йилдан бошлаб «даволанган ҳолат» учун тиббий хизматлар тўлови механизмини ва «жон боши нормативи» асосида молиялаштириш тизими методологиясини, шунингдек, 2021 йилдан бошлаб — мажбурий тиббий суғурта тизимини тажриба-синов тарзида жорий этишни назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

15. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги бошқа манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда Вазирлар Маҳкамасига:

а) икки ой муддатда:

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Суғурта бозорини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисидаги Ҳукумат қарори лойиҳасини, шу жумладан Агентлик тузилмаси ва Агентлик тўғрисидаги низомни тасдиқлашни назарда тутган ҳолда;

– қонун ҳужжатларига мазкур қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисидаги таклифларни;

б) 2020 йил 1 январга қадар суғурта ташкилотларининг фаолиятини таваккалчиликка қаратилган ёндашув асосида тартибга солишга йўналтирилган, суғурталовчиларнинг капиталли етарлилиги ва тўлов қобилияти бўйича халқаро стандартларни суғурта фаолиятига босқичма-босқич жорий этиш стратегияси лойиҳасини киритсин.

16. Қуйидагилар:

Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислох қилиш ва жадал ривожлантиришга кўмаклашиш бўйича ишчи гуруҳ таркиби 4-иловага мувофиқ;

– ушбу қарорни амалга ошириш бўйича Багафсил амалий тадбирлар режаси 5-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Ишчи гуруҳ (Ж. Қўчқоров):

– ушбу қарорда назарда тутилган чора-тадбирлар сўзсиз ижро этилишининг мувофиқлаштирилиши ва назорат қилинишини, шунингдек, уларнинг ўз вақтида, тўлиқ ва сифатли амалга оширилишининг ташкил этилишини;

2019 — 2022 йилларда Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини жадал ривожлантиришнинг мақсадли кўрсаткичлари бажарилиши устидан тизимли мониторинг олиб борилишини;

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига ҳар чоракда мазкур қарорнинг ижроси юзасидан ахборот киритиб борилишини таъминласин.

17. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги ва Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси оммавий ахборот воситаларида ушбу қарорнинг мақсад ва вазифаларини кенг ёритиш бўйича чиқишлар ҳамда мавзули кўрсатувлар ва эшиттиришларни ташкил этсин.

18. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов,

Ўзбекистон Республикаси Президентининг маслаҳатчиси
Р.А. Ғуломов ва Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг
ўринбосари — молия вазири Ж.А. Қўчқоров зиммасига
юклансин.

Ўзбекистон Республикаси

Президенти

Тошкент ш.,

2019 йил 2 август,

ПҚ-4412-сон

Ш. МИРЗИЁЕВ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ҚАРОРИ

**Экспорт фаолиятини молиялаштириш ва суғурта
химояси механизмларини кенгайтириш чора-
тадбирлари тўғрисида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 20 декабрдаги «Экспортга кўмаклашиш ва уни рағбатлантиришни кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4069-сон қарорига мувофиқ, шунингдек, экспорт ва экспорт олди молиялаштириш, экспорт кредитлари ва таваккалчиликларини суғурталаш механизмларини самарали татбиқ этиш учун зарур шарт-шароитлар яратиш мақсадида:

1. Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги, Молия вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва саноат вазирлигининг экспорт қилувчиларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тартибини ўрнатиш тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин, унга мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш давлат жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) экспорт қилувчиларга:

– тижорат банкларининг экспорт олди кредитлари, шу жумладан айланма маблағларни тўлдириш учун берилган кредитлари бўйича фоиз харажатларини қоплашга, миллий валютадаги кредитлар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг қайта молиялаш ставкасидан ошган қисмида, бироқ 10 фоизлик пунктдан кўп бўлмаган миқдорда, хорижий валютадаги кредитлар бўйича — тижорат банклари томонидан белгиланган ставканинг 40 фоизи, бироқ 4 фоизлик пунктдан ошмаган миқдорда компенсация тақдим этади;

– тижорат банкларининг кредитлари, шу жумладан экспорт олди кредитлари бўйича кредит суммасининг 50 фоизигача, бироқ 4 миллиард сўмдан ошмаган миқдорда кафиллик беради.

Белгилансинки, ушбу бандда назарда тутилган қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 ноябрдаги «Маҳаллий ишлаб чиқарувчиларнинг экспорт салоҳиятини янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5587-сон Фармони 1-илоvasида кўрсатилган хом ашё товарлари экспортга нисбатан татбиқ этилмайди.

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги Жамғарманнинг буюртманомалари асосида 2019-2020 йиллар давомида ушбу бандда кўрсатилган мақсадлар учун Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидан 50 миллиард сўмгача миқдорда маблағ ажратсин.

2. Ўзбекистон банклари ассоциацияси тижорат банклари билан биргаликда экспорт қилувчи корхоналарни, шу жумладан айланма маблағларни тўлдириш учун кредитлар бериш орқали молиялаштириш турларини кенгайтирсин.

3. Маҳаллий экспорт қилувчи корхоналар (уларнинг ваколатли вакиллари)га иловадаги рўйхатга мувофиқ маҳсулотларни экспорт қилишда темир йўл транспортида ташиш харажатларини 50 фоизигача миқдорда компенсация қилишга субсидиялар тақдим этиш механизми жорий қилинсин.

Белгилансинки, ушбу бандда назарда тутилган қўллаб-қувватлаш чораси қўшни давлатларга экспорт қилинадиган маҳсулотларга татбиқ этилмайди, қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳолатлар бундан мустасно.

Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳузуридаги Экспортни рағбатлантириш агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) маҳсулотни экспортга ташиш харажатларининг бир қисmini компенсация қилиш учун Ўзбекистон Республикаси Давлат

бюджетининг маблағлари ҳисобидан субсидиялар тўлаш бўйича ваколатли орган этиб белгилансин.

Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлигига Молия вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва саноат вазирлиги билан келишилган ҳолда ушбу банд билан тасдиқланган рўйхатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳуқуқи берилсин.

4. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ товарлар (ишлар, хизматлар)ни, шу жумладан, комиссионер (ишончли вакил) орқали реализация қилишдан тушган умумий тушумида ҳисобот даври якуни бўйича тайёр маҳсулот экспорти улуши 50 фоиздан юқори бўлган юридик шахсларга уларнинг аризаларига кўра экспортга мўлжалланган маҳсулот ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган хом ашё, бутловчи буюмлар ва материаллар импортида қўшилган қиймат солиғи тўлашни божхона декларацияси қабул қилинган кундан бошлаб 120 кунга кечиктириш имконияти берилди.

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Давлат божхона кўмитаси ва Давлат солиқ кўмитаси икки ой муддатда экспорт қилувчи корхоналарга қўшилган қиймат солиғини тўлашни кечиктириш имкониятини бериш тартибини ишлаб чиқсин ва тасдиқласин.

5. Агентлик зиммасига ҳам республикамиздаги, ҳам хориждаги халқаро стандартлаштириш ва сертифицирлаштириш тизимларини жорий этиш, миллий маҳсулотни хорижий давлатлар ваколатли органларида рўйхатдан ўтказиш, шунингдек, кўргазма стендларини ташкил қилиш ва халқаро кўргазма-ярмаркаларида иштирок этиш, тақдимотлар ва реклама кампанияларини ўтказиш, шу жумладан, ағъанавий миллий маҳсулотлар ва брендларни потенциал бозорларда илгари суриш бўйича экспорт қилувчи ташкилотларга молиявий кўмак бериш вазифаси юкланганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

Агентлик икки ой муддатда экспорт қилувчи ташкилотларга мазкур молиявий кўмакни бериш механизмини ишлаб чиқсин ва тасдиқлаш учун Вазирлар Маҳкамасига киритсин, бунда тадбиркорлик субъектларининг хорижий мамлакатларда зарур лицензиялар, рухсатномалар, сертификатлар олиш, шунингдек, рўйхатдан ўтказиш йиғимлари ҳамда халқаро тендерлар ва танловларда иштирок этиш билан боғлиқ бошқа тўлов харажатларининг бир қисмини тўлашни назарда тутсин.

6. Белгилансинки, 2019 йил 1 июндан бошлаб тирик ҳолдаги товук, қуён ва балиқ ҳамда уларни сўйиб ишланган маҳсулотлар экспорти учун Ўзбекистон Республикаси Президенти ёки Вазирлар Маҳкамаси рухсати талаб қилинмайди.

7. Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳамда «Ўзбекинвест» экспорт-импорт миллий суғурта компанияси (кейинги ўринларда — «Ўзбек-инвест» ЭИМСК) директорлар Кенгашининг:

«Ўзбекинвест» ЭИМСКнинг устав капиталини компаниянинг ўз капитали ҳисобига 221,6 млрд сўмгача кўпайтириш;

«Ўзбекинвест» ЭИМСК тузилмасида экспортголни ва экспорт суғуртаси масалалари бўйича бош директорнинг биринчи ўринбосари лавозимини жорий этиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.

8. Белгилансинки:

«Ўзбекинвест» ЭИМСКнинг экспортни суғурталаш орқали қўллаб-қувватлаш хизматлари комплекси харидор кредитини, қисқа муддатли дебитор қарздорликни, маҳсулот етказиб берувчи кредитини, тасдиқланган аккредитивни, экспорт қилувчининг айланма маблағларини тўлдириш кредитини, экспорт факторингни суғурталашни ҳамда экспортни суғурталаш орқали қўллаб-қувватлашнинг бошқа воситаларини ўз ичига олади;

– молия йилида экспорт контрактлари ва кредитларини суғурталашнинг барча шартномалари бўйича (ҳом ашё бўлмаган маҳсулот экспорти қисмида) суғурта товон тўлашнинг умумий ҳажми «Ўзбекинвест» ЭИМСК ўз капиталининг 10 фоизидан ошиб кетган тақдирда, «Ўзбекинвест» ЭИМСК ўз капиталининг 10 фоизидан ошиб кетган миқдордаги йўқотишлари унинг устав жамғармасини ошириш орқали Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан компенсация қилинади.

9. Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги:

– икки ой муддатда Давлат активларини бошқариш агентлиги билан биргаликда «Ўзбекинвест» ЭИМСК фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида тегишли ҳукумат қарори лойиҳасининг белгиланган тартибда ишлаб чиқилиши ҳамда Вазирлар Маҳкамасига киритилишини;

– бир ой муддатда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Транспорт вазирлиги билан биргаликда хабар берилганлик факти қайд этилишини таъминлайдиган ахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда, буюртманомаларни, шу жумладан 2019 йил 1 майдан буён амалга оширилган маҳсулот экспорти бўйича қабул қилиш ва кўриб чиқиш механизмининг назарда тутадиган, маҳсулот олиб бориладиган мамлакат ва субсидия тақдим этишнинг энг кўп муддатидан келиб чиқиб, Маҳсулотни экспорт қилишда ташиш харажатларини Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан компенсация қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш учун Вазирлар Маҳкамасига киритилиши;

2019 йил 1 августга қадар Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш жамғармаси ва Агентлик маблағлари ҳисобидан ташқи иқтисодий фаолият соҳасида давлат хизматларининг интерактив шаклда тақдим этилишини, шунингдек, давлат тили, рус тили ва бошқа

хорижий тилларда багафсил маълумотлардан фойдаланиш имкониятини таъминлайдиган, электрон савдо майдончалари ҳамда манфаатдор вазирликлар ва идораларнинг ахборот тизимлари билан интеграциялашган Ташки иқтисодий маълумотлар портални яратиш ва ишга туширишни;

– бир ой муддатда манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда Ташки иқтисодий маълумотлар портални юритиш ва масъул идоралар томонидан Порталга тегишли маълумотлар ўз вақтида киритилиши устидан мониторингни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низом тасдиқланишини;

– бир ой муддатда «Ўзагроэкспортбанк» АТБ негизида экспорт ва импортни молиялаштириш бўйича ихтисослашган банк ташкил этиш юзасидан таклиф киритилишини таъминласин.

10. Ўзбекистон Республикаси Транспорт вазирлиги Монополияга қарши курашиш кўмитаси билан биргаликда бир ой муддатда «Uzbekistan airways» АЖ ва «Ўзбекистон темир йўллари» АЖнинг экспорт юкларини ташиш тарифларини танқидий қайта кўриб чиқсин.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 17 октябрдаги «Мева-сабзавот маҳсулотларини ташки бозорларга чиқариш самарадорлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-3978-сон қарорининг 6 ва 7-бандлари, 14-бандининг еттинчи хатбоши ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

12. Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташки савдо вазирлиги икки ой муддатда манфаатдор вазирликлар, идоралар ва ташкилотлар билан биргаликда қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

13. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н. Арипов,

Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосарлари
Ж.А. Қўчқоров ва Э.М. Ғаниев зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси
Президенти

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2019 йил 24 май,
ПҚ-4337-сон

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил
24 майдаги ПҚ-4337-сон қарорига
ИЛОВА**

**Экспорт қилишда темир йўл транспортида
ташиш харажатларининг бир қисми компенсация
қилинадиган маҳсулотлар
РЎЙХАТИ**

Т/р	Маҳсулот номи	Маҳсулотнинг ТИФ ТН коди
1.	Ҳужум*	0407210000
2.	Табиий узум винолари	2204101100, 2204219700, 2204219800, 2204299501, 2204299508, 2204299601, 2204299701, 2204299708, 2204299709, 2204299801, 2204299809, 2204309800
3.	Таркибда антибиотиклар бўлган пенициллинлар, дори воситалари	3004100001, 3004100006, 3004200001, 3004200002
4.	Обойлар ва шунга ўхшаш девор қошамалари	4814200000
5.	Тўқима гиламлар	5702429000
6.	Линолеум	5904100000
7.	Трикотаж пальто, қалта пальто, накид- калар, плашлар, курткалар	6101309000, 6101902000, 6102201000, 6102209000, 6102309000, 6102901000
8.	Трикотаж костюмлар, комплеклар, пиджаклар, блейзерлар, шимлар, кўкрак ва тасмали комбезонлар, бриджилар ва шортиклар	6103109000, 6103220000, 6103230000, 6103290000, 6103320000, 6103390000, 6103420000, 6103420001, 6103420009, 6103430000, 6103430001, 6103430009, 6103490000, 6103490001, 6104192000, 6104220000, 6104320000, 6104390000, 6104420000, 6104430000, 6104440000, 6104490000, 6104520000, 6104530000, 6104610001, 6104620000, 6104630000, 6104690001, 6104690009
9.	Трикотаж кўйлақлар	6105100000, 6105201000, 6105909000
10.	Трикотаж блузкалар, блузалар ва бошқалар	6106100000, 6106909000
11.	Трикотаж кальсонлар ва трусиклар	6107110000
12.	Трикотаж свитерлар, пуловерлар, кар- диганлар, нимчалар ва шунга ўхшаш трикотаж маҳсулотлари	6110113000, 6110119000, 6110201000, 6110209100, 6110209900, 6110301000, 6110309100, 6110309900, 6110909000
13.	Бодалар кийими	6111209000
14.	Трикотаж спорт костюмлари	6112110000
15.	Трикотаж кийимлар предметлари	6114200000
16.	Трикотаж колготкалар, чулкилар, пайпоқлар ва бошқалар	6115950000
17.	Пальто, қалта пальто ва бошқалар	6201930000, 6202139000, 6202930000

18.	Костюмлар, комплеклар, пиджаклар, блайзерлар, лимлар, кўкрак ва гасмали комбинезонлар, бриджилар ва шортиklar	6203120000, 6203199000, 6203221000, 6203231000, 6203339000, 6203423100, 6203423500, 6203429000, 6203431900
19.	Аёллар кўйлаklари, лимлар, комбинезонлар ва бошқалар, кўйлаklар, рўмоллар	6204420000, 6204623100, 6205200000, 6213200000
20.	Блузкалар, блузалар ва бошқалар	6206300000
21.	Майкалар, ичдан кийиладиган фуфайкалар ва бошқалар	6207910000, 6208910000
22.	Бодалар кийими	6209300000
23.	Спорт костюмлари	6211339000, 6211390000
24.	Шодрўмоллар, шарфлар ва хоказо	6214400000
25.	Етоқ, ошхона чойиваблари ва бошқалар	6302100001, 6302210000, 6302600000, 6302910000
26.	Материаллардан тайёрланган декоратив буюмлар	6304191000
27.	Сув ўтказмайдиган пойабзал	6401921000, 6401929000, 6401990000
28.	Пойабзал	6403200000, 6403400000, 6403911600, 6403999100, 6403999600, 6404199000, 6404209000, 6405100000, 6405209100, 6405209900, 6405901000
29.	Шлак пахта, минерал пахта ва бошқалар	6806100008, 6806209000, 6806900000
30.	Тош ётқизиш учун плиталар	6907219001, 6907229003, 6907229009, 6907239003
31.	Керамикадан ясалган пардозлаш буюмлари	6907409003, 6907409009
32.	Ошхона идишлари ва бошқалар	6912001000, 6912002100, 6912002300, 6912002500, 6912002900, 6912005000, 6912008100, 6912008900, 6912009000
33.	Шинша тола	7019199009, 7019310000, 7019390009, 7019510000, 7019590000, 7019900009
34.	Шинша идишлар	7010901000, 7010904100, 7010904300, 7010904500, 7010905300, 7010907100, 7010907900
35.	Қалпоқлар ёки вентиляцияли шакафлар	8414600000
36.	Кир юйиш машиналари	8450120000
37.	Аккумуляторлар	8507102003
38.	Трансформаторлар	8504210000, 8504221000, 8504229000, 8504230000, 8504312900, 8504318009, 8504330000, 8504340000, 8504403009, 8504405500, 8504408200, 8504408800, 8504409000, 8504509500, 8504901800, 8504909900
39.	Чанг ютгичлар	8508190001
40.	Таксимлагичлар, ўт олдириш ғалтаклари	8511400008
41.	Электр ускуналар	8511500009

42.	Электр ёритиш ва сигналзация ускуналари	8512200001, 8512200009
43.	Печлар ва камералар	8514900000
44.	Электр сув иситкичлар, микротўлқинли печлар, печлар, электр плиталар ва ҳ.к.	8516108000, 8516500000, 8516601010, 8516601090, 8516607000, 8516609000
45.	Овозни қабул қилиш ва узатиш учун аппаратура, телевизион алоқани қабул қилиш учун аппаратура	8517620009, 8528722001
46.	Коммутация учун электр аппаратура	8535900000
47.	Пультлар, панеллар, юнсоқлар ва бошқалар	8537109900, 8537209100
48.	Диодлар	8541100009
49.	Уралган ва изоляцияланган симлар, ўт олдириш свечалари учун симлар тўплами, электр ўтказкичлар	8544111000, 8544300008, 8544499101, 8544499109, 8544499309, 8544499500, 8544609009
50.	Утириш учун мебель	9401610000, 9401690000, 9401903000
51.	Ўйинчоқлар	9503001000, 9503003500, 9503007000, 9503009500
52.	Гигиена воситалари	9619008101

* Импорт килувчи мамлакатдан қатъи назар.

(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,
25.05.2019 й., 07/19/4337/3182-сон)

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

**Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик
жавобгарлигини мажбурий суғурта қилишни янада
такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида**

Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тизимини умуман ва унинг бевосита иш амалиёти механизмларини такомиллаштириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

1. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги ва Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича тўловларни кафолатлаш жамғармасининг (кейинги ўринларда — Жамгарма деб аталади) онлайн тартибида фаолият юритувчи транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигининг мажбурий суғурта қилиш бўйича ягона ахборот тизимини (кейинги ўринларда — ягона ахборот тизими деб аталади) ишлаб чиқиш ва жорий этиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

2. Жамгарма:

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси ва бошқа манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда бир ой муддатда суғурта сирини тўғрисидаги қонунчиликда белгиланган талабларга кагъий риоя қилган ҳолда идоралараро электрон боғланиш тизими бўйича техник топшириқни ишлаб чиқиш ва тасдиқланишини;

– уч ой муддатда — Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги билан биргаликда Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг ахборот тизимлари ва бошқа манфаатдор вазирликлар ва идораларнинг ахборот тизимлари, жисмоний ва юридик шахсларнинг марказий маълумотлар базаси билан интеграциялашувини ҳисобга олган ҳолда ягона ахборот тизими жорий этилишини таъминласин.

3. Белгилансинки:

– ягона ахборот тизимини яратишни молиялаштириш манбаи Жамғарма маблағлари ҳисобланади;

– мажбурий суғурта бўйича фаолиятни амалга оширувчи суғурта ташкилотлари мажбурий суғурта бўйича ишончли маълумотлар ягона ахборот тизимига ўз вақтида киритилишини Жамғарма билан тузилган, шу жумладан суғурта ташкилотларининг ушбу мажбуриятни бажармаслик оқибатида келиб чиқадиган жавобгарлик чораларини назарда тутувчи келишув шартларига асосан таъминлайдилар.

4. Ушбу қарор кучга кирган кундан бошлаб мажбурий суғурта бўйича суғурта полисларининг янги намунадаги бланкалари муомалага киритилсин.

Бунда илгари берилган муомаладаги мажбурий суғурта бўйича суғурта полисларининг амал қилиш муддати тугагунга қадар ҳақиқий ҳисобланади.

5. Вазирлар Маҳкамасининг «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида» 2008 йил 24 июндаги 141-сон қарорига (Ўзбекистон Республикаси ҚТ, 2008 й., 6-сон, 32-модда) 1-иловага мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

6. Ўзбекистон Республикаси Хукуматининг 2-иловага мувофиқ айрим қарорлари ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

7. Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича тўловларни кафолатлаш жамғармаси ва мажбурий суғурта бўйича фаолиятни амалга оширувчи суғурта ташкилотлари билан биргаликда ушбу қарорнинг моҳияти ва аҳамияти оммавий ахборот воситаларида кенг ёритилишини ташкил этсин.

8. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан биргаликда бир ой муддатда улар қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

9. Ушбу қарор расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ўтгач кучга киради.

10. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари — молия вазири Ж.А. Қўчқоров зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2019 йил 16 март,
222-сон

**ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ 2019 ЙИЛ 16
МАРТДАГИ 222-СОН ҚАРОРИГА
1-ИЛОВА**

Вазирлар Маҳкамасининг «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари ҳақида» 2008 йил 24 июндаги 141-сон қарорига киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар

1. 1-банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Қуйидагилар:

1. Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш (кейинги ўринларда мажбурий суғурта қилиш деб аталади) бўйича суғурта пули — 40 миллион сўм миқдорда;

– компенсация тўлови — жабрланувчи иштирокидаги йўл-транспорт ҳодисаси кунида белгиланган суғурта суммасидан кўп бўлмаган миқдорда белгилансин».

2. 1-иловада:

а) қуйидаги мазмундаги 3¹ банд қўшилсин:

«3¹. Жамғарманинг номи:

– давлат тилида:

– тўлиқ номи — «Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича тўловларни кафолатлаш жамғармаси»;

– қисқартирилган номи — «Суғурта тўловларини кафолатлаш жамғармаси»;

– инглиз тилида:

– тўлиқ номи — «The Fund of guaranteeing payments on compulsory insurance of civil liability of vehicle owners»;

– қисқартирилган номи — «Fund of guaranteeing insurance payments»;

– рус тилида:

– тўлиқ номи — «Фонд гарантирования выплат по обязательному страхованию гражданской ответственности владельцев транспортных средств»;

– қискартирилган номи — «Фонд гарантирования страховых выплат»;

б) 4-банднинг биринчи жумласи чиқариб ташлансин;

в) 20-банд куйидаги таҳрирда баён этилсин:

«20. Жамғарма билан ёзма битим тузиш учун суғурталовчи Жамғармага ариза, белгиланган миқдорда бир йўла тўланадиган бадал тўланганлигини тасдиқловчи тўлов топшириқномаси нухасини тақдим этиши шарт».

г) 31-банд куйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«31. Жамғарманинг ижро этувчи органи унинг Дирекцияси ҳисобланади. Дирекция жорий раҳбарликни амалга оширади ва Жамғарма фаолияти учун жавоб беради. Жамғарма дирекциясининг тузилмаси ва Жамғарма ходимларининг чекланган сони Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади. Жамғарма дирекциясига Жамғарма кузатув кенгаши томонидан тайинланадиган директор бошчилик қилади».

д) 32-бандда:

– куйидаги мазмундаги бешинчи хатбоши билан қўшилсин:

– «махсуе ваколатли орган билан келишган ҳолда суғурталовчи билан Жамғарма ўртасида тузилган аъзолик битими амал қилишини тугатиш зарурлиги тўғрисида кузатув кенгашига таклиф киритади»;

– бешинчи хатбоши олтинчи хатбоши деб ҳисоблансин;

е) 36-банднинг иккинчи хатбоши куйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«Даромадлар ва харажатларнинг йиллик прогнозлари, шу жумладан, Жамғарманинг харажатлар сметаси кузатув

кенгаши томонидан келгуси йилнинг 10 февралига қадар тасдиқланади»;

– қуйидаги мазмундаги учинчи хатбоши қўшилсин:

«Бунда Жамғарманинг харажатлар сметаси тасдиқлангунга қадар харажатлар суммаси олдинги молия йилининг охириги чорагидаги харажатлар суммасидан ошиб кетмаслиги керак ва қонунчиликда белгиланган тадбирларни амалга ошириш учун харажатлар суммаси ҳисобга олинган ҳолда тузатиш киритилиши мумкин.»;

ж) 37-банд ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

3. 3-илова матни қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича тўловларни қафолатлаш жамғармаси дирекциясининг тузилмаси

Жамғарма Кузатув кенгаши зарур ҳолларда бошқарув ходимларининг белгиланган сони ва меҳнатга ҳақ тўлаш фонди доирасида Жамғарма дирекцияси тузилмасига ўзгартиришлар киритиш ҳуқуқига эга.».

4. 4-илова:

а) 11-банднинг иккинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«Суғурта полиси ва махсус давлат белгиси бланкаси қатъий ҳисобда турадиган ҳужжатлар ҳисобланади, улар ҳисобга олиш сериясига, тартиб рақамига ва химояланганликнинг камида 4 та даражасига эга бўлиши керак. Суғурта полиси ва махсус давлат белгиси бланкалари суғурталовчининг буюртмаси бўйича «Давлат белгиси» давлат ишлаб чиқариш бирлашмасида босмаҳона усулида, ушбу Қоидаларга 1, 1а ва 2-иловаларга биноан суғурта полиси намунасига ҳамда махсус давлат белгиси шаклига мувофиқ тайёрланади».

б) 12-бандда:

биринчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«Мажбурий суғурта шартномасини тузиш учун суғурта

қилдирувчи суғурталовчига ушбу Қоидаларга 3-иловага мувофиқ шакл бўйича ариза-анкетада кўрсатилган мажбурий суғурта шартномасини тузиш тўғрисидаги ариза-анкетани ҳар бир транспорт воситаси бўйича тақдим этади, шунингдек, ариза-анкета маълумотлари билан уларни солиштириш учун қуйидаги ҳужжатларнинг асл нусхаларини тақдим қилади:»

«в» кичик банд ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин;

«д» кичик банднинг иккинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

қуйидаги мазмундаги хатбоши қўшилсин:

«Суғурталовчи мажбурий суғурта бўйича зарур маълумотлар ягона ахборот маълумотлар базасида мавжуд бўлган тақдирда суғурта қилдирувчидан юқорида қайд этилган ҳужжатларни талаб этмасдан мажбурий суғурта шартномасини тузишга ҳақлидир».

в) 13-бандда:

қуйидаги мазмундаги иккинчи хатбоши билан қўшилсин:

«Суғурталовчи ягона ахборот маълумотлар базасидан транспорт воситасини бошқаришга қўйилган шахс бўйича мажбурий суғурта тўғрисидаги маълумотларни олиш ҳуқуқига эга»;

иккинчи — бешинчи хатбошилар тегишли равишда учинчи — олтинчи хатбошилар деб ҳисоблансин.

г) 17-банд қуйидаги тахрирда баён қилинсин:

«Суғурта қилдирувчи томонидан аввал тўланган суғурта мукофоти ставкасига таъсир кўрсатмайдиган мажбурий суғурта шартномасини тузишда тақдим этилган маълумотлардаги ўзгаришлар (транспорт воситасини бошқаришга қўйилган шахснинг ўзгаришидан ташқари) тўғрисидаги аризани олган тақдирда суғурталовчи амалдаги мажбурий суғурта бўйича суғурта полисининг «Алоҳида қайдлар» устунига ўзгартиришлар киритади.

Бошқа ҳолларда суғурталовчи томонидан 3 иш куни мобайнида мажбурий суғурта бўйича суғурта полиси ва махсус давлат белгиси қайта расмийлаштирилади.

Суғурта қилдирувчи қайта расмийлаштирилган мажбурий суғурта бўйича суғурта полиси ва махсус давлат белгисини олган тақдирда, у илгари берилган мажбурий суғурта бўйича суғурта полисини ва махсус давлат белгисини қайтариб бериши шарт. Суғурта қилдирувчи томонидан қайтариб берилган мажбурий суғурта бўйича суғурта полиси ва махсус давлат белгиси қайта расмийлаштирилган ҳужжатларнинг иккинчи нусхалари билан бирга суғурталовчида сақланади».

д) 20-бандга қуйидаги мазмундаги хатбоши билан қўшилсин:

«Бунда суғурта қилдирувчига қайтарилиши лозим бўлган суғурта мукофотининг бир қисми суғурта қилдирувчининг аризасига мувофиқ янги тузилган мажбурий суғурта шартномаси бўйича суғурта мукофоти ҳисобига ўтказилиши мумкин»;

е) 28-банд қуйидаги таҳрирда баён қўшилсин:

«28. Мажбурий суғурта шартномаси бўйича суғурта мукофотини ҳисоблаш суғурталовчи томонидан мажбурий суғурта шартномасини тузиш тўғрисидаги ариза-анкетада суғурта қилдирувчи томонидан кўрсатилган маълумотлардан, шунингдек, ушбу Қоидаларга 4-иловага мувофиқ шакл бўйича тақдим этилган маълумотлардан ёки суғурталовчида мавжуд бўлган, ҳужжатлар асосида тасдиқланган маълумотлардан ёхуд мажбурий суғурта тўғрисида ягона ахборот базасидан олинган маълумотлардан келиб чиққан ҳолда амалга оширилади»;

ж) 33-бандда:

қуйидаги мазмундаги ўн биринчи хатбоши қўшилсин:

«Суғурталовчи Тўловларни кафолатлаш жамғармасига тақдим қилинадиган маълумотларнинг тўғрилиги ва тўлиқлиги учун жавоб беради».

ўн биринчи-ўн иккинчи хатбошилар тегишли равишда ўн иккинчи ва ўн учинчи хатбошлар деб ҳисоблансин;

з) 36-банд қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«36. Жабрланувчи суғурта тўлови тўғрисидаги аризани суғурталовчига ёки унинг филиалига юборади».

и) 37-банднинг биринчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«Жабрланувчи ёки унинг меросхўри (агар жабрланувчининг аҳволи мустақил равишда мурожаат қилишга имкон бермаса, қариндошлари ёки бошқа ваколатли вакиллар) ёхуд унинг ҳуқуқий вориси суғурта тўлови тўғрисидаги талаб кўрсатилган аризани қуйидагиларнинг асли ёки нусхалари илова қилинган ҳолда суғурталовчига ёки унинг филиалига юборади:»

к) Қоидаларга 1-илова матни қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

л) Қоидаларга 1а-илова қўшилсин:

м) Қоидаларга 2-илова матни қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

н) Қоидаларга 5-илованинг 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 ва 9 бандлари қуйидаги таҳрирда баён қилинсин:

«1. Транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича суғурта тарифларининг йиллик базавий ставкаси миқдори (суғурта суммасининг белгиланган миқдорига нисбатан фоизларда).

Т/р	Транспорт воситаси тури	Йиллик базавий ставка, Т.
1.	Енгил автомобиллар	0,1
2.	Юк автомобиллари	0,12
3.	Автобуслар ва микроавтобуслар	0,12
4.	Трамвайлар, мотоцикллар ва мотороллёрлар, тракторлар, ўзиюрар йўл-қурилиш машиналари ва бошқа машиналар	0,04

2. Транспорт воситасидан кўп фойдаланиладиган ҳудудга (рўйхатдан ўтказиш жойига) кўра суғурта тарифлари коэффиценти.

Т/р	Транспорт воситасидан кўп фойдаланиладиган ҳудуд (рўйхатдан ўтказиш жойи)	КТ коэффиценти
1.	Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти	1,4
2.	Бошқалар	1,0

Изоҳ. Чет давлатларда рўйхатдан ўтказилган ва Ўзбекистон Республикаси ҳудудида вақтинчалик фойдаланилаётган транспорт воситалари эгалари билан мажбурий суғурта шартномаси тузилганда КТ — 1,4 коэффиценти белгиланади.

3. Транспорт воситасини бошқаришга қўйилган шахслар сони чекланмаган ҳолда транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш бўйича суғурта қилишда суғурта тарифлари коэффиценти — КБО (3)»

4. Олдинги даврларда суғурта ҳодисалари содир бўлганлиги ёки содир бўлмаганлигига қараб суғурта тарифлари коэффиценти.

Т/р	Кўрсаткич номи	КБМ коэффиценти
1.	Олдинги мажбурий суғурта шартномаси амал қилиш даврида юз берган битта суғурта ҳодисаси	2,0
2.	Олдинги мажбурий суғурта шартномаси амал қилиш даврида юз берган иккита суғурта ҳодисаси	2,5
3.	Олдинги мажбурий суғурта шартномаси амал қилиш даврида юз берган уч ва ундан кўп суғурта ҳодисаси	3,0

Изоҳлар:

1) Биринчи марта, шунингдек олдинги мажбурий суғурта шартномаси амал қилиш даврида суғурта ҳодисалари бўлмаса мажбурий суғурта шартномаси тузишда суғурта қилдирувчига (транспорт воситаси эгасига) бирга тенг бўлган коэффицент белгиланади;

2) Агар транспорт воситасини бошқаришга бир неча шахсга рухсат берилган бўлса, транспорт воситасини бошқаришга қўйилган шахслардан бирига мувофиқ бўлган энг юқори коэффициент қўлланилади.

5. Ҳайдовчининг стажига кўра суғурта тарифлари коэффициенти.

Т/р	Суғурта полисида кўрсатилган шахснинг ҳайдовчилик стаж	КВ коэффициент
1.	2 йилгача	1,0
2.	2 йилдан 5 йилгача	1,0
3.	5 йилдан ортиқ	1,0

6. Транспорт воситасидан мавсумий фойдаланишга кўра суғурта тарифлари коэффициенти.

Транспорт воситасидан фойдаланиш даври	КС коэффициент
6 ой	0,7
12 ой	1,0

Изох. Кейинги кайд қилиш жойигача транспорт воситалари эгалари учун суғурта муддати 20 кунгачани ташкил этади. Бундай ҳолларда КП — 0,2 коэффициент қўлланилади.

7. Хорижий давлатларда рўйхатдан ўтказилган ва Ўзбекистон Республикаси ҳудудида вақтинча фойдаланилаётган транспорт воситалари эгаларининг фуқаролик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилишда суғурта қилиш муддатига боғлиқ равишда суғурта тарифлари коэффициенти.

Суғурта қилиш муддати	КП коэффициент
15 кунгача	0,2
2 ой	0,4
12 ой	1,0

8. Қоида бузишлар мавжудлиги коэффициенти.

Суғурта қилдирувчида (транспорт воситасини бошқаришга қўйилган бошқа шахсларда) охириги 5 йилда

қуйида келтириладиган қоида бузишлар содир этилганда КН — 1,0 коэффициентини қўлланади:

— ўтган даврларда суғурталовчи сўраган ҳолатлар тўғрисида суғурта қилдирувчи томонидан маълумотлар касддан бузиб кўрсатилганлиги, бу тўғри маълумотлар хабар берилган тақдирда тўланиши керак бўлган суммага нисбатан камроқ суммада суғурта мукофоти тўланишига олиб келганлиги фактларининг мавжудлиги;

— ўтган даврларда суғурта қилдирувчи (мажбурий суғурта шартномаси бўйича фуқаролик жавобгарлиги суғурта қилинган бошқа шахс) томонидан суғурта ҳодисаси содир бўлишига, шунингдек етказилган зарар миқдори ошишига атайлаб кўмаклашишга ёки суғурта тўловини кўнайгириш мақсадида суғурта ҳодисаси содир бўлиши ҳолатларини касддан бузиб кўрсатишга йўл қўйилиши;

— ўтган даврларда регресс талаби қўйилишига асос бўлган ҳолатларда суғурта қилдирувчи (фуқаролик жавобгарлиги мажбурий суғурта шартномаси бўйича суғурта қилинган бошқа шахс) томонидан зарар етказиш фактларининг мавжудлиги.

Юқорида кўрсатиб ўтилган қоида бузишлар мавжуд бўлмаган тақдирда КН — 1,0 коэффициентини қўлланади.

9. Ҳайдовчининг ёшига кўра суғурта тарифлари коэффициентини.

Суғурта полисида кўрсатилган ҳайдовчининг ёши ва касбига оид маълумотлар	КВЗ коэффициентини
22 ёшгача	1,0
22 ёшдан катта	1,0

».

**Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 16 мартдаги 222-сон қарорига
2-ИЛОВА**

**Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз кучини
йўқотган қарорлари
РЎЙХАТИ**

1. Вазирлар Маҳкамасининг «Хорижий автотранспорт воситаларининг Ўзбекистон Республикаси божхона ҳудудида бўлишининг қўшимча шартлари тўғрисида» 2000 йил 12 январдаги 11-сон қарори (Ўзбекистон Республикаси ҚТ, 2000 й., 1-сон, 3-модда);

2. Вазирлар Маҳкамасининг «Тожикистон Республикаси ва Қирғизистон Республикаси автотранспорт воситалари ҳайдовчиларининг учинчи шахслар олдида Ўзбекистон Республикасида фуқаролик жавобгарлиги тўғрисида» 2000 йил 18 февралдаги 59-сон қарори (Ўзбекистон Республикаси ҚТ, 2000 й., 2-сон, 9-модда).

*(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,
16.03.2019 й., 09/19/222/2772-сон)*

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР
МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ**

**Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг
бўлғуси ҳосилини суғурталаш тизимини
такомиллаштириш тўғрисида**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Қишлоқ хўжалигида бозор механизмларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2018 йил 28 февралдаги

149-сон ҳамда «Бошокли дон етиштиришни янада рағбатлантиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2018 йил 27 ноябрдаги 959-сон қарорлари ижросини таъминлаш, шунингдек, пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъектларини турли табиий офатлар натижасида кўриладиган зарарлардан суғурталаш орқали ҳимоялаш тизимини амалиётга кенг жорий қилиш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

1. Пахта хом ашёси ва бошокли дон экинларининг бўлгуси ҳосилини суғурталаш тартиби тўғрисидаги низом иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. «Ўзагросуғурта» АЖ томонидан пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъектларига пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштириш учун бериладиган имтиёзли кредитларнинг 4 фоизи миқдоридида суғурта харажатларига ажратиш бўйича ҳар йили:

бошокли дон экинлари ҳосили учун — 1 февралгача;

пахта ҳосили учун — 1 июнгача бўлган муддатларда суғурта шартномаларини расмийлаштириш тартиби белгиланганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигига пахта хом ашёси ва бошокли дон экинларининг бўлгуси ҳосили суғуртасининг зарарлилиқ даражасидан келиб чиққан ҳолда, мазкур қарорнинг 2-бандида назарда тутилган суғурта харажатлари миқдорига ўзгартириш киритиб бориш ҳуқуқи берилсин.

4. Белгилансинки:

пахта хом ашёси ва бошокли дон экинларининг бўлгуси ҳосилини суғурталаш бўйича расмийлаштирилган суғурта шартномаларига асосан тўланиши лозим бўлган суғурта товонлари, пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи хўжалик субъектларидан тушган жами суғурта мукофотларининг 80 фоизгача бўлган қисми «Ўзагросуғурта» АЖ томонидан қопланади;

сугурта товонларининг қолган қисми Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан «Ўзагросугурта» АЖга ажратиладиган бюджет субсидияси орқали қопланади.

5. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ҳокимликлари Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари Кенгаши билан биргалликда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш жамғармаси томонидан пахта хом ашёси ва бошқали дон экинлари етиштиришни молиялаштириш учун ажратиладиган имтиёзли кредитлар ҳажмини тасдиқлашда кредитлашнинг дастлабки икки ойида сугурта қилиш харажатлари учун етарли миқдорда маблағлар ажратилишини таъминласин.

6. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари — молия вазири Ж.А. Қўчқоров зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2019 йил 17 июнь, 505-сон

**ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ 2019 ЙИЛ 17
ИЮНДАГИ 505-СОН ҚАРОРИГА
ИЛОВА**

**Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг
бўлғуси ҳосилини суғурталаш тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Мазкур Низом пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг бўлғуси ҳосилини суғурталаш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низом пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларини етиштирувчи барча тадбиркорлик субъектларига, жумладан, пахта-тўқимачилик ишлаб чиқарувчилар ва кластерларга нисбатан татбиқ этилади.

3. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

– ариза — суғурта қилдирувчининг суғурта шартномасини тузиш истаги билдирилган ёзма мурожаати;

– ишчи гуруҳлар — Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 28 февралдаги 149-сон қарори билан тасдиқланган Пахта хом ашёси ва бошоқли дон етиштириш бўйича харажатларни кредитлаш ва топширилган маҳсулот учун якувий ҳисоб-китобларни амалга ошириш тартиби тўғрисидаги низом асосида туман ҳокимининг ўринбосари раҳбарлигида ташкил этиладиган ишчи гуруҳ;

– мониторинг — пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларини етиштириш учун ер майдонларининг экишга тайёргарлиги, экинлар экилиши, ривожланиши ва ҳосил йиғиб олинishi даврида олиб бориладиган кузатиш жараёни;

– мониторинг далолатномаси — ишчи гуруҳлар томонидан тузиладиган даврий ёзма ҳужжат;

— суғурталовчи — тегишли турдаги суғуртани амалга ошириш учун лицензияга эга бўлган ва суғурта шартномасига мувофиқ суғурта товони (суғурта пули) тўловини амалга ошириш мажбуриятини оловчи тижорат ташкилоти бўлган юридик шахс;

— суғурта даври — суғурталовчи суғурта шартномаси амалда бўлган даврда содир бўлган суғурта ходисалари бўйича мажбуриятларни ўз зиммасига оладиган давр;

— суғурта мукофоти — суғурта килдирувчи суғурта шартномасида белгиланган тартибда ва муддагларда суғурталовчига тўлаши шарт бўлган суғурта ҳақи;

— суғурта полиси — суғурта шартномаси тузилганлигини тасдиқловчи ва суғурта килдирувчига суғурта мукофотини ёки унинг биринчи қисмини тўлагандан кейин бериладиган ҳужжат;

— суғурта суммаси — суғурта килдирувчи ва суғурталовчининг келишувига мувофиқ белгиланадиган пул маблағлари миқдори бўлиб, суғурталовчи суғурта шартномаси бўйича суғурта товонини ундан ошмаган миқдорда тўлаш мажбуриятини олади;

— суғурта таваккалчиликлари — бўрон, дўл, кучли ёмғир (жала), қурғоқчилик ва гармсел, тупроқнинг ўта намлиги, кучли қор ёғиши, қорасовуқ, сув сатҳининг паст бўлиши, сув сатҳининг баланд бўлиши (сув тошқини), яшин уриши, ёнғин, зараркунандалар, пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари касалликлари;

— суғурта товони — суғурталовчи суғурта шартномасида келишилган суғурта ходисаси содир бўлганда суғурта килдирувчи кўрган зарарларини суғурта суммасидан ошмаган миқдорда тўлайдиган пул маблағлари миқдори;

— суғурта шартномаси — ёзма келишув бўлиб, унга кўра суғурталовчи келишувда шартлашилган ҳақ (суғурта мукофоти) эвазига келишувда назарда тутилган воқеа

(суғурта ходисаси) содир бўлганда суғурта қилдирувчига суғурта товонини тўлаш мажбуриятини олади;

– суғурта қиймати — суғурта қилдирувчининг бутун пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинлари майдонидан оладиган ҳосил қиймати;

– суғурта қилдирувчи — суғурталовчи билан тузилган суғурта шартномасига мувофиқ ушбу шартномада келишилган суғурта мукофотини (суғурта тўловини) тўловчи ва суғурталовчи билан аниқ суғурта муносабатларига кирувчи ҳар қандай ташкилий-ҳуқуқий шаклдаги тадбиркорлик субъекти;

– суғурта ходисаси — суғурта шартномасида кўрсатилган ва у содир бўлиши билан суғурталовчининг суғурта қилдирувчига суғурта товони (суғурта пули) тўловини амалга ошириш мажбурияти келиб чиқадиган юз берган воқеа;

– экин — пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинлари.

4. Суғурта шартномасида белгиланган суғурта таваккалчиликлари оқибатида экин ҳосилдорлигининг камайиши ёки нобуд бўлиши натижасида суғурта қилдирувчининг зарар кўриши билан боғлиқ мулкий манфаатлари суғурта объекти ҳисобланади.

2-боб. Суғурта шартномасини тузиш тартиби

5. Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг бўлғуси ҳосилини суғурталаш ва суғурта ходисаси юз берганда уларга суғурта товонларини тўлаш ушбу Низомга 1-иловада келтирилган схемага мувофиқ амалга оширилади.

6. Ҳар йили туман ҳокимликлари, туман фермер, дехқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашлари ҳамда суғурталовчи томонидан пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларини етиштиришни молиялаштириш учун ажратиладиган имтиёзли кредитлар ҳажмини тасдиқлашда ушбу экинларни етиштириш учун режалаштирилган экин

майдони, ҳосилдорлик, кафолатланган харид нархлари асосида ҳисобланган ялпи ҳосил қийматидан келиб чиқиб, жами экинлар ҳосилини суғурталаш учун зарур бўлган суғурта мукофотлари ҳажми белгиланади.

7. Пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъектлари экин майдони, ҳосилдорлик режаси тўғрисида маълумотларни илова қилган ҳолда бўлгуси экиндан кам ҳосил олиши натижасида кўрадиган молиявий зарарини суғурталаш тўғрисида суғурталовчининг ҳудудий бўлинмаларига ариза беради.

8. Суғурталовчи суғурта қилдирувчи томонидан тақдим этилган ариза ва маълумотлар асосида суғурта қиймати, суғурта пули ва суғурта мукофоти миқдорини ҳисоблайди.

Ушбу маълумотлар асосида суғурталовчи ва суғурта қилдирувчи ўртасида икки нусхада суғурта шартномаси тузилади.

9. Тижорат банки томонидан пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъектига пахта хом ашёси ва бошокли дон етиштиришни молиялаштириш учун имтиёзли кредит ажратишда унинг бўлгуси ҳосилни суғурталаш бўйича суғурта шартномаси мавжудлиги талаб қилинади ва ушбу шартнома бўйича расмийлаштирилган полис имтиёзли кредитнинг таъминоти сифатида қабул қилинади.

Бунда имтиёзли кредит маблағлари ҳисобидан, биринчи навбатда, пахта хом ашёси ва бошокли дон экинларининг бўлгуси ҳосилини суғурталаш учун суғурта мукофоти тўлангандан сўнг имтиёзли кредит маблағлари ҳисобидан ҳосил етиштириш билан боғлиқ бошқа харажатлар бўйича тўловларни амалга оширишга руҳсат этилади.

10. Суғурта шартномаси тузилгандан сўнг 30 иш куни ичида суғурта қилдирувчи томонидан суғурталовчининг ҳисобракамига суғурта мукофотлари (суғурта қилдирувчининг ўз маблағи, тижорат банкларининг кре-

дитлари ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан) ўтказиб берилади. Суғурталовчининг мажбуриятлари суғурта мукофоти тўлангандан сўнг кучга киради. Шартномада кўрсатилган муддатда суғурта мукофоти тўланмаса, суғурталовчининг мажбуриятлари кучга кирмайди.

11. Суғурталовчи суғурта мукофотларини тўлиқ тўлагандан сўнг суғурта қилдирувчига 3 иш куни ичида суғурта полисини расмийлаштириб беради. Суғурта қилдирувчи томонидан суғурта мукофоти қисман тўланган тақдирда, суғурта полиси тўланган суғурта мукофотига мутаносиб равишда расмийлаштирилиб берилади.

12. Экинлар экилганидан сўнг 30 кун ичида суғурталовчи ва тижорат банки (суғурта қилдирувчи имтиёзли кредит олган ҳолда) томонидан жойига чиққан ҳолда экин майдонлари мониторинги ўтказилади.

13. Мониторинг натижасида экин майдонларида экинлар экилмаганлиги ёки бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари экилганлиги аниқланган тақдирда, мониторинг далолатномаси тузилади ва суғурта шартномаси муддатидан олдин бекор қилинади. Бунда экинлар қисман экилган тақдирда, суғурта жавобгарлиги ҳақиқатда экилган майдонга нисбатан олиб борилади.

Мониторинг натижасида экинлар суғурта шартномасида белгиланган суғурта таваккалчиликлари натижасида униб чиқмаганлиги аниқланган тақдирда суғурта жавобгарлиги ушбу экин майдони учун экиш харажатларига ажратилган маблағлардан ошмаган миқдорда олиб борилади.

3-боб. Экинлар ҳолатининг мониторингини ўтказиш

14. Ишчи гуруҳ томонидан мониторинг пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинлари етиштирувчи ҳар бир тадбиркорлик субъекти бўйича экинларнинг ҳолатини ҳамда тижорат банклари томонидан берилган имтиёзли

кредитларнинг қайтарилишини таъминлаш учун бўлгуси ҳосилнинг етарлилигини аниқлаш мақсадида доимий равишда ўтказилади.

15. Ишчи гуруҳ суғурта шартномасини тузиш даврида пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъектларига тижорат банклари томонидан берилган имтиёзли кредитларнинг мақсадли ишлатилишини ҳамда экинларнинг бутун ривожланиш даврида мониторинг ўтказиш муддатларини келишиб олади ва мониторинг жадвалини тасдиқлайди.

16. Ишчи гуруҳ ҳақиқатда сарфланган харажатлар ўрганиб чиқилганидан сўнг пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъектларининг экин ер майдони (даласи)га чиқиб, агротехник ишлар ҳақиқатда бажарилганлиги бўйича мониторинг ўтказилади.

17. Суғурталовчи томонидан экинлар ҳолати доимий мониторинг қилиб борилади.

4-боб. Мониторинг натижаларини расмийлаштириш

18. Ишчи гуруҳ томонидан ўтказилган мониторинг натижаси бўйича ҳар бир тадбиркорлик субъекти учун алоҳида мониторинг далолатномаси тузилади. Мониторинг далолатномасини тузишда қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

– экин режада белгиланган майдонга тўлиқ экилганлиги (майдон бутлиги, бошқа экин экилганлиги, қисман ёки умуман экилмаганлиги);

– минерал ва маҳаллий ўғитлар берилганлиги ва озиқлантириш агротехникасига риоя қилинганлиги;

– экин майдонларини бегона ўтлар босганлиги ва қарши курашиш чораларини кўрилганлиги;

– суғориш иншоатини мавжудлиги, ариқ ва зовурлар тозаланганлиги ва ўз вақтида суғорилганлиги;

— экин зараркунанда ва касалликлари тушишининг олдини олиш бўйича ишлар олиб борилгани ҳамда уларга қарши курашилганлиги;

— гўза орасига ишлов бериш ишлари ўз вақтида амалга оширилганини ўрганиш ва керакли тавсиялар бериш.

Ушбу агротехник тадбирлар меъёр доирасида олиб борилган бўлса мониторинг далолатномасида ижобий хулоса берилади ва сугурта жавобгарлиги давом эттирилади.

Агар ушбу агротехник тадбирлар бажарилиши етарли даражада олиб борилмаган бўлса (мониторинг далолатномаси хулоса қисмида кўрсатилади) мониторинг далолатномасида салбий хулоса берилади.

Ушбу мониторинг далолатномасига ҳар бир иштирокчи ўз имзосини ва муҳрини (мавжуд бўлганда) қўйиши талаб этилади.

19. Мониторинг ўтказувчи вакиллар, экин майдонлари ва экин ҳолатини тўлиқ ақс этириш мақсадида мониторинг далолатномасига кўшимча равишда алоҳида ўз хулосаларини ҳам ёзишлари мумкин.

20. Мониторинг далолатномасида ишчи гуруҳ томонидан агротехник тадбирларнинг ўтказилиши бўйича қишлоқ хўжалиги экинларини етиштирувчи тадбиркорлик субъектларига тавсиялар берилади. Навбатдаги мониторинг даврида олдинги мониторинг далолатномасида берилган тавсияларнинг бажарилиши ўрганилади.

5-боб. Суғурта ҳодисаси ва суғурта товонини тўлаш тартиби

21. Суғурта шартномаси амал қилган даврда суғурта ҳодисасини келтириб чиқарувчи ҳодисалар оқибатида экинлар зарарланиши ёки нобуд бўлиши натижасида ҳосилни олиш имконияти камайса ёки йўқолса, суғурта қилдирувчи суғурталовчига 10 иш куни ичида бўлиб ўтган ҳодиса тўғрисида хабарнома беради. Шунингдек, мониторинг

ўтказган суғурталовчининг маъсул мутахассислари ҳам ушбу ходисалар тўғрисида суғурта қилдирувчига маълумот беришлари лозим.

22. Хабарномага асосан суғурталовчи ва ишчи гуруҳлар томонидан экинга етказилган зарар 10 кун ичида жойида ўрганиб чиқилади ва далолатнома тузилади.

23. Суғурта қилдирувчи йиғиштириб олган ҳосилдорлик киймати суғуртага қабул қилинган ҳосилдорлик кийматидан кам бўлганда, қуйидаги ҳужжатларни суғурталовчига тақдим этади:

суғурта полисининг нусхаси;

– бўлиб ўтган ходисалар натижасида экин зарарланганлиги ёки нобуд бўлганлигини туман ҳокимлиги ишчи гуруҳи томонидан тасдиқлаб тузилган далолатнома (агар мавжуд бўлса);

– ҳодиса (ҳодиса тавсифи ва етказилган зарар сабабларига кўра) ушбу Низомнинг 24-бандида кўрсатилган ташкилотлар томонидан тасдиқланган маълумотнома.

24. Ҳодиса тавсифи ва етказилган зарар сабабларига кўра ходисани тасдиқловчи маълумотнома қуйидагилар ҳисобланади:

– агар зарар бўрон, дўл, кучли ёмғир (жала), қурғоқчилик ва гармсел, тупроқнинг ўта намлиги, кучли қор ёғиши, қорасовуқ, сув сатҳининг паст бўлиши, сув сатҳининг баланд бўлиши (сув тошқини) яшин уриши натижасида рўй берса — гидрометеорология хизмати марказининг (худудий бўлинмаси) маълумотномаси;

– агар зарар ёнғин натижасида рўй берса — туман ички ишлар бўлимининг ёнғинга қарши кураш бўлими маълумотномаси;

– агар зарар зарарқунандалар ёки экинларга касалликлар тушиши натижасида рўй берса — экин майдонларига ҳақиқатдан ҳам зарарқунандалар томонидан зарар етказилганлигини ва уларга қарши курашилганлигини тасдиқлаш

бўйича ваколатли ташкилот маълумотномаси ҳамда ушбу ташкилот билан тузилган шартнома нусхаси;

– агар зарар минерал ўғитларнинг ўз вақтида ва тўлиқ етказиб берилмаганлиги натижасида рўй берса — пахта хом ашёси ва бошқоқли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъектига белгиланган ва ҳақиқатда олинган минерал ўғит миқдори бўйича ваколатли ташкилот маълумотномаси ҳамда ушбу ташкилот билан тузилган шартнома нусхаси;

– етиштирилган экин тўлиқ йиғиштириб олинганлигини тасдиқловчи туман қишлоқ хўжалиги бўлими маълумотномаси;

– етиштирилган экин тайёрлов ташкилотига топширилганлигини тасдиқловчи тайёрловчи (қабул қилувчи) ташкилот ҳамда туман статистика бўлими маълумотномалари.

Ушбу бандда кўрсатишган ҳужжатлардан бошқа қўшимча ҳужжатлар талаб қилинишига йўл қўйилмайди.

25. Суғурта қилдирувчининг суғуртага қабул қилинган бир гектар экин майдони учун ҳосилдорлик қиймати билан жорий йилда бир гектар экин майдонидан ҳақиқатда олинган ҳосилдорлик қиймати (суғурта мукофотини ҳисоблашда тасдиқланган ўртача харид нарх асос қилиб олинади) орасидаги фарқи экиндан кўрилган зарар деб ҳисобланади.

26. Суғурта товони миқдори ушбу Низомга 2-иловада келтирилган жадвал асосида, суғурта қилдирувчининг жами экин майдонидан олинган ялли ҳосили (тайёрлов корхонаси маълумотномалари асосида) ва тушган суғурта мукофоти миқдори ҳисобга олинган ҳолда, суғурта пули (суғурта жавобгарлиги) доирасида ҳисобланади.

27. Суғурта қилдирувчи томонидан экинни экиш, парваришlash ва ҳосилни йиғиштириб олиш даврида агротехника талабларига риоя қилмаганлиги аниқланганда, суғурта товони қуйидаги миқдорларда камайтиради:

– ўғит белгиланган меъёрдан кам берилган бўлса 5 (беш) фоиз;

- бегона ўтлар босиб кетган бўлса 5 (беш) фоиз;
- ўз вақтида сугорилмаган (сув берилмаган) бўлса 5 (беш) фоиз.

Суғурга товони чамаланган (апробациядан ўтказилган) ҳосил олинмаган бўлса 5 (беш) фоиз миқдорларда камай-тирилиши мумкин.

28. Суғурга қилдирувчи томонидан ушбу Низомнинг 23-бандида назарда тутилган ҳужжатлар ҳамда ёзма ариза суғурга даври якуни бўйича суғурталовчининг тўлов комиссиясига такдим этилади. Такдим этилган ҳужжатлар суғурталовчининг тўлов комиссияси томонидан ўрганиб чиқилиб, суғурга товонини тўлаш ёки тўлашни рад этиш тўғрисида 15 кун муддатда қарор қабул қилинади.

29. Суғурталовчининг суғурга товонини тўлаш ёки тўлашни рад этиш тўғрисидаги қарори суғурга қилдирувчига у суғурга товони тўлаш тўғрисида ариза такдим этган вақтдан бошлаб ушбу Низомнинг 28-бандида кўрсатилган муддатдан кечиктирмай хабар қилиниши керак ва товон тўлаш рад этилганда, қарорда рад этишнинг асослангирилган сабаблари кўрсатилиши лозим.

30. Суғурталовчининг суғурга товонини тўлаш тўғрисидаги қарори қабул қилинганда суғурталовчи ва суғурга қилдирувчи ўртасида суғурга ҳодисаси тан олинганлиги тўғрисида далолатнома тузилади.

31. Далолатнома асосида белгиланган суғурга товони 5 иш кун ичида суғурга қилдирувчининг 23210 ҳисоб-рақамига ўтказиб берилади ва ўтказилган суғурга товонлари, биринчи навбатда, ажратилган имтиёзли кредит ва унга ҳисобланган фоизларни қоплашга йўналтирилади.

32. Суғурга даври якуни бўйича суғурга ҳодисаси юзасидан суғурга қилдирувчилар томонидан такдим қилинган ҳужжатлар суғурталовчининг тўлов комиссияси томонидан ўрганиб чиқилиб, суғурга товонини тўлаш тўғрисида қабул қилинган қарор асосида экин ҳосили учун

жами аниқланган суғуртатовонлари ҳажми йиғилган суғурта мукофотларининг 80 фоизигача бўлган қисми доирасида суғурталовчи ўз маблағлари ҳисобидан қоплайди.

33. Ҳисоб-китобларга асосан аниқланган суғурта товонлари ҳажми йиғилган суғурта мукофотларининг 80 фоизидан ошган қисмини қоплаш учун Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан суғурталовчига бюджет субсидияси ажратилади.

Бунда бюджет субсидияси суғурталовчи томонидан белгиланган тартибда аниқланган суғурта товонларининг умумий суммаси (суғурталовчининг харажатларини инобатга олган ҳолда) суғурта мукофотлари ҳисобидан тўлиқ қопланмаган ҳолларда ажратилади.

34. Бюджет субсидияси маблағларини олиш учун суғурталовчи Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигига ушбу Низомга 3-иловага мувофиқ жадвал асосида ҳисоб-китобларни тақдим қилади.

35. Суғурталовчи томонидан тақдим қилинган маълумотлар Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги томонидан 15 кун муддатда ўрганиб чиқилиб, суғурталовчига аниқланган суғурта товонларини тўлаш учун бюджет субсидияси маблағларини ажратиш тўғрисида хулоса тайёрланади.

36. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги тайёрланган хулоса асосида 10 кун муддат ичида суғурталовчига аниқланган суғурта товонларини тўлаш учун бюджет субсидиясини ажратади.

37. Ажратилган бюджет субсидияси ҳисобидан суғурталовчи томонидан 5 кун муддат ичида суғурта товони аниқланган суғурта килдирувчиларга тўлиқ тўлаб берилади ҳамда бу ҳақда суғурталовчи томонидан Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигига ҳисобот тақдим этилади.

6-боб. Яқунловчи қоидалар

38. Ушбу Низом бўйича зиммага олинган мажбуриятларнинг бажарилмаганлиги ёки зарур даражада бажарилмаганлиги учун томонлар қонун ҳужжатларига мувофиқ жавоб берадилар.

39. Мазкур Низомдан келиб чиқадиган барча низолар ўзаро келишув йўли билан, келишувга эришилмаган тақдирда эса қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

**Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг
бўлғуси ҳосилини суғурталаш тартиби тўғрисидаги
низомга
1-ИЛОВА**

**Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг
бўлғуси ҳосилини суғурталаш ва суғурта ходисаси юз
берганда уларга суғурта товонларини тўлаш**

СХЕМАСИ

Босқич	Масъуллар	Чора-тадбирлар	Муддат
1-босқич	Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъекти, суғурта ташкилоти, тижорат банки	Суғурталовчига суғурта мукофотини тўлайди	Суғурта шартномаси тузилгандан сўнг 30 иш куни ичида
2-босқич	Суғурта ташкилоти	Суғурта қилдирувчига суғурта полисини тақдим этади	Суғурта мукофоти тўлангандак сўнг 3 иш куни ичида
3-босқич	Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъекти, суғурта ташкилоти	Суғурта ходисасини келтириб чиқарувчи ҳолатлар тўғрисида суғурталовчига хабарнома беради	Суғурта ходиса аниқланган кундан сўнг 10 иш куни ичида
4-босқич	Суғурта ташкилоти, Ишчи гуруҳлар	Экинга етказилган зарарни жойида ўрганиб чиқади ва далолатнома тузади	Хабарнома берилган сўнг 10 кун ичида

5-босқич	Пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъекти, сугурта ташкилоти	Ҳосилдан кўрилган зарарни қоплаш бўйича сугурталовчига ёзма ариза билан мурожаат қилади	Сугурта даври якуни бўйича
6-босқич	Сугурта ташкилоти	Сугурта қилдирувчининг тақдим этган ҳужжатлари асосида тегишли қарор (сугурта товонни тўлаш ёки тўлашни рад этиш) қабул қилади	Ариза тақдим этилган кундан бошлаб 15 кун муддатда
7-босқич	Сугурта ташкилоти, пахта хом ашёси ва бошокли дон экинлари етиштирувчи тадбиркорлик субъекти	Сугурта қилдирувчига аниқланган товонни тўлаб беради (жами тулган сугурта мукофотининг 80 фоизигача миқдорда)	5 иш куни ичида
8-босқич	Сугурта ташкилоти	Сугурталовчи томонидан аниқланган жами сугурта товонларининг 80 фоиздан ошган қисmini қоплаш мақсадида бюджет субсидияси ажратилиши учун Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигига тегишли ҳисоб-киتابни тақдим этади	Заруратга кўра
9-босқич	Молия вазирлиги	Маълумотни ўрганиб чиқиб, сугурталовчига сугурта товонларини тўлаш учун бюджет субсидиясини ажратиш тўғрисида ҳулоса тайёрлайди	15 кун муддатда
10-босқич	Молия вазирлиги	Аниқланган сугурта товонларининг 80 фоиздан ошган қисmini қоплаш учун сугурталовчига бюджет субсидиясини ажратади	10 кун муддатда

II-босқич	Суғурта тащ-килоты, пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинлари ешти-рувчи талбиркор-лик субъекти	Бюджет субсидияси ҳисобидан суғурта қилдирувчига суғурта товонини тўлаб беради ҳамда Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигига ҳисобот тақдим этади	5 кун муд-датда
-----------	---	---	-----------------

**Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг бўлғуси ҳосилини суғурталаш тартиби тўғрисидаги низомга
2-ИЛОВА**

20 _____ йил « _____ » _____ да тузилган _____
сов суғурта шартномасига асосан пахта хом ашёси
(бошоқли дон экинлари) ҳосили бўйича суғурта
товонини ҳисоблаш

ЖАДВАЛИ

												минтсўм													
1	Экда номи	2	Суғурталанган майдон (га)	3	1 га майдондаги режалаш-тирилган ҳосилдорлик (центнер)	4	1 ц ҳосилнинг префбурант нархи	5	1 га майдонга режалашти-рилган ҳосилнинг қиймати (3 уст* 4 уст)	6	Олинган ялпи ҳосил (цент-нер)	7	Жами майдондан олинган ҳосилнинг қиймати (4 уст* 6 уст)	8	1 га майдондан олинган ҳосил қиймати (7 уст/ 2 уст)	9	1 га майдондан сўрилган зарар (5 уст* 8 уст)	10	Жами экин майдондан кўрилган зарар суммаси (9 уст* 2 уст)	11	Агротехника талабларига риоя қилмаганлиги учун камайтирилган сумма	12	Тан олинган суғур га товони		

Пахта хом ашёси ва бошоқли дон экинларининг
бўлғуси ҳосилини суғурталаш тартиби тўғрисидаги
низомга
3-ИЛОВА

_____ йил ҳосили учун аниқланган суғурта
товонларини тўлаш учун Ўзбекистон Республикаси
Молия вазирлиги томонидан ажратиладиган субсидия
маблағлари

ҲИСОБ-КИТОБИ

млн. сўм

Қудудлар номи	Жами тушган суғурта мукофоти	Жами тўланадиган суғурта то- вони	Суғурта товонининг суғурталовчи ўз маблағлари ҳисобидан қопланган қисми	Ажратили- ши лозим бўлган субсидия маблағи
А	1	2	3 (1*80%)	4 (2-3)
ЖАМИ				

Қорақалпоғистон				
Андижон				
Бухоро				
Жиззах				
Қашқадарё				
Навонй				
Наманган				
Самарқанд				
Сурхондарё				
Сирдарё				
Тошкент				
Фаргона				
Хоразм				

(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,
18.06.2019 й., 09/19/505/3298-сон)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: «O'zbekiston», 1994.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. — T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003 y.
3. O'zbekiston Respublikasining “Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi 05.04.2002 yildagi 358-II-son qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida”gi 10.09.2008 yildagi 174-son qonuni
5. O'zbekiston Respublikasining “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida”gi qonuni. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2008-yil 21-aprel.

II. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI FARMONI VA QARORLARI

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF- 4947 sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi Farmoni.
7. Постановление Президента Республики Узбекистан от 9 октября 2017 года № ПП-3317 О мерах по совершенствованию деятельности Акционерного общества «Страховая компания Кафолат».
8. “O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son farmoni.

III ASOSIY ADABIYOTLAR

9. Фогельсон Ю.Б. Страховое право: теоретические основы и практика применения. Москва Норма ИНФРА-М 2012.
10. Гришин А.В. Правовая природа страхования и организация страховой деятельности. (монография), Орел: ОРЮИ МВД РФ 2009 с.27
11. Сафуанов Р.М. Взаимное страхование Российской федерации: экономико-организационные аспекты и анализ становления. Научное издание (монография) Уфа, 2011. с. 30.

12. Пинкин Ю.В. Справочник страховщика. Ростов на-Дону Феникс 2007 стр.101.

13. Логвинова И.Л. Взаимное страхование как метод создания страховых продуктов в Российской экономике. Научное издание (монография) Московская финансово-промышленная академия. М.: Анкил 2010. 21с.

14. Yefimov S.L. Ensiklopedicheskiy slovar. Ekonomika i strahovaniye. M.: Serix -PEL, 1996. I-X, s. 347

15. Гомелля В.Б., Рубин Ю.Б., Солдаткин В.И. Страховой портфель. Москва СОМИНТЕК, 1994. 7 стр.

16. Ynsurance: Principles and Practice. Compiled by David Bland, The Chartered Insurance Institute, Great Britain, 1993. p.1 b. 4.

17. Yefimov S.L. Ensiklopedicheskiy slovar. Ekonomika i strahovaniye. M.: Serix -PEL, 1996. I-X, s. 347.

INTERNET SAYTLARI

www.uza.uz

www.auinsurance.ru

www.expert.ru

www.ankil.ru

www.znay.ru

www.strahovka.ru

www.agros.uz

www.sig-insurance.uz

www.kafolatdask.uz

www.aig.com

www.alskom.uz

www.uzreport.com

www.stat.uz

www.kun.uz

SUG'URTA NAZARIYASI VA AMALIYOTI

Muharrir: S. Hoshimov
Musahhih: H. Zakirova
Sahifalovchi: A. Hidoyatov

Nashriyot litsenziyasi №AI 242, 04.07.2013 y.
Ofset qog'oz. Bosishga ruxsat etildi 13.12.2019.
Format 60x81 $\frac{1}{16}$. Garnitura «Times New Roman».
Bosma taboq 16.75 Adadi 200 nusxa. Buyurtma №63.

«VNESHINVESTPROM» mas'uliyati
cheklangan jamiyati.
100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.
Tel./faks: (+99871) 244-75-75